

UMUMIY PEDAGOGIKA
FANIDAN SEMINAR
MASHG'ULOTI MATERIALLARI
III-SEMESTR

Seminar mashg'uloti -1. O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimi. Pedagoglik kasbi va uning vazifalari. Pedagogika fan sifatida. Pedagogikaning ilmiy-tadqiqot metodlari. 4-soat

Reja

1. Ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy tamoyillari va ta'lim tizimi va turlari.
- 2.O'qituvchi va uning jamiyatda tutgan o'rni. O'qituvchi shaxsiga qo'yiladigan kasbiy talablar
3. O'qituvchining kasbiy shakillanish jarayoni
4. Pedagogika fanining maqsad vazifalari va boshqa fanlar bilan bog`liqligi.
5. Pedagogikaning ilmiy-tadqiqot metodlari.

O'quv mashg'ulotining maqsadi: Kurs haqida umumiy tushuncha berish, O'zbekiston respublikasi ta`lim tizimi, o`qituvchilik kasbi uning jamiyatda tutgan o'rni haqida ma`lumot berish.

O'quv faoliyatining natijalari: o`quv predmeti haqida umumiy tushunchalarga ega bo`ladilar va asosiy adabiyotlar bilan tanishadilar. «Umumiy pedagogika» fanining maqsad va vazifalarining mazmun-mohiyatini ochib beradi, umumiy pedagogika faniga mehr qo`yadilar shu bilan birga talabalarda qiziqish uyg`onadi. Umumiy pedagogika fanining maqsad va vazifalari haqida ma`lumot beradi, va pedagogikaning ilmiy tadqiqot metodlarini, izohlab beradi.

Mavzu yuzasidan savollar:

1. Metod tushunchasining mohiyatini ochib bering.
2. Ilmiy-tadqiqot metodlarining fan taraqqiyotidagi ahamiyatini tahlil qiling.
3. Pedagogik ilmiy-tadqiqot metodlarining ta`lim va tarbiya metodlaridan farqini ajratib bering.
4. Pedagogik ilmiy-tadqiqotlarning maqsad-vazifalaridan kelib chiqqan holda qo'llaniladigan metodlar tizimini so'zlab bering.
5. O'quvchi shaxsini o'rganish uchun so'rov nomasi (anketa) tayyorlang va uni o'z mактабингизда to'ldirib natijalarini umumlashtiring.

Taqdimotni baholash mezonlari:

- 1.Talabaning mimikasi va pontomimikasiga -1
2. Mantiqan bog`langanligi va izchilligi, nutqning ravonligi – 2
3. Ko`rgazmalilik va reglament - 2
4. Jami: eng yuqori baho: 5 ball

Tayanch ibora va tushunchalar

« Ta`lim to'g'risida»gi qonun, Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi, uzlusiz ta`lim tizimi, ta`lim turlari, ijtimoiy himoyalash, ta`lim standartlari, akademik litsey, kasb-hunar kolleji, huquqiy maqom, atestatsiya, akkreditatsiya, nodavlat ta`lim muassasasi, bakalavriat, magistratura, aspirantura, doktarantura, davlat granti, Respublika byudjeti, mahalliy byudjet, byudjetdan tashqari jamg'arma, ta`limni taraqqiy ettirish fondi, milliy model, shaxs, davlat va jamiyat, umumiy va

o'rta ta'lim, intellektual rivojlanish, dissertatsiya, fan nomzodi, fan doktori, malaka oshirish, monitoring, tashkilot, moliyalash, yaxlit axborot makoni, axborot texnologiyasi, marketing.

Mavzuga oid muammolar:

1. O'zbekiston milliy istiqlolga erishgandan keyin 1992 yil iyul oyida birinchi «Ta'lim to'g'risida»gi qonun qabul qilindi. Bu qonun 1997 yilga kelib talabga javob bermay qoldi. Nima sababdan qonun shunchalik tez «eskirdi»? Uzoq muddatga mo'ljallab ishlab chiqilsa bo'lmasmidi?
2. 1997 yil avgustida «Ta'lim to'g'risida»gi yangi qonun qabul qilindi. Qonun bilan birga «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» ham ishlab chiqildi. Bu ikki hujjatni ishlab chiqilishida qanday ma'no bor. Sizningcha bu hujjatlar O'zbekistonda ta'lim taraqqiyotiga qanday ta'sir ko'rsatadi, pedagogika rivojigachi?
3. Kadrlar tayyorlash milliy dasturida kadrlar tayyorlash milliy modeli ishlab chiqilgan. Unda - shaxs, davlat va jamiyat, uzlusiz ta'lim, fan va ishlab chiqarish uzviy bog'liqlikda faoliyat yuritishi qayd etilgan. Milliy modelning bu 5 komponentlari orasidagi bog'lanishni izohlang. Chizma holiga keltiring. Agar ahamiyatiga ko'ra qayta joylashtiring deyilsa qanday tartibda joylashtirgan bo'lar edingiz?
4. «Ta'lim to'g'risida»gi qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi yanada samarali bo'lishi uchun ta'lim sohasida qanday o'zgarishlar qilishni ma'qullagan bo'lar edingiz?

1- savol bayoni

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikni qo'lga kiritgandan so'ng jamiyat taraqqiyotida qonun ustuvorligiga alohida e'tibor bera boshlandi. Demokratiya va insonparvarlik tamoyillariga har tomonlama mos bo'lgan Konstitutsiya ishlab chiqildi va qabul qilindi. Unga suyangan holda 1997 yilning avgustida Oliy Majlisning IX sessiyasida «Ta'lim to'g'risida»gi va Kadrlar tayyorlash bo'yicha milliy dastur qabul qilindi.

Bu hujjatlar bir qaraganda mamlakatimizda maorif ishlarini tartibga solish, ma'lum bir muddat davomida uning rivojlanishini ta'minlash maqsadiga qaratilgandek tuyuladi. Aslida esa ularning mohiyatiga chuqur ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy, ma'rifiy maqsad va vazifalar kiritilgan bo'lib, yaqin kelajakda O'zbekiston Respublikasi taraqqiyotining o'ziga xos modeli ishlab chiqilgan.

Mazkur qonunlarning hayotga tatbiq etilishi xalq xo'jaligining barcha sohalarini yangi taraqqiyot bosqichiga ko'tarish uchun xizmat qiladi. Chunki bu qonunlar jamiyatning har bir a'zosiga qobiliyati, qiziqish va intilishlariga mos bo'lgan ta'lim-tarbiya berish, shaxsiy sifatlarni to'la tarkib toptirish hamda namoyon etish imkonini yaratadi. Uzlusiz ta'lim tizimi barcha kishilarga mos bo'lgan ta'limni olishi, kasb egallashi, uni takomillashtirib borishlariga to'la sharoit yaratishga mo'ljallangan.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi 1 - chaqiriq 9 sessiyasida 1997 yil 29 avgustida tasdiqlangan qonun 5 bo'lim, 34 moddadan iborat.

1.Umumiy qoidalar.

2.Ta'lim tizimi va turlari.

3.Ta'lim jarayoni ishtirokchilarini ijtimoiy himoya qilish.

4.Ta'lim tizimini boshqarish.

5.Yakunlovchi qoidalar.

1.Umumiy qoidalar: Bu bo'limda mazkur qonunning maqsadi, qonun hujjatlari, xalqaro shartnomaga amal qilish yo'llari, davlat siyosatining ta'lim sohasidagi asosiy tamoyillari prinsiplari), ma'lumot olish huquqlari, pedagogik faoliyat yuritish huquqi, ta'limiy muassasalarning huquqiy maqomlari, davlatning ta'lim to'g'risidagi standartlari va ta'limni qanday tilda olish kabi holatlar ko'rsatilgan.

2. Ta'lim tizimi va turlari: O'zbekistonda ta'lim tizimi davlat va nodavlat ta'lim muassasalarini o'z ichiga oladi. Davlat ta'lim standartlari asosida ta'lim dasturlarini amalga oshiruvchi, ilmiy pedagogik muassasalar va boshqarish tashkilotlari hamda ularning joylardagi bo'linmalaridan iborat bo'ladi.

- O'zbekistonda ta'lim tizimi yaxlit va uzlusizdir.
- Ta'limning quyidagi turlari mavjud:
 - maktabgacha ta'lim: (6-7 yoshgacha);
 - o'rta umumiy ta'lim: (boshlang'ich 1-4,o'rta umumiy 1-11 sinf);
 - o'rta maxsus kasb ta'limi: (3 yillik akademik litsey, kasb hunar kolleji);
 - oliy ta'lim (bakalavr 4 yil, magistratura-2 yil);
 - oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim (aspirantura, doktarantura, ad'yunktura, ilmiy tadqiqotchi);
 - kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash;
 - maktabdan tashqari ta'lim.(yoshlar ijodiy saroylari, uylari, klublar, markazlar, jismoniy tarbiya va sport mакtablari, studiyalar, kutubxonalar, sog'lomlashtirish oromgohlari); Bularidan tashqari oila ta'limi va mustaqil ta'lim shakllari ham davlat tomonidan qo'llab quvvatlanadi.

Akkreditatsiyadan o'tgan ta'lim muassasalarini bitirganlar uchun davlat tartibidagi hujjatlar beriladi. (guvohnoma, diplom, sertifikat, yorliq)

3. Ta'lim jarayoni ishtirokchilarini ijtimoiy himoyalash:

O'quvchilarni ijtimoiy himoyalash maqsadida imtiyozlarini belgilovchi maxsus qonuniy hujjatlar bilan bir qatorda, nafaqa, yotoqxonalar berish mo'ljalangan.

Ta'lim sohasidagi xizmatchilar quyidagicha himoyalanadi:

Qisqartirilgan ish vaqt, o'quv yili so'ngida uzaytirilgan mehnat ta'tili, qonun asosidagi imtiyozlar (energiya vositalariga 50% haq to'lash, turar joylarni xususiylashtirish va h.k.) xizmatchini rag'batlantirish uchun imkoniyat darajasida qo'shimcha ish haqi to'lash mumkin.

Yetim va qarovsiz qolgan bolalar to'la davlat hisobidan ta'lim tarbiya olish huquqiga egadirlar.

Jismoniy va ruhiy kamoloti izdan chiqqan yoshlarni tarbiyalash uchun maxsus o'quv muassasalari tashkil etiladi. Ularga qabul qilish va qaytarish maxsus ruhiy tibbiy pedagogik komissiya tomonidan yo'lga qo'yiladi. Maxsus o'quv muassasalari qisman yoki to'la davlat ta'minotida bo'ladi.

4.Ta'lim tizimini boshqarish: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasi ta'lim sohasidagi yaxlit davlat siyosatini amalga oshiradi. Ta'limga rahbarlik qiluvchi davlat tashkilotlarini boshqaradi. Ta'limni rivojlanтирishning dasturlarini ishlab chiqadi va amalga tatbiq etadi. Ta'lim muassasalarini ochish, o'zgartirish va yopishning tartibini ishlab chiqadi va bajaradi.

5.Yakuniy qoidalar: Ota-onalar yoki qonun bo'yicha vakillarining vazifalari ta'limni mablag' bilan ta'minlash respublika va mahalliy byudjet (sarmoya) hamda byudjetdan tashqari jamg'armalar asosida bo'ladi. Ta'limni taraqqiy ettirish fondi ixtiyoriy to'lovlar aro (yuridik va jismoniy shaxslarning) asosida bo'ladi. Ta'lim muassasalari xalqaro hamkorlik imkoniyatlariga ega bo'lib, to'g'ridan-to'g'ri ta'limiy muammolarni hal etish bo'yicha aloqalar o'rnatish mumkin. Qonunga mos holda birgalikda muassasalar ochish huquqi berilgan. Ta'lim qonunini buzgan shaxslar javobgarlikka tortiladi.

Mustaqil ish topshiriqlari:

1. Turli ijtimoiy davrlarda ta'lim-tarbiya mazmuni qanday bo'lganini tavsiflang.
2. Pedagogika fanining obyekti va predmetiga aniqlik kiritting.
3. Pedagogikaning asosiy kategoriylaridagi uzviy aloqadorlikni asoslab bering.
4. Pedagogikaning turli tarmoqlariga tavsif bering.
5. Pedagogikaning ilmiy-tadqiqot usullarini ta'lim-tarbiya jarayonida qo'llab ko'ring.

Mavzu bo'yicha ilmiy xulosalar:

1. Pedagogika fanining predmeti, maqsad va vazifalari ta'lim -tarbiya tushuncha beradi.
2. Pedagogikaning fan sifatida shakllanishi haqida buyuk alomalarining ilmiy asarlari izoh beradi.
3. Pedagogikaning asosiy tushunchalari ma'lumot, ta'lim, tarbiya, rivojlanish haqida tushuncha beradi.
4. Pedagogika fan ilmiy-nazariy asosi shu metod hisobladi.
5. Pedagogika fanining tizimi va boshqa fanlar bilan aloqasi haqida tushuncha beradi.
6. Pedagogikaning ilmiy-tadqiqot metodlari orqali tushuncha beradi.

Mavzu bo'yicha yechimini kutayotgan ilmiy muammolar:

1. Milliy va umuminsoniy tarbiya texnologiyasining ilmiy va amaliy asoslarini ishlab chiqish.

2. Oila pedagogikasining ilmiy va nazariy asoslarini ishlab chiqish.
3. Pedagogika fanining rivojiga hissa qo'shgan sharq allomalarining ta'limotlarini ilmiy tahlil etish.
4. Talabalarda pedagogik ilmiy-tadqiqot metodlaridan foydalanish ko'nikmasini shakllantirishning ilmiy asoslarini yaratish.

Seminar mashg'uloti - 2. O'quvchi shaxsi tarbiyaning ob'yekti va sub'yekti sifatida 2-soat

Reja:

1. "Individ" va "shaxs" tushunchasi.
2. Shaxs rivohlanishiga ta'sir etuvchi omillar
3. Shaxs rivojlanishining yosh va psixologik xususiyatlari.

O'quv mashg'ulotining maqsadi: barkamol shaxs kamolotiga ta'sir etuvchi omillarni talabalar ongiga yetkazish, har bir omilning o'ziga xos ahamiyatini uqtirish, o'z kamolotida qaysi omilning ta'siri kuchli ekanligini aniqlash.

O'quv faoliyatining natijalari: o'quv predmeti haqida umumiy tushunchalarga ega bo`ladilar va asosiy adabiyotlar bilan tanishadilar. «O'quvchi shaxsi tarbiyaning ob'ekti va sub'ekti ekanligi haqida» ma'lumotga ega bo`ladilar, o`zlarini qiziqtirgan mavzuga oid muammoli savollarni o`rtaga tashlaydilar va talabalar bilan savolning echimini topishga harakat qiladilar.

Mavzu yuzasidan savollar:

1. Shaxs kamolotining omili nimalar hisoblanadi?
2. Ta'lim va tarbiyani shaxs kamolotining omili sifatida izohlab bering.
3. Shaxs kamolotining asosiy omillariga nimalar kiradi?
4. Tashqi qiyofa, qon aylanishi, oliv nerv faoliyati qaysi omil ta'sirida shakllanadi?
5. Til o`rganishda, urf-odatlarni egallahda qaysi omilning ta'siri kuchli bo`ladi?

Taqdimotni baholash mezonlari:

1. Talabaning mimikasi va pontomimikasiga -1
2. Mantiqan bog`langanligi va izchilligi, nutqning ravonligi – 2
3. Ko`rgazmalilik va reglament - 2
4. Jami: eng yuqori baho: 5 ball

Shaxsning kamolga yetishida nasl-irsiyat, ijtimoiy muhit ham maqsadga muvofiq amalga oshiriladigan ta'lim –tarbiya va nihoyat o`zining mustaqil faoliyati ham muhim ahamiyatga ega. Shaxs qaysi jamiyatda yashasa, o'sha jamiyat hayotidagi qonun-qoidalari asosida kamol topadi. Shu jamiyatning moddiy va ma'naviy boyligidan bahramand bo`ladi. Moddiy va ma'naviy boyliklarni yaratishda ishtirok etadi.

Inson kamolotida irsiyatning ta'siri.

Kishi tug`ilganidanoq o`ziga xos muayyan qobiliyat nishonlari bilan dunyoga keladi. Ular insoniyatning turli jihatlarini rivojlantirishda, ayniqsa psixik jarayonlari rivojida, his – tuyg`uni izhor etish sohasida, iste'dod turida jiddiy rol o`ynaydi.

Odam irsiy axborotni va fiziologik faoliyat ko`rsatish xarakterini, nerv sistemasi tipini, oshiradigan yuksak darajadagi nafisligini bir-biridan meros qilib organizm uchun muhim hayotiy moyillar va tarkibiy ehtiyojlarning fiziologik mexanizmi irsiyatga bog`liqdir.

Inson kamolotida muhitning ta'siri.

«Muhit» tushunchasi insonning hayot kechirishi va rivojlanishi uchun zaru bo`lgan tashqi vaziyatlarning murakkab sistemasini anglatadi. Bu vaziyatlar jumlasiga individ hayotning tabiiy sharoitlari bilan barobar ijtimoiy sharoitlari ham kiradi. Shaxs bilan muhitning o`zaro birgalikdagi harakatida ikkita hal qiluvchi sharoitni;

- shaxs aks etadigan hayotiy vaziyatlar ta'sirining xarakterini;
- vaziyatlarni o`z ehtiyojiga va manfaatlariga bo`ysundirish

Chunki:

- ta'lim –tarbiya jarayonida kishi organizmining o`sishi va muhitning stixiyali ta'siri bera olmaydigan narsalarni o`rganib oladi.

- ta'lim-tarbiya yordamida hatto kishining ba'zi tug`ma kamchiliklarini kerakli tomonga o`zgartirish mumkin.

- ta'lim-tarbiya yordamida muhitning salbiy ta'siri natijasida yuz bergen kamchiliklarni ham tugatish mumkin.

- ta'lim-tarbiya jarayonida bilim, ko`nikma va malakalar hosil qilinibgina qolmay, balki bolada ilmiy dunyoqarashi ham shakllanadi.

Insonning kamol topishida shaxsiy faolligining ahamiyati.

Ijtimoiy muhit, ta'lim-tarbiya shaxsning o`zi faol ishtirok etgandagina uning tug`ma layoqatini uyg`otadi. Iste'dod, qobiliyatini o`stiradi. Agar kishi o`z ishini sevsa, uning shu sohadagi iste'dodi tezroq ro`yobga chiqqa boshlaydi. Shuning uchun har bir o`qituvchi o`zining pedagogik faoliyati davomida o`quvchilarga ta'lim-tarbiya berar ekan, ularning o`z oldiga maqsad qo`yish va uni ro`yobga chiqarish, tinmay izlanish, mehnat qilish sifatlarini, iroda va qat'iyatlilikni tarbiyalab borishi kerak.

Mustaqil ish topshiriqlari

1. Shaxsning shakllanishida muhitning o`rnini aniqlash.
2. Ijtimoiy omil va biologik omil o`rtasidagi tafavutni aniqlash.

Mavzu bo'yicha yechimini kutayotgan ilmiy muammolar:

1. Shaxs shakllanishiga ta`sir etuvchi omillarni mukammal o`rganish o`quvchilarda qaysi omillar ustunligini aniqlab ularning salbiy xislatlarini bartaraf etish yutuqlarini yuksaltirish metodikasini ishlab chiqish.

Seminar mashg'uloti -3. Ta'lif jarayonining qonuniyatları va ta'lif mazmuni. Ta'lif metodlari va vositalari. Dars-ta'lifni tashkil etishning asosiy shakli. 4-soat

Reja:

1. Ta'lif qonuniyatları va tamoyillari haqida tushuncha.
2. Ta'lif o'zi amal qiladigan shart-sharoitga bog'liqligi
3. O'qituvchi va o'quvchi faoliyatining bog'liqligi. Davlat ta'lif standarti, o'quv rejasi, dasturi, darsliklar va qo'llanmalari.
4. Zamonaviy didaktikada ta'lif metodlari. Og'zaki, ko'rgazmali va amaliy metodlar va ta'lif vositalari
5. Ta'lif turlari va ta'lifni tashkil etish shakillari.
6. Dars ta'lifni tashkil etishning asosiy shakli sifatida

O'quv mashg'ulotining maqsadi: Talabalarga maktabda ta'lif jarayoni va mazmuni haqida tushuncha beradi va uni mukammal o'rganishga qiziqish uyg'otadi.

O'quv faoliyatining natijalari: o'quv predmeti haqida umumiylar tushunchalarga ega bo'ladilar va asosiy adabiyotlar bilan tanishadilar. Maktabda ta'lifning mazmuni haqida ma'lumotga ega bo'ladi.

Maktabda ta'lifni tashkil etishda ta'lif qonuniyatları, ta'lif mazmuni, ta'lif metodlari va vositalaridan unumli foydalanishga bo'lgan munosabat shakllanadi.

Mavzu yuzasidan savollar:

- 1.O'quv reja va o'quv dasturning o'xshashlik taraflari bormi? Uni tahlil qiling izohlang.
2. Ta'lif mazmunida aks etayotgan hujjatlarni sanab o'ting. Ularning bir-biriga bog'liqlik tomonlarini va farqlarini tahlil qiling.
3. Ta'lif metodlari bilan tarbiya metodlarini birma-bir ayting.
4. Ta'lif metodlarini siz qanday ta'riflaysiz? O'z ta'rifingizni izohlang

Taqdimotni baholash mezonlari:

- 1.Talabaning mimikasi va pontomimikasiga -1
2. Mantiqan bog'langanligi va izchilligi, nutqning ravonligi – 2
3. Ko'rgazmalilik va reglament - 2
4. Jami: eng yuqori baho: 5 baho

Maktabda ta'lifning mazmuni deganda o'quvchilar o'quv fanlarini o'rganish jarayonida egallaydigan bilimlar, ko'nikmalar ,malakalar tushuniladi. Maktabda ta'lifning mazmuni bevosita uning maqsadidan kelib chiqadi. Maktabda o'rganiladigan har bir fan insoniyat ijtimoiy – tarixiy tajribasining bir tomoni, qismidir.Ta'lif mazmuni deganda, o'quvchilarning o'qish jarayonida egallab olishi lozim bo'lgan hamda tizimga solingan bilim, malaka va ko'nikmalarining aniq belgilangan doirasi tushuniladi.

Ta'lifning mazmuni bir qator ehtiyojlarni hisobga olish bilan belgilanadi:

A. Ijtimoiy ishlab chiqarishning eng zarur ehtiyojlari, ijtimoiy tuzumning xususiyatlari;

B.Davlatning xalq ta'lifi va muayyan turdag'i o'quv yurti oldiga qo'yadigan maqsad hamda vazifalari;

V.O'qitish qoidalaridan kelib chiqadigan va o'quvchilarning imkoniyatlarini e'tiborga oluvchi didaktik talablar.

Maktabda beriladigan ta'limning mazmuni tarixiy hamda sinfiy xususiyatga egadir.

Jamiyat tarixiy taraqqiyotining hamma bosqichlarida maktablarda yoshlarga beriladigan ta'limning mazmuni, hajmi o'sha ijtimoiy tizimning iqtisodiy talab va ehtiyojlari, fan va texnika taraqqiyoti darajasi bilan belgilab kelingan.

XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asrning boshlariga kelib, pedagogika tarixida «maktabda beriladigan ma'lumotning mazmunini bola hoxishiga bo'ysundirish» »ga qaratilgan nazariya keng yoyildi. Mazkur nazariyaning ko'zga ko'ringan vakili Amerikalik faylasuf-pedagog Jon Dyuidir. Uning qarashicha, maktab azaldan mavjud bo'lgan tabiiy layoqatlarni, qiziqish va odatlarni rivojlantirishga xizmat qilmog'i lozim. Shunday ekan, maktablarda hamma o'quvchilar uchun umumiyl bo'lgan o'quv rejasi va dasturlarning bo'lisi ham shart emas, balki alohida-alohida shaxslar layoqatiga moslangan ma'lumotlar berilishi lozim.

Oktyabr to'ntarilishigacha bo'lgan davrda O'zbekiston hududi VII-VIII asrlardan beri davom etib kelgan eski-“usuli qadimiya”, XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida paydo bo'lgan – “usul savtiya” maktablari, xat savod o'rgatadigan diniy maktablar bo'lgan.

1905 yildan so'ng, o'lkaning ba'zi yirik shaharlarida “jadid” maktablari paydo bo'la boshladi. Mazkur maktablarda savdo-sotiq ishlari uchun zarur bo'lgan ayrim fanlar (hisob, tibbiyot, geografiya va boshqalar) o'qitilar edi. Shunday qilib, maktablarning hammasi O'sha ijtimoiy tuzum-muhit talablaridan kelib chiqdi va shu davr iqtisodiy, ma`naviy maqsadlari uchun xizmat qildi.

Hozirgi zamon maktablarda ta'limning mazmuni umuminsoniy fazilatlarga ega bo'lgan imonli, e'tiqodli yoshlarni tarbiyalab, yetishtirishdan iboratdir.

Bundan tashqari, maktablarda yoshlarga quruq ilmiy bilimlar berilmasdan ularga turmushda zarur bo'lgan xalq hunarmandchiligi, tabobat asoslari, odob-axloq yo'naliшlaridagi fanlarni ko'proq o'qitish talab etilmoqda. Maktablarda “odobnoma”, “islom tarixi va madaniyati”ning o'qitilishi joriy etilgan.

Xalq ta'limidagi bunday jumboqlarning ijobiy yechimi, jamiyatga, o'quv – tarbiya ishiga katta foyda keltirishi tabiiy.

Ta'lim mazmuni o'quv rejasi, dasturi va darsliklarda ifodalangan.

O'QUV REJASI davlat hujjatidir. O'quv rejasi-barcha o'rta umumiyl ta'lim maktablarida so'zsiz amal qilinadigan davlat hujjatidir. Unda sinflar bo'yicha o'rganilishi lozim bo'lgan o'quv fanlari va o'sha fanlar uchun ajratilgan o'quv soatlari ko'rsatilgan bo'ladi.

Maktabning yagona o'quv rejasi xalq ta'limi vazirligi tomonidan tasdiqlanadi.

O'quv rejasi deb, o'qitiladigan fanlar, o'qitish uchun ajratilgan soatlar va o'quv yilining tuzilishini belgilab beruvchi davlat hujjatiga aytildi.

O'quv rejasini tuzishda quyidagi omillarga asoslaniladi:

O'quv rejasi o'quv-tarbiya ishining maqsad va vazifalariga asoslanadi. Maqsad-ilmiy bilimlar berish, olgan bilimlarni hayotda qo'llay olishga o'rgatishdir.

Maktablarning birligi o’z qoidalariiga asoslanadi. (boshlang’ich ta’lim 1-4 sinflar, umumiy o’rta ta’lim 1-9 sinflar).

Umumiy o’rta maktablarida o’quvchilarga bir butun tugal bilim beriladi.

O’quv rejasiga kiritilgan fanlarning hajmi qaysi sinfda o’qitilishi, ajratilgan soati, bolalarning bilim saviyasiga qarab beriladi. Fanning hajmi, og’ir-yengilligi, didaktik ahamiyati ham e’tiborga olinadi.

O’quv rejasiga kiritilgan fanlar birinchi navbatda umuminsoniy tarbiyaning maqsad va vazifalarini amalgalashga qaratilgandir. Unda ta’limning ilmiyligi, g’oyaviylik hamda O’zbekistonning kelajagiga munosib barkamol insonni tarbiyalab, voyaga yetkazish nazarda tutiladi. Shuning uchun ham unda tabiat va jamiyat haqidagi ilmiy bilimlar, ishlab chiqarish asoslari, san’at va jismoniy tarbiya, sog’lom avlodning ma’naviy qiyofasi asosiy o’rinni egallaydi.

O’quv rejasida tabiiy fanlar – tabiiy jug’rofiya, biologiya, fizika, astranomiya, ximiya, matematika va informatika markaziy o’rinni egallaydi.

Ijtimoiy fanlar – tarix, til haqidagi ilmiy bilimlar – ona tili, ingliz tili, rus tili va boshqa chet el tillari, badiiy va san’at asoslari – adabiyot, tasviriy san’at, musiqa va ashula; jismoniy tarbiya asoslari bilan bir qatorda hamma sinflarda mehnat ta’limini o’qitish uchun soatlar ajratiladi.

Bulardan tashqari o’quv rejasida ayrim tabiiy fanlar, ayniqsa, matematika, informatika, fizika fanlari, ayrim gumanitar fanlar bo’yicha ham o’quvchilarning qiziqishi, hoxishlarini ko’niktirish, qobiliyatini rivojlantirish maqsadida o’tkaziladigan fakultativ mashg’ulotlar ko’rsatilgan bo’ladi.

O’QUV DASTURI. Har bir o’quv fani uchun o’quv dasturi tuziladi. O’quv dasturi o’quv rejasida ishlab chiqiladi. O’quv dasturi har bir o’quv fanining o’qitish uchun ajratilgan bilim hajmi, tizimi va g’oyaviy-siyosiy yo’nalishini aniqlab beradigan davlat hujjatidir.

O’quv dasturida o’quv yili davomida har qaysi sinfda alohida fanlar bo’yicha o’quvchilarga berilgan ilmiy bilim, ko’nikma va malakalarining hajmi belgilab beriladi. Dasturda har qaysi o’quv fanlarining mazmuni izchillik bilan yoritiladi va ma’lum mavzular orqali ko’rsatiladi.

Ma’lum mavzu yuzasidan o’quvchi o’zlashtirishi lozim bo’lgan bilim, ko’nikma va malakalar qisqacha ifodalab beriladi.

O’quv dasturi quyidagi bir qator qoidalarga amal qilgan holda tuziladi:

1. *Dasturning qat’iyligi. O’quv dasturlari jamiyatimiz taraqqiyotining har bir bosqichida fan, texnika, ishlab chiqarish hamda ijtimoiy munosabatlarni sohasida erishilgan darajani aks ettirishi lozim. Bu ular har yili ko’rib chiqilishi kerak degan gap emas, aksincha, hamma o’quv fanlariga oid dasturlarning bir necha yillar mobaynida qat’iy bo’lishiga erishmoq darkor. Dasturning qat’iyligi qat’iy darsliklar ishlab chiqish uchun katta ahamiyatga egak,. bu darsliklar uzoq yashashi va o’quv jarayonida uzoq foydalanimish kerak.*
2. *O’quv dasturida ilmiylik qoidasi. Dasturga borlikni aniq, haqqoniy aks ettirgan ilmiy jihatdan tekshirilgan, ishonchli materiallar kiritiladi.*

3. O'quv materiallari mazmunini to'g'ri tanlash, fan materiallarini tanlashda unda isbotlar, misollar, mantiqiy umumlashma va xulosalarning to'g'ri uyg'unlashuviga alohida e'tibor beradi.
4. Nazariyaning amaliyot bilan birligi qoidasi. O'quv dasturida nazariyaning amaliyot bilan birligi qoidasi birinchi navbatda, eng avvalo, ilmiy bilimlarning turmushda, ishlab chiqarish amaliyotida tutgan o'rni ko'rsatib beriladi.
5. O'quv dasturlarida tarixiylik qoidasi. O'quv dasturlari tarixiylik qoidasiga asoslangan holda tuziladi. Bunda o'quv fanlarining xarakteri nazarda tutiladi. Masalan, tarix fanini o'qitishda tarixiy voqealar izchillik va xronologik tarzda bayon etilsa, matematika, informatika, fizika va boshqa qator fanlarni o'qitishda fan olamidagi ma'lum bir ilmiy hodisa, qoida va qonuniyatlarning paydo bo'lishi, uning kelajak istiqbollariga oid ma'lumotlar berib o'tiladi.
6. Dastur ikki usul bilan: ketma-ket va markazlashgan tarzda joylashtirilishi mumkin. Ketma-ket joylashtirilgan o'quv materiallarning har bir keyingi qismi avvalgi qismining davomi bo'ladi.

Dasturning markazlashgan tuzilishida mazkur fanga tegishli o'quv materiali o'qilishning keyingi bosqichlarida murakkablashgan ko'rinishda takrorlanadi.Umumiyo'rta ta'lim va o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi dasturlari tuzilishi uch bo'limdan iborat bo'lib, birinchi bo'limda mazkur dasturga amal qilish yuzasidan yo'l-yo'riqlar – qisqacha uqtirish xati; ikkinchi bo'limda o'quv materiallarining mazmunini; uchinchi bo'limda esa o'quvchilarning qo'shimcha ravishda o'rganishlari lozim bo'lgan adabiyotlar ro'yxati beriladi.

DARSLIK- o'quv jarayonining zarur qismi. Ko'p vaqtlardan beri u o'qitishning eng muhim vositasi hisoblanadi. Darslik – o'quvchilarning ikkinchi «muallimi». Chunki u, avvalo, o'quvchi uchun zarur qo'llanmadir.Har bir o'quv fanining mazmuni darslikda batafsil yoritiladi. Darslik tegishli fanga oid ilmiy bilim asoslarini dasturga va didaktika talablariga muvofiq ravishda bayon qiluvchi kitobdir. Darsliklar bilan bir qatorda, ayrim o'quv fanlari yuzasidan o'quv qo'llanmalari ham tuziladi. Masalalar va mashqlar to'plami, xrestomatiyalar, atlaslar, lug'at kitoblari va h.k. lar shular jumlasidandir.O'quvchilar darslik va o'quv qo'llanmalari bilan ham darsda, ham uy sharoitlarida mustaqil ish olib boradilar. Darslik materiali katta tarbiyaviy ahamiyatga ega. U bilan ishslash o'quvchilarning aqliy tarbiyasiga, ulardagiligi dunyoqarashning, axloq-odobnining shakllanishiga, tafakkuri va nutqining, ishdagi mustaqilligining rivojlanishiga yordam beradi. Maktab islohoti va xalq ta'limini qayta qurish darslik yaratuvchilari oldiga bir qator talablar qo'yadi:

1. Har qaysi o'quv fani uchun yaratiladigan darslikda ilmiy bilimlar tizimi va uning hajmi dastur talablariga hamda shu sinf o'quvchilarining yosh xususiyatlariga mos keladigan darajada bo'lishi kerak.
2. Darslikda bayon qilingan ilmiy bilimlarning nazariy asoslari va g'oyaviy yo'nalishi tizimli va izchil bo'lishi, darslikda keltirilgan dalillarning ishonchli bo'lishi, ular to'g'ri tahlil, aniq ta'rif etilishi, tegishli xulosalar chiqarilishi hamda shu orqali o'quvchilarda ilmiy dunyoqarash, eng yaxshi insoniy fazilatlar tarkib topishini ta'kidlashi lozim.

3. Nazariy bilimlar ishlab chiqarish amaliyoti bilan bog'langan bo'lishi kerak.
4. Darslikda bayon qilinayotgan materialning xarakteriga bog'liq holda tegishli qoida va ta'riflar berilishi, dalillar keltirilishi hamda darslik yaxshi bezatilgan bo'lishi, ba'zi materiallar rasm, sxema, diagramma va boshqa illyustratsiyalar bilan boyitilishi talab etiladi.
5. Darsliklar o'quvchilar tushunishi oson bo'lgan jonli tilda yozilishi, ayni zamonda fikrlar aniq va qisqa bo'lishi kerak.
6. Darslikning tashqi ko'rinishi, bezagi, o'sha sinf o'quvchilarining estetik didlariga mos keladigan bo'lomogi lozim.

Ilgarigi davrlarda Ovrupoda va g'arbda maktab, dorilfununlarda ilohiyot asosiy fanlardan biri hisoblangan. Mana shular asosida yoshlarga yaxshilik va yomonlik, gunoh va savob, saxovat va razolat kabi eng muhim axloqiy, hayotiy, falsafiy tushunchalar o'rgatilgan. Hozirgi davrda bizning maktablarda, o'rtalig'ning asosini o'quv yurtlarida o'qitiladigan axloq-odob fani o'sha ilohiyot darslarining asosini tashkil etgan.

Maorif – ta'lim sohasidagi ming yillik madaniyatimiz xazinalarini jamlagan eski yozuvni o'rganish ham didaktik ta'lim mazmunidagi yangilikdir.

Ta'limni tashkil etish shakllari turli davrlarda turlicha bo'lgan. XVI-asrning oxiri va XVII-asrning boshlarida buyuk chek pedagogi Ya.A.Komenskiy tarixda birinchi bo'lib maktab ta'limida sinf-dars tizimini yaratdi.

Sinf-dars tizimi sharq mamlakatlariga, jumladan Markaziy Osiyodagi eski musulmon maktablariga tatbiq bo'lmadi. Ularda oktyabr to'ntarishiga qadar o'rta asr maktablariga xos ta'lim tizimi davom etib keldi.

Sinf yoshi va bilimi jihatidan bir xil bo'lgan ma'lum miqdordagi o'quvchilar guruhidir. Dars deb bevosita o'qituvchining rahbarligida muayyan o'quvchilar guruhi bilan olib boriladigan ta'lim mashg'ulotlariga aytildi.

Dars- o'quv ishlarining asosiy tashkiliy shakli.

Dars- o'quv ishlarining markaziy qismi.

Hozir maktablarimizda qo'llanilayotgan sinf- dars tizimi quyidagi tashkiliy shakllarda olib boriladi:

1. *Har qaysi sinf yoshi va bilimiga ko'ra bir xil darajadagi bolalarning doimiy guruhiga ega bo'ladi.*
2. *Dars mashg'uloti asosan 45 daqiqaga mo'ljallangan bo'lib, qat'iy jadval asosida olib boriladi.*
3. *Dars bevosita o'qituvchining rahbarligida jamoa va yakka shaklda olib boriladi.*
4. *Dars o'tilayotgan materialning mazmuniga qarab xilma-xil usul bilan olib boriladi, ta'lim tiziminining bir qismi sifatida albatta tugallangan bilim beradi va navbatdagi bilimlarni o'zlashtirish uchun zamin yaratadigan qilib uyushtiriladi.*

Ayni paytda, maktablarimizda ta'limni tashkil qilish shakllari ikki turda olib borilmoqda:

1. *Sinf-dars shaklidagi olib boriladigan mashg'ulotlar.*
2. *Amaliy va tajriba ishlari shaklida olib boriladigan mashg'ulotlar.*

Sinf-dars shaklida olib boriladigan mashg'ulotlar o'qituvchining kundalik o'quv materialini tizimli bayon qilib berishni, xilma-xil usullardan foydalanishni, o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini izchillik bilan hisobga olib borishni o'quvchilarni mustaqil ishlarga o'rgatishni o'z ichiga oladi.

Amaliy va tajriba ishlari shaklida olib boriladigan mashg'ulotlar sinf sharoitidan tashqarida, o'quv ustaxonasi, tajriba uchastkalari va maydonlarida ishslash, ekskursiyalar o'tkazish yo'li bilan olib boriladi.

Ta'limning qo'shimcha shaklidan biri amaliy-tajriba mashg'ulotlaridir. Bu mashg'ulot sinf-dars tizimi shaklida olib borilmaydigan mashg'ulot turi bo'lib, u maxsus jihozlangan xona yoki alohida ajratilgan tajriba uchaskasida olib boriladi. Bu mashg'ulot ikki yo'l bilan olib boriladi:

Amaliy tajriba.

Ekskursiya.

Ta'limning qo'shimcha shakllari seminar va amaliy tajriba mashg'ulotlari biror fanni chuqurroq o'rganish uchun yoki biror yangi sohani o'rganish uchun o'tiladigan qo'shimcha dars mashg'ulotidir.

Dars o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalar egallashlarida ulkan ahamiyatga ega bo'lgan mashg'ulot shakli hisoblanadi. Unda o'qituvchi va o'quvchilar hamkorlikdagi faoliyatlarini yuritadilar. O'qituvchi qanchalik faollik ko'rsatsa, o'quvchilar ham shu darajada ongli ishtirok etishlari zarur. Olimlar, ilg'or o'qituvchilar darsini ijodiy jarayon deb hisoblagan holda, uni doimiy takomillashib borishini ta'kidlaydilar. Har bir darsda mavzuning xarakteridan kelib chiqib xalqimizning boy pedagogik merosiga murojaat qilish va undan foydalanmoq imkoniyatini izlamoq lozim.

Turli- tuman fikr va mulohazalarni hisobga olgan holda dars quyidagi umumiy didaktik talablarga javob berish lozim deyish mumkin:

1. Har bir dars ma'lum bir maqsadni amalga oshirishga qaratilgan va puxta rejallashtirilgan bo'lmogi lozim.

2. Har bir dars mustahkam g'oyaviy-siyosiy yo'nalishga ega bo'lmog'i lozim

3. Har bir dars turmushga amaliyot bilan bog'langan bo'lmog'i lozim.

4. Har bir dars xilma-xil usul, uslub va vositalardan unumli foydalangan holda olib borilmog'i lozim.

5. Darsga ajratilgan har bir soat va daqiqalarni tejab, undan unumli foydalanmoq lozim.

6. Har bir dars o'qituvchi va o'quvchilarning faolligi birligini ta'minlamog'i lozim.

7. Darsda o'quv materiallarining mazmuniga oid ko'rsatmali quollar, texnika vositalari va kompyuterlardan foydalanish imkoniyatini yaratmoq lozim.

8. Dars mashg'ulotini butun sinf bilan yoppasiga olib borish bilan har qaysi o'quvchining individual xususiyatlari, ularning mustaqilligini oshirish hisobga olinadi.

9. Har bir darsda mavzuning xarakteridan kelib chiqib, xalqimizning boy pedagogik merosiga murojaat qilish va undan foydalanmoq imkoniyatini izlamoq lozim.

Sinf-dars shaklidagi dars turlari va ularning tuzilishini quyidagicha izohlashimiz mumkin:

1 soatlik darsga mo'ljallangan dastur materiallarining mazmunini bayon qilish uchun didaktik maqsad va talabalarga muvofiq ravishda tashkil qilingan mashg'ulot turi **dars turlari** deb yuritiladi. Ta'lim tizimida eng ko'p qo'llaniladigan dars turlari quyidagilardir:

1. Yangi bilimlarni bayon qilish darsi.
2. O'tilgan materiallarni mustahkamlash darsi.
3. O'quvchilarning bilim, malaka va ko'nikmalarini tekshirish va baholash darsi.
4. Takroriy-umumlashtiruvchi va kirish darslari.
5. Aralash dars (yuqoridagi dars turlarining bir nechta birga qo'llanilishi)

Ma'lum bir dars turi bilan olib boriladigan mashg'ulotlarda ikkinchi, hatto uchinchi bir dars turining unsurlari bo'lishi mumkin.

Masalan, maktablarimizda eng ko'p qo'llaniladigan dars turlaridan biri yangi bilimlarni bayon qilish darsidir. Bu dars turi quyidagicha tuziladi:

- a) Yangi bilimlarni bayon qilish.
- b) Yangi bilimlarni mustahkamlash.
- v) Yangi bilimlar ustidan mashq qilish.
- g) Yangi bilimlarga bog'liq holda uy vazifalarini topshirish.

Demak, dars boshdan-oyoq bir dars turi bilan olib borilmaydi, balki shu darsda yangi bilimlarni bayon qilish bilan birga uni mustahkamlash, yangi bilimlar ustidan mashq o'tkazish uyga vazifa kabi boshqa unsurlarning bo'lishi ham mumkin. Shunga qaramay, darsdan ko'zlangan maqsad o'quvchilarga yangi bilim berishga qaratilgan bo'lsa, butun didaktik usullar shunga bo'ysundiriladi. Shuning uchun ham bunday dars yangi bilim berish darsi deb ataladi.

Ma'lum dars turi bilan ish olib borilayotganda boshqa bir unsurlari asosiy dars turidan o'rinni olishi va ayni paytda asosiy dars turining tuzilishini tashkil qilishi mumkin. Demak, dars tuzilishi u yoki bu dars turining tuzilishini, uning qismlarini anglatadi.

Nazorat savollari:

- 1.O'quv dasturi qanday hujjatga asoslanib ishlab chiqiladi?
- 2.Darslik yaratuvchilar oldiga qo'yiladigan talablar necha xil?
- 3.Maktabda o'quv reja, o'quv dastur va darslikning mohiyatini izohlang.
- 4.Maktabda o'quv reja, o'quv dastur va darslikning mohiyatini taqqoslang.
- 5.Maktabda o'quv reja, o'quv dastur va darslikning mohiyatini asoslang.
- 6.Dars turlarini tahlil qiling.
- 7.Har bir darsning tarkibiy qismlarini o'rganib chiqing. Ular o'rtasidagi bog'liqlikni bayon qiling.
- 8.Dars bosqichlarini izohlang.
- 9.Har bir bosqich keyingisidan nimasi bilan farq qilishini ifodalab bering.

Mustaqil ish topshiriqlari:

- 1.Mutaxassislik fanidan o'quv reja, ishchi dastur tuzing.
- 2.Darslik va o'quv qo'llanmaga qo'yiladigan talablarni aniqlang.
- 3.Ta'lim metodlarini o'rganib amaliy tajribangizda sinab ko'ring.
- 4.Ta'lim metodlarining shaxs kamolotidagi o'rnnini izohlang.
- 5.Ta'lim metodlarining turlarini ilmiy asoslagan olimlarning ilmiy ishlarini o'rganing.
- 6.Har bir ta'lim metodini amalda tatbiq etib ko'rishni o'rganing.
- 7.Har bir ta'lim metodini boshqa metodlar bilan amalda taqqoslang.
- 8.Ta'lim metodlarini o'quvchi shaxsini shakllantirishdagi o'rnnini amalda aniqlang.
- 9.Dars va amaliy mashg'ulotlarni taqqoslab ko'ring. O'xshash va farq qiladigan tomonlarini tahlil qiling.
- 10.Sinf va unda olib boriladigan darslarning ta'lim-tarbiyaviy mohiyatini asoslab bering.
- 11.Darsga qo'yiladigan talabni o'z fikringiz bilan yozma ifodalab bering.
- 12.Darsga qo'yiladigan talablar ko'proq kimga (o'qituvchi yoki o'quvchi) daxldor ekanligini tushuntirib bering.
- 13.Darsda ta'lim va tarbiyaning milliy asoslariga qanday qilib amal qilishni ma'qul ko'rasiz.

Mavzu bo'yicha ilmiy xulosalar:

1. Maktabda ta'limning mazmuni haqida tushunchani namunali dastur beradi.
2. Ta'lim mazmunini aks ettiruvchi davlat hujjatlariga o'quv reja, dastur, darslik kiradi.
- 3.Ta'limni tashkil etishning shakllari haqida tushunchani talabalarga o'rgatish .
- 4.Dars va unga qo'yiladigan talablarni bilish.
- 5.Dars turlari va tarkibiy qismlarini aniqlash

Mavzu bo'yicha yechimini kutayotgan ilmiy muammolar:

- 1.Maktabda ta'limning mazmuni milliy va umuminsoniy tarbiya texnologiyasining ilmiy va amaliy asoslarini ishlab chiqish.
- 2.Ta'lim mazmunini aks ettiruvchi pedagogika fanining rivojiga hissa qo'shgan sharq allomalarining ta'limotlarini ilmiy tahlil etish.
3. Ilmiy-tadqiqot metodlaridan foydalanish ko'nikmasini shakllantirishning ilmiy asoslarini yaratish.
- 4.Ta'limni noan'anaviy tashkil etish yuzasidan ilmiy-metodik tavsiyalar yaratish.
- 5.Darsni tashkil qilishda pedagogik texnologiyalarning o'rnnini ko'rsatib berish.
- 6.Zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida darsni tashkil qilishning tizimini va loyihasini ishlab chiqish, afzalliklarini aniqlash.
- 7.Darsning zamonaviy shakllarini qo'llashning ilmiy asoslarini yaratish.

Seminar mashg'uloti -4. O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini tashxis etish. 2-soat

Reja:

1. O'quv jarayonini nazorat va hisobga olish funktsiyalari.

2. Ta'lim olganlikni tashxis etish.
3. Bilim, ma'laka ko'nikmalarini baholash mezonlari.

O`quv mashg`ulotining maqsadi: O`quvchilar bilimini tekshirish, nazorat qilish va baholashning ahamiyatini talabalarga tushuntiradi. Ularda pedagoglik kasbiga qiziqish uyg'otadi.

O`quv faoliyatining natijalari: O`quvchilar bilimini tekshirish, nazorat qilish va baholashning ahamiyatini tushuntiradi. O`quvchilar bilimini tekshirish, nazorat qilish va baholashning ahamiyatini asoslab beradi.

Taqdimotni baholash mezonlari:

- 1.Talabaning mimikasi va pontomimikasiga -1
2. Mantiqan bog`langanligi va izchilligi, nutqning ravonligi – 2
3. Ko`rgazmalilik va reglament - 2
4. Jami: eng yuqori baho: 5 baho

Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar:

Bilim, baho, baholash, bilimlarni joriy tekshirish, bilimlarni oraliq tekshirish, bilimlarni yakuniy baholash, baholash shakllari.

Mavzuga oid muammolar:

O`quvchilar bilim, ko'nikma va malakalari tekshirilib, baholanib boriladi. O`quvchi fanni, mavzuni, qanday o'zlashtirganini, yutuq va kamchiliklarini bilib boradi. Baho (obyektiv) haqqoniy qo'yilgandagina ta`lim-tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'ladi.

O'qituvchining har qanday qo'ygan bahosini haqqoniy deb hisoblaysizmi? Agar nohaqlik bo'lsa, u qanday ko'rinishlarda zohir bo'ladi?

An'anaviy ta`lim tizimida o`quvchilarning bilimi 5 ballik baho me'orlari bilan o'lchangan. Hozirgi paytda reyting ballari joriy etildi. Qaysi biri o`quvchilar bilimini aniqlik va haqqoniylilik asosida baholay oladi? Ikki xil baholashning yutuq va kamchiliklarini izohlang.

O'qituvchi bir o`quvchining bahosini asossiz tarzda yuqori ko'tarar, boshqa bir o`quvchining bahosini pasaytirar edi. Siz bu adolatsizlikka qanday qaraysiz? O'qituvchidan to'g'ri baho qo'yishni talab qilgan bo'lar edingizmi? Agar talab qilsangiz qanday shaklda bajarasiz.

1-reja.

Bilimlarni tekshirish va baholashning ta`lim berish ahamiyati shundan iboratki, bunda o'quv materialining o'zlashtirilganligi haqida o'qituvchi ham, o`quvchi ham ijobjiy xarakteristikaga ega bo'ladi. O'qituvchiga o`quvchi nimani bilish va nimani tushunmasligi, qaysi material yaxshi o'zlashtirilgan-u, qaysi biri yetarli darajada o'zlashtirilmaganligi yoki umuman o'zlashtirilmaganligi ma'lum bo'ladi. Bu o`quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etish va uni boshqarish uchun asos bo'lib hisoblanadi. Shuningdek, o`quvchiga o`quv materialida u nimani yaxshi, nimani qoniqarli va nimani yomon o'zlashtirGANI tushunarli bo'ladi.

Tekshirish o'quvchining o'rganilayotgan materialni tushunish, esda saqlab qolish, anglab olish darajasini aniqlaydi. O'quvchi o'z bilimlarining ijobiy xarakteristikasiga, mакtabda va uydagi ishining uslubini takomillashtirish, bilimlari, malaka va ko'nikmalaridagi ijobiy tomonlarni rivojlantirish, kamchiliklarni tugatish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Bilimlarni, malaka va ko'nikmalarni tekshirish va baholashning tarbiyaviy ahamiyati shundaki, bunda o'quvchilarda o'qishga, o'z yutuqlari va muvaffaqiyatsizliklariga nisbatan munosabat shakllanadi. Qiyinchiliklarni yengish istagi tug'iladi. Baho unda hamisha o'quvchi sifatida, shaxs sifatida o'ziga nisbatan muayyan bir munosabatni hosil qiladi. O'quvchining o'ziga nisbatan bu munosabatini, tuyg'ularini o'qituvchi uning fel-atvoridagi irodalilik, o'zaro bir-biriga yordam berish kabi sifatlarni shakllantirish borasida ustalik bilan ishlatadi.

Bilimlarni tekshirishning quyidagi turlari bor:

Har darsda tekshirish. O'qituvchi har bir darsda o'quvchilarning yangi bilimlarni o'zlashtirishga tayyorligini tekshiradi, bolalarning butun dars davomida o'quv materiali mazmunini qanday o'zlashtirayotganliklarini nazorat qilib turadi.

Tematik tekshirish butun temani o'zlashtirilishini nazorat qilib borishni ta'minlaydi. O'quv dasturining o'rganilgan mavzularidan birining mazmuni tekshiriladi. Bu xildagi tekshirish materialni tizimiylashtirishda juda katta ahamiyatga egadir. Darsda qisqa vaqt mobaynida shunaqa savollar berish yoki shunaqa vazifalarni taklif etish kerakki, o'quvchi o'zini ularda mavzuning asosiy mazmunini, asosiy g'oyalarini ko'rib turganday his qilish kerak.

Yakunlovchi tekshirish o'quvchilarning o'quv yilining ma'lum davrida - bir necha hafta, o'quv choragi, yarim yil, bir yil ichida, bir necha yil davomida va to'qqiz yillik yoki o'rta ma'lumot bo'yicha olgan bilimlari tekshiriladi. Yakuniy baho maktab o'quvchisining chorak yoki yil davomidagi ishining natijasini aks ettiradi.

Maktabda baho normalari

Hozirgi vaqtida bizning maktabimizda besh ballik sistemasi qabul qilingan.

«5» (a'lo) baho – dastur materialini chuqur va to'la tushungan, o'rganayotgan qoidalarni mustaqil ravishda tushuntirib bera olgan, savolga mantiqiy va adabiy to'g'ri formada, ishonarli va ravshan javob bergen, xato qilmagan o'quvchiga qo'yiladi.

«4» (yaxshi) baho - dastur materialini chuqur va to'g'ri o'zlashtirgan, ammo javobida noaniqliklarga hamda javobining mazmunida va tuzilishi shaklida unga muhim bo'lмаган xatolarga yo'l qo'ygan o'quvchilarga qo'yiladi.

"3" (o'rta) baho - o'quv materialini o'zlashtirgan, lekin tushuntirganda xatoga yo'l qo'ygan o'quvchiga qo'yiladi.

"2" (qoniqarsiz) baho - bilimni, o'quv materialini o'zlashtirmagan o'quvchilarga qo'yiladi.

«1» (juda yomon) baho - qachonki, o'quvchi dasturdagi materialni bilmagan va tushunmagan, mazmunda qo'pol xatolarga yo'l qo'ygan hollarda qo'yiladi.

O'zlashtirmaslikning bir qancha sabablari mavjud:

1. Bolada ish qobiliyatining, intilishning va diqqat e'tiborning yetishmasligi.
2. Bilimlarni puxta o'rganmay o'tkazib yuborganligi.
3. Materialdag'i muhim belgilarni ajrata olmaslik, asosiy va ikkinchi darajali narsaning farqiga bormaslik.
4. Mazkur o'quv faniga qiziqish yo'qligi.
5. O'quvchining oilada yoki o'z tengqurlari orasida noqulay ahvolda qolishi.

Bilimlarni nazorat qilish, tekshirish va baholashning yangi mohiyati.

Davlatimiz mustaqillikka erishgandan so'ng ta'lim sohasida birmuncha o'zgarishlar ro'y berdi. Ta'lim sohasiga o'quvchilar bilimlarini test-reyting sinovi orqali baholash usuli kirib keldi. O'quvchilarning olgan bilimlarini test orqali bilish, bilim darajasini tekshirish yaxshi samara berdi. Yil mobaynida bu samara tajriba maktablariga joriy qilinmoqda. Test reyting nazorati orqali o'quvchilarni baholashda o'quvchining har tomonlama rivojlanishiga e'tibor beriladi. O'quvchi, o'qituvchi faoliyatini jipslashtiradi. O'quvchilarning o'quv faoliyatini yaxshilaydi. Kundalik nazoratdan keyin o'quvchi fanlarni o'zlashtirishga qiziqish uyg'onadi. O'qituvchi uchun yakuniy baholash, baho berish kundalik nazoratlarini yakunidan kelib chiqqan holda bo'ladi

Mavzu yuzasidan savollar:

1. O'quvchilar bilimini tekshirish va baholashning ta'lim berishdagi ahamiyati nimadan iborat?
2. Bilimlarni tekshirish, nazorat qilish va baholashning o'zlashtirishdagi ahamiyatini tushuntiring.
3. Bilimlarni tekshirish, nazorat qilish va baholashning ahamiyatini sharhlab bering.
4. O'quvchilarning bilimlarni tekshirish, nazorat qilish va baholashning ta`limiy va tarbiyaviy ahamiyatini asoslab bering.

Mustaqil ish topshiriqlari:

Bilimlarni joriy, tematik va yakuniy tekshirishning keng tarqalgan shaklilarini (yakka tartibda va yoppasiga so'rash) sharhlab bering.

Bilimlarni tekshirish turlarining mohiyatini asoslab bering.

Bilimlarni tekshirishning talablarini yozma ravishda izohlab bering.

O'quvchilarning bilimlarini tekshirish, nazorat qilish va baholashning ta`limiy va tarbiyaviy ahamiyatini tushuntiring.

Mavzu bo'yicha ilmiy xulosalar:

1. O'quvchilar bilimini tekshirish, nazorat qilish va baholashning ahamiyati dastur asosida hosil qilinadi.
2. Maktabda baho me`yorlari va reyting tizimining mohiyatini izohlash.

Mavzu bo'yicha yechimini kutayotgan ilmiy muammolar:

O'quvchilar bilimini tekshirish, nazorat qilish va baholash yuzasidan ilmiy tavsiyalar ishlab chiqish.

Bilimlarni baholashning yangi, qulay me`yorlarini joriy qilish.

O'quvchilar o'zlashtirish mezonlarini aniqlash bo'yicha metodik ko'rsatmalar yaratish.

Baholashning yangi, zamonaviy usullarini kashf etish.

Seminar mashg'uloti -5. Har tomonlama barkamol shaxsni shakllantirish – milliy tarbiyaning bosh maqsadi. 2-soat

Reja:

1. Milliy tarbiyaning o'ziga xosligi.
2. SHarqona tarbiya mezonlari
3. Tarbiyada milliy udum va odatlar.

O'quv mashg`ulotining maqsadi: Talabalarga milliy tarbiyaning o'ziga xosligi Sharq mutafakkirlarining tarbiya haqidagi fikrlari tarbiyada ota ona va mudarrisiga qoyilgan talablari va urf odatlar haqida tushuncha beradi va uni mukammal o'rghanishga qiziqish uyg'otadi.

O'quv faoliyatining natijalari: **Milliy tarbiya haqida umumiylama ega bo`ladilar** va asosiy adabiyotlar bilan tanishadilar. Oilada farzand tarbiyasida sharqona tarbiya mezonlari haqida ma`lumotga ega bo`ladi.

Farzand tarbiyasida sharqona tarbiya, udum va odatlardan unumli foydalanishga bo`lgan munosabat shakllanadi.

Mavzu yuzasidan savollar:

1. Milliy tarbiya deganda nimani tushunasiz?
2. Sharqona tarbiya mezonlarini ayting?
3. Muosharat odobi deganda nimani tushunasiz?
4. Milliy udum va odatlarning farzand tarbiyasiga qanday ta`siri bor?

Taqdimotni baholash mezonlari:

1. Talabaning mimikasi va pontomimikasiga -1
2. Mantiqan bog`langanligi va izchilligi, nutqning ravonligi – 2
3. Ko`rgazmalilik va reglament - 2
4. Jami: eng yuqori baho: 5 baho

Tarbiya nazariyasi Markaziy Osiyo faylasuflarining va xalq pedagogikasining tarbiya borasidagi boy tajribalariga tayanadi.

Tarbiya jarayonida kishining turli qobiliyatlari rivojlanadi, g'oyaviy, axloqiy, irodaviy, estetik hisslatlari shakllanadi, tabiatga, jamiyatga ilmiy qarashlar tizimi tarkib topadi, jismoniy kuch quvvatlari mustahkamlanadi.

Yurtboshiimiz haqiqat,adolat kabi insoniyat abadul-abad intilgan sifatlarni o'z timsollarida ko'rsatib berayotgan chinakam rahbar sifatida tobora xalqning, qalbiga singib bormoqda. U istaganadolat dunyosi istiqqloldan so'ng yurtimiz uzra bosh ko'tardi. Mustaqillik bizga ma'rifiy, madaniy,adolatli va insonparvar jamiyat qurish imkonkyatini berdi. Endi bu jamiyatga har bir inson o'z o'rni, mavqeiga yarasha vijdonan hissa qo'shmog'i lozim. Biz pedagoglar, ota-onalar, tarbiyachilar

ham talaba yoshlardaadolatparvarlik, vatanparvarlik, teran aql-idroklik kabi ma'naviy sifatlarni tarbiyalashda o'z mehnatimizni ayamasligimiz, butuv kuch-quvvatimizni ishga solishimiz kerak.

Buning uchun eng avvalo inson fazilatlariniig o'zaro munosabatlarini va o'rnini aniqlab olmog'imiz lozim. Insonniig ma'naviyati uning odobi, xulqi, madaniyatidan tashkil topadi. Ma'naviyat esa aqliy, axloqiy, huquqiy, iqtisodiy va siyosiy bilimlar zamirida shakllanadi. Mazkur bilimlar o'z navbatida inson ijobiliy sifatlarining kamol topib, boyib borishiga olib kelali. Fazilatlar insonning ijobiliy sifatlari majmuidan iborat.

Sifat alohida bir shaxsning muayyan bir xislatini ifodalonchi axloqiy kategoriyadir.

Fazilat - alohida shaxs, el, elat, xalq ulusga taalluqli bo'lган ijobiliy axloqiy sifatlar majmui.

O'qib-uqqan chuqur ma'naviyatli, adolatli va adolatsizlikning farqiga tushungan inson qaysi yo'ldan borayotganligini tushunib yetadi. Yurtiga nisbatan mehr, g'urur paydo bo'ladi. Natijada u ham Vatanining ravnaqiga munosib farzand sifatida o'z hissiyotini qo'shadi. Ajdodlarimiz yashab o'tgan, meni o'z bag'riga olib ulg'aytirayotgan Vatan uchun men nima qila oldim, meni go'dakdigimdan yedirib-ichirgan ota-onam, ona zamin, onlari tomirimda jo'sh urayotgan ajdodlarimiz sha'niga munosib ishlar qilayapmanmi?- degan savollarni o'z vijdoni oldiga ko'ndalang qo'yadi.

Biz pedagoglar va ota-onalarning burchi farzandarimizni va talabalarimizni Vatanga muhabbatli, imonli, e'tiqodli, adodatparvar qilib tarbiyalash, shakllantirishdan iboratdir. Bunday fazilatlarni o'zida kasb etgan yoshlarimiz, qanday vaziyatda bo'lmasin, hamma vaqt o'ziga to'g'ri yo'l tanlay oladi.

O'zlariniig chuqur bilimlari va adolatli xatt-harakatlarini ko'nikmaga aylantirgan bunday nufuzli talaba yoshlarimiz mustaqil jamiyatimizga tamal toshini qo'yuvchi fidoyi insonlar bo'lib yetishishlari muqarrardir.

Odamning inson sifatida shakllana borishi jarayonida uning kamoloti darajasi odob, axloq, madaniyat, ma'naviyat elementlarining unda qanchalik mujassamlashganligi bilan belgilanadi. SHu o'rinda bu kategoriyalarniig mohiyati ustida to'xtalib o'tish joizdir.

Odob - har bir insonning o'zi bir inson yoki jamoa bilan bo'lган muloqotida hamda yurish turishida o'zini tuga bilişidir.

Xulq - odobniyag ichki tuyik ko'nikmaga aylangan ko'rinishi.

Axloq - jamiyatda qabul qilingan, jamoatchilik fikri bilan ma'qullangan xulq-odob normalari majmui.

Madaniyat – “jamiyatning va unda yashovchi fuqarolarning faoliyati jarayonida foydalangan barcha ijobiliy yutuqlar majmuasi».

Ma'naviyat - inson ongini aks ettiruqchi barcha ijobiliy, ruhiy, intellektual fazilatlar majmuasi.

Mushohada qilish aqlning peshlanishiga olib keladi. Aql ongni sayqallaydi. Ong esa moddiy va ma'naviy manbagaga aylanadi. SHu tarzda inson sekin-asta takomillashib, komillikka erishib boradi.

Yuqoridagi fikrlardan, chizgilardan ko'rinish turibdiki, inson ma'naviyatli bo'lishi uchun juda ko'p insoniylik bilimlari sarchashmasidan baxramand bo'lishi, o'z ustida tinmay izlanishi va hayotni kuzatib, undan saboq chiqarib borishi lozim.

Hayotni kuzatar ekanmiz, har bir insonning jismoniy, intellektual va ma'naviy jihatdan yagona bo'lishini, unga har tomonlama aynan bo'lgan ikkinchi bir insonning yo'qligini va tarixda ham bo'limganligini ko'ramiz, tabiatning jassosligiga, betakrorligiga tasannolar o'qiymiz. Insonlar bir-birlariga aynan bo'lmasalar-da, ular bir jamiyatda yashab, o'zaro hamkorlikda hamjihatlik bilan bunyodkorlik, yaratunchilik bilan shug'ullanmoqdalar, ezgulik urug'ini sochmoqdalar, bu urug'larning hosilidan bahramand bo'lib yashamoqdalar. Bunday insonlar ham aqliy, ham axloqiy bilimlarni puxta egallagan, har narsaga qodir, yuzidan nur balqiydigan, tilidan bol tomadigan, xushxulq xushfe'l insonlardir. Ular jamiyatning, xalqning sevimli farzandlaridir. SHu bois ularga havas qilsa, taklif qilsa, ulardan namuna olsa arziyi.

Abdulla Avloniy o'zining "Turkiy guliston yoxud axloq» asarida ana shunday insonlar hakida bunday deydi: "Yaxshi fazilatlarni o'ziga kasb qilib olgan insonlar yaxshi insonlar deyilur. Avloniy yaxshi insonlar deganda odamlarga yaxshilik qila oladigan, kamtar, sahiy, mehnatkash, mehr-shafqatli, bilimdon, o'zgalar uchun qayg'uradigan, mard insonlarni ko'zda tutsa, «Yomon insonlar deb, yomonlik fazilatlari yaxshi fazilatlaridan ustun turadigan insonlarga aytildi, deydi. Muallif yomon insonlar deganda xasis, baxil, birovlarining yutug'ini ko'ra olmaydigan hasadgo'y, faqat o'zim deydigan xudbin kishilarni nazarda tutadi. Avloniy kishilarni o'zida yaxshi fazyalatlarni to'llagan, el nazariga tushgan, yaxshilikka intiluvchi, o'zini tarbiyalab borishga o'rgangan insonlar bo'lishga undaydi.

Moziyga bir nazar tashlaylik. Erkaklarimizdan ularga xos marddik, jasurlik, g'urur kabi xislatlar meros bo'lib kelayotgan bo'lsa, momolarimizdan or-nomus, iffatlilik, nazokatlilik, sharm-hayo, shirinzabonlik kabi xislatlar asrlardan-asrlarga meros bo'lib o'tib kelmoqda. Demakki, bu xususiyatlar elimiz, yurtimiz, millatimizning qondosh va jondosh ajralmas bir ma'naviy qiyofasidir. Endilikda zamondosh yigit-qizlarimiz yurish-turishlari, xatti-harakatlari, kiyinishlari bilan o'zlarini qanchalik o'ta taraqqiylashgan shahar fuqarolari kabi ko'rsatmasinlar, baribir ular qalban shu ma'naviy merosning egasidirlar.

Merosiy manbalarimizning yana biri Abu Rayhon Beruniyiig "Hindiston" asaridir. Alloma bu asarida qizlarga shunday murojaat qiladi: qizim, sen o'rgangan uyingdan ketib, notanish bir xonadonga kelin bo'lib tushmoqdasan... Ering osmon bo'lsa, sen yer bo'l, Osmon o'zining shifoli yomg'iri bilan yerni ko'kartirganidek ering kam o'z mehri bilan seni asrab avaylaydi Eringning ko'ziga pala-partish ko'rhma, o'zingga oro ber, suv va surma hamisha hamrohing bo'lsin. Ering kuchi yetmagan narsalarni olib ber deb xarxasha qilaverishni man qilaman...

Abu Rayhon Beruniy bu fikrlarini xuddi bugun qizlarimiz va ayollarimizning qulqlariga shivirlayotgakdek, nazarimizda. Beruniyning ijodiga razm solsak, ul zoti sharifning nihoyatda ko'p mutolaa qilganini, izlanganini, o'ziga nisbatan nihoyatda talabchan bo'lganligining guvohi bo'lamiz. Beruniy faqat hayitlardagina dam olganlar. Ular hayitning birinchi kuni xastalarni, ko'ngil

yakinlarini, yoshi ulug'larni ziyorat qilganlar. Ikkinchchi kuni marhumlar xonadoniga tashrif buyurib, ularni yod aylaganlar. Uchinchi kuni esa keyingi hayitga yetgulik ozuqa va kiyimbosh, kerakli uy-ro'zgor buyumlari, asboblarini xarid qilish uchun vaqt ajratganlar.

Beruniy 76 yoshda xastalanib yotib qoladi. Anchadan beri to'shakka mixlanib qolgan Beruniyning holidan shogirdlari kirib-chiqib, dam-badam xabar olib turadilar. SHunday kunlarning birida Beruniydan hol so'rash uchun qozi Valvalujiy tashrif buyuradi. Beruniy qozining meros taqsimotiga yangi sharhlar kiritganini eshitgan, lekin qozi bilan bu hakda bamaylixotir suhbatlasha olmagan edi, o'sha sharhni qozidan aytib berishini iltimos qiladi. Qozi: "Ma'qul, ammo sal kuch yig'ib olganingizdan so'ng bafurja gallasharmiz",-deydi. Beruniy: "Ey qozi, men shu meros taqsimoti haqidagi sharhingizni bilmay bu dunyodan ko'z yumib ketganimdan ko'ra bilib, xotirjam ketganim afzal emasmi"-deyli. Noiloj qolgan qozi meros taqsimoti sharhini bayon qiladi. Beruniy bor vujudi bilan ko'zi yumilgan holda tinglar, ayrim joylariki ma'qullar, ayrim joylariga o'z fikrini va takliflarini bildirar edi. So'zini tugatgan Valvalujiy Beruniyning og'ir nafas olishiga qarab, bugun shu suhbat shart emasmidi, ul zotni toliqtiri qo'ydim, deb hijolat bo'ladi va ketishga ruxsat so'raydi. U hali mahalla boshidagi uyiga yetib ham kelmagan ediki, Beruniyniig hovlisidan yig'i ovozi eshitiladi. Valvalujiy orqasiga qaytadi. Davr ilmiga tashna, fan fidoyisi Beruniydan shu tarzda judo bo'lgan edi. Ul tabarruk zot o'zidan bir qancha noyob asarlar oldirdikk, mana necha asrlardan buyon uning avlodlari bu bebaho manbalardan o'zlar uchun boy ma'naviy ozuqa olib kelmoqdalar. Ularning adolatli, oqil fikrlari hanuzgacha ma'naviy dunyomizni ma'sha kabi yoritib kelmoqda.

Ul zot ulkan kashfiyotlar, chuqur bilim egasi bo'lishlariga qaramasdan o'zining hech narsa bilmasligini, bundan ham ko'proq bilih mumkinligini aytib, o'ziga nisbatan norozilik bildirmoqda. Bundan ham ortiq kamtarlik va bundan ham ortiq o'ziga talabchanlik bo'lmasa kerak. Beruniyning bu fikrlari tolibi ilm yo'li uchun katta hayotiy saboq, vaqtinig har bir daqiqasi katta takrorlanmas ekanligini tushunish, uni bexuda sarflamaslik, qadriga yetishning amaliy namunasidir.

Talabalarda kamtarlik, ilmga intilish, o'ziga nisbatan talabchanlik, tabiat tomonidan berilgan umr kabi betakror imtiyozdan unumli foydadanish kabi xislatlarni tarbiyalashda Beruniyning yuqortsaga kabi ma'naviy merosidan ijodiy foydalananib borish katga samara beradi.

Inson qadri umrida qancha yil yashagani bilan emas, balki bu fursatdan qanday foydalanganligi, el va jamiyat manfaati yo'lida nima ishlar qilganligi bilan o'lchanadi. Bir asr umr ko'rib, nom-nishonsiz o'tganlar ham bor, oz umr ko'rib, abadiy nom qoldirganlar ham bor. Insonlar el nazarida uy-joy, molu mulklari bilan yashamaydilar, balki xalq uchun qilgan sharaqli ishlari bilan barhayot yashaydi. Tarixga nazar solsak, necha-necha asrlar davomida shohlar, boylar, darveshlar, xullas qancha-qancha insonlar bu hayotdan o'tishgan. Ammo xalqi uchun, uning ma'naviy kamoloti yo'lida riyoza chekkan Forobi, al-Buxoriy, Beruniy, Ibn Sino, Umar Xayyom, Najmiddin Kubro, Bahovuddin Naqshband, Lutfiy, Alisher Navoiy, Binoiy, Koshifiy kabi allomalarimie insoniyat kamolotining yo'lchi yulduzlari bo'lganliklari uchun mana necha asrlar o'tibdiki, biz bilan yonma-yon

yashayotgandek ishimizga, o'ylarimizga, orzularimiega hamkor, hamnafas, ruhi-poklari xotiramizda abadiydir.

Yaxshi fazilatlar qalbtsda makon qurgan va ularni hayoti davomida yanada sayqallab, takomillashtirib borgan inson kamolotga erishib boraveradi. Aqliy, axloqiy, huquqiy va kasbiy bilimlari sarchashmasini to'latib, kamolotga intila borgan inson jamiyatda quyosh kabi nur sochib turadi. Quyosh o'z nuri bilan ham isitib, ham shifo bergenidek, komil inson ham yurtiga, Vataniga faqat yaxshilik keltiradi, unga ma'naviy ozuqa va ezgulik beradi. Insonning tarbiyalangailigini qanday baholash mumkin? Uning mezoni nimadan iborat?

Inson komilligining mezoni uning o'qib-uqqanligi, aqliy va axloqiy bilimlari saviyasi va ularni hayotda qo'llay bilish ko'nikmasini hosil qilganligi bilan belgilanadi.

Ongi bilimlar ummoniga aylangan, o'kib-uqqan tolibi ili ahllarimizning tafakkuri boy, til-zaboni shirin, kamtar bo'lib, qo'llagan bilim zahiralarmdan o'zgalarni ham baxramaka eta bilmoxlari zarur. SHunday insonlar borki, aqliy bilimi chuqur, ammo axloqiy bilimi sayoz. Aksincha axloqiy bilimi yetarli, lekin aqliy bilimi qoniqarli emas. Agar inson aqliy va axloqiy bilimlarini puxta egallab, uni chuqur tafakkur qo'lsa va til dasturxoniga solib, uni xaridorlariga chiroyli qilib, mehrli uzata olsa-ayni muddao. Jamiyatimizning ravnaqi shundan, yoshlarimiz kamoloti shundandir.

Respublika Oliy Majdisining 12-sessiyasida Prezidentimiz tomonidan «Kuch-bilim va tafakkurda» degan teran bir fikr ilgari surildi. Tafakkur-insonning bugun hayotiy va ijodiy faoliyatini idora qiluvchi ongiy kamolot o'lchovidir. Unga faqat bilim olish, hayotni kuzatish, uni o'qish va ukish, yaxshi va yomonni tahlil qilish, ulardan xulosa chiqarish orqali erishiladi. Tafakkur aql tarozisi bo'lgan til orqali namoyon bo'ladi. Sizning so'zlagan so'zingiz, aytgan fikringiz tafakkuringizning, aql-idrokingizning, ongingizning oyinasidir.

Haqiqatda ham odobli, ilmli, madaniyatli inson bilan suhbatdashganimizda ularning ovozi ohangidagi munglilik, samimiylilik, inson dilini yorituvchi yoqimli sehr o'ziga maftun qilib ko'ydi. Ularning suhbatidan ma'naviy kuch-quvvat olamiz, charchoqlarimiz chiqadi, qalbimiz yayraydi. Demak inson bunday darajaga yetishish uchun kundalik hayot mashaqqatlarini sabr-toqat bilan yengib, ko'p o'qishi, hayotni kuzatib undan saboq ila bilishi zarur. Mehnat qilish, mashaqqat, riyozat chekish, hayotni o'qib, undan oqilona saboq chiqara olish evaziga insonning ongi, tafakkuri sayqallanib boradi.

So'z mulkiniig sulton Mir Alisher Navoiy o'zining "Mabub ul-qulub" asarida bunday yozadi: Urug'ni qara. Oldin uning hamma yog'i loyga, changga belandi. So'ng u yerga qadalgandan keyin qattiq yerni yorib, qiyinchiliklarga sabr-toqat bilan qidab, yuzaga-era ga chiqadi. U zabardast daraxt bo'ladi, meva tugadi, qancha-qancha odamlarning hojatini chiqaradi. Har qanday ishning, har qanday yutuqning qiyinchmligi bo'ladi. Unga sabr-toqat qilgan inson keyin rohat-farog'atda yashaydi".

Ibn Sino o'zining "Xindiston" asarida: "Kamtarlik-bu xudbin ishlar bilan shug'ullanishdan to'xtatuvchi kuch, - deydi. Ha, xalqimiz: "Kamtarga kamol-

manmanga zavol», deb mashaqqatli hayot saboqlarining xulosasini bizga meros qilib qoldirgan.

Haqiqatdan, hayotni kuzatsangiz, ko'p o'qigan, hayotni ko'p kuzatgan, teran ma'naviyatli insonlar fahm-farosatli, har bir narsaga jiddiy qaraydigan, mulohazali, oqil insonlar bo'ladilar. Bunday insonlar teran, sokin daryoga o'xshaydi: ular shovin-suronsiz oqadi. Ammo bilimi sayoz, hayot saboqlaridan yetarli xulosa chiqara olmagan, o'qib-uqmagan, hammaning aqli mening cho'ktagimda deb o'ylaydigan, salga o'zining yo'q aqllini peshlayveradigan kimsalar esa shaldirab oqayotgan jilgaga o'xshaydi-suvi kam-u, vahimasi bir jahon. Bunday odamlarda manmanlik kasali doimo xuruj qilib turadi.

Manmanlik - bu o'z kamchilagini va o'zgalarni tan olmaslik, o'zgalar fikri bilan hisoblashmaslik, takabburlik, xudbinlikdir. Manmanlik illati u makon qurgan kishilarni sog'lom fikr yuritishdan, o'zini takomillashtirib borishdan mahrum etadi. Natijada bunday odamlarda jaholat illati, ya'ni bilimsizlik paydo bo'ladi.

Kamtarlik va manmanlik bir-biriga qarama-qarshi ikki yo'ldir: ularning biri sizni kishilarga yaqinlashtiradi, ikkinchisi esa yiroqlashtiradi.

Bir insonning ikkinchi bir insonga intilishi, uni dil qumsab, sog'inishi zamirida muomala madaniyati yotadi. Jamiyatning rivojlangailigi, uning madaniyatilik darjasи, ravnaqi ko'p jihatdaidan unda yashaydigan kishilarning muomala madaniyati bilan belgilanadi. Aqli teran, fikri ummon, haqiqiy ma'naviyatli inson muomala jarayonida o'z fikrini tafakkur doshqozonida qaynatib, so'ng til dasturxoniga uzatadilar. Insonning til-zabonidan uning qanchalik fahm-farosatga ega ekanligini bilib olasiz.

Xalqimiz "So'z - aql tarozi" degan maqoli bilan ming karra haqiqatni aytgan. Inson martabasi uning so'zidan bilinadi, lekin so'zining martabasi kishi bilan belgilanmaydi. Nodir maibalardan biri "Qobusnama"da Kaykovus o'g'gli Gilonshohga bunday deydi: Kishi suxandon, suhango'y (notiq) bo'lishi kerak.... Suhango'y shul kishi bo'lgayki, ul har so'zni desa, xalqqa ma'qul bo'lgay.... Bunday kishidar oqillar qatoriga kirgay.

Bu manbada bo'lar-bo'lmasga vaxz qilavermaslik, so'zni ulug' bilish, u osmondan kelmasligi va uni xor qilmaslik haqida nasihatlar beriladi. Xorazm elining kuragi yerga tegmagan polvoni, ko'li gul po'stindo'z, ma'rifatparvar, xassos shoir Pahlavon Mahmud o'zining quyidagi she'bida aql-idrok, fahm-farosat har qanday qalbda ham makon quravermaslini, uniig juda noyob xislat ekanligini, o'qib-uqqan qalblardagina qaror topishini chiroyli ifoda qiladi.

Uch yuz Ko'hi Qofni kelida tuymoq,
Dil konidan bermoq falakka buyon,
Yoinki bir asr zindonda yotmoq,
Nodon suhbatidin ko'ra yaxshiroq.

Mazmuni: Qof tog'ining kamida uch yuztasini yanchishga tayyorman yoki ko'kragimga xanjar urib, dil koni bilan falakni buyashdek mushkul ishni bajarishim mumkin yoxud bir umr vijdonga tashlashlariga roziman. Ammo nodonning bir daqiqa suhbatiga dosh berishim mushkul. So'z so'zlaganda uning maynosi va mang'itiga e'tibor bermay so'zlaydigan insonlarni tinglab, dilni yaralagandan ko'ra, og'ir mehnat qilgan osonroq, tana charchog'i dam olinsa

chiqib ketadi. Biroq mazamatrasiz, fahm-farosatsiz suhbatni tinglab orttirilgan qalb charchog'i, dil yarasi chiqib ketishi, tuzilishi qiyinir.

Ha, bildirmoqchi bo'lgan fikrning obdon puxtalanishi, sayqallanishi, lo'ndalanishi va keyingina tilga chiqarilishi insonni yuksaklikka ko'taradi, unga latofat bag'ishlaydi. Buning uchun ham inson qalbdan chiqqan samimiy, go'zal so'zlarga va shirin muomalaga o'zida ehtiyoj sezadi.

Inson eng avvalo har tomonlama bilimdon bo'lmos'i lozim. Bilimdon bo'lmoqlik, bu o'z kasbini puxta egallah, el-yurt, Vatan manfaatlari yo'litsda sidqidildan mehnat qilish, unga sadoqatli bo'lish, uni e'zozlash, iqtisodiy, siyosiy, huquqiy bilimlarni doimiy ravishda yetarli darajada egallab borish, ma'rifatli bo'lish, ma'naviy kamolot sari intilish, xalqning, insonlarning g'am-tashvishlari, quvonchlarida hamdard, hamkor, yelkadosh bo'lish, umumiy qilib aytganda jamiyat hayotining barcha jabhlarida faol ishtirok etish, uning istiqboli uchun qayg'urish, doimo ezgu ishlar, orzu-umidlar, niyatlar bilan yo'ldosh bo'lib yurish demakdir.

Buning uchun inson har doim o'z mustaqil fikrini qobiliyatini shakllantirib, sayqallab bormog'i kerak.

Mustaqil ish topshiriqlari:

1.Uch yuz Ko'hi Qofni kelida tuymoq,

Dil konidan bermoq falakka buyon,

Yoinki bir asr zindonda yotmoq,

Nodon suhbatidin ko'ra yaxshiroq. (yakka tartibda va yoppasiga so'rash) sharhlab bering.

2.Sharq mutafakkirlarining tarbiyaga oid qanday asarlarini bilasiz?- asarlardan namunalar keltiring?

Mavzu bo'yicha ilmiy xulosalar:

1.Talabalar milliy tarbiyaning mazmun mohiyatini izohlashi.

2.Maktabda o'quvchilarga ta`lim-tarbiya berishning samarali yo'llarini izlab topish.

Mavzu bo'yicha yechimini kutayotgan ilmiy muammolar:

Talabalar O'quvchilarda milliy tarbiyani tarkib toptirish yuzasidan ilmiy tavsiyalar ishlab chiqish.

Tarbiyada yuqori natijaga erishishning yangi, qulay usullarini joriy qilish.

O'quvchilarda milliy tarbiyani tarkib toptirish bo'yicha metodik ko'rsatmalar yaratish.

Seminar mashg'uloti -6.Tarbiyaning umumiy metodlari. 2-soat

Reja:

1. Tarbiya metodlari haqida tushuncha.

2. Tarbiya metodlari haqida sharq allomalari qarashlari.

3.O'zbek xalq pedagogikasida foydalanilgan tarbiya metodlari

O`quv mashg`ulotining maqsadi Tarbiya metodlarining mohiyatini tushuntirish. Metodlarning nazariy asoslarini amaliyatga bog`langan holda talabalar ongiga yetkazish. O`qituvchilik kasbiga bo`lgan qiziqishni kuchaytirish.

O`quv faoliyatining natijalari: Tarbiya metodlarining o`ziga xos xususiyatlarini so`zlab beradi.

Tarbiya metodlarining boshqa metodlardan farqini ajratib ko`rsatadi.

Tarbiya metodlarining ahamiyatini tahlil qiladi.

Mavzu yuzasidan savollar:

- Tarbiya metodlaridan foydalanishda o`qituvchi nimalarga e`tabor berish kerak
- Tarbiya metodlarining mohiyatini aniqlang?
- Tarbiya metodlarini ilmiy asoslagan olimlarni ayting?
- Har bir tarbiya metodining ta`rifini ayting?

Taqdimotni baholash mezonlari:

- 1.Talabaning mimikasi va pontomimikasiga -1
2. Mantiqan bog`langanligi va izchilligi, nutqning ravonligi – 2
3. Ko`rgazmalilik va reglament - 2
4. Jami: eng yuqori baho: 5 baho

1-savol.

Bola o`qishni, tarbiya olishni istaydi, ulg`ayib jamiyat xayotida faol ishtirok etishni xoxlaydi.Pedagog uni qay usulda, qanday munosabatlar sharoitida, qanday pedagogig jarayonida tarbiyalashi lozimligi bilishi kerak. SHu bilan birga bola o`zini o`zgartirishda faol ishtirokchi ekanligini ham unutmasligi lozim. O`quvchilar yaqin kishilarining (ota-onasi, o`qituvchilari, tarbiyachilarining) munosabatlarini yaxshi bilsa bu unga ishda yordam bersa, shundagina bola pedagogik ta`sir o`tkazishga ochiq va moyil bo`ladi. O`qituvchi - do`s, murabbiy, yo`l boshlovchi bo`lgandagina o`quvchilar o`zlarining ichki olamlarini ohib ko`rsatadilar.

Tarbiya jarayonining uziga xos xususiyatlari xam mavjudki,bular orkali tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish yana xam e'tibor talab kiladi. Tarbiyaning kupkirralilik,uzok muddat davom etishi,yaxlit xolda va konsentrik xolda amalga oshirilishi,ikki tomonlama:ukituvchi va ukuvchi faoliyatibilan boglikligi,karamakareshiliklar kupligi kabi xususiyatlari inobatga olish,mazkur xususiyatlarning tarbiya jarayonini amalga oshirishda xar bir ukituvchi –tarbiyachi dikat markazida turishini talab kiladi.

Yuqorida aytganimizdek, tarbiya - tarbiyachi va tarbiyalanuvchi faoliyatlarini o`z ichiga olgan ikki yoklama jarayon. Tarbiyachilar - bilim va tarbiyaga ega bo`lgan kishilar, tarbiyalanuvchilar - bilim va tajriba o`rganuvchi yoshlardir. Ammo tarbiyalanuvchilar muayyan darajada aktiv faoliyat ko`rsatmasalar tajriba va bilim o`rgana olmaydilar.

Demak, tarbiya usuli - tarbiyachi va tarbiyalanuvchilarning hamkorlikdagi faoliyat va o'zaro ta'sir ko'rsatish usullaridir. Ilmiy adabiyotlarda tarbiya usullarini tarbiya metodlari deb ham ishlatiladi.

"Metod" so'zi grekchadan olingen bo'lib, yo'l, usul ma'nosini bildiradi.

Xalq pedagogikasida qo'llanilgan juda xilma-xil tarbiya usullarini qo'yidagi tarzda umumlashtirish mumkin.

1.Tushuntirish (o'rgatish, odatlantirish, mashq qildirish).

2.Namuna (maslaxat berish, uzr so'rash, yaxshiliklar xaqida so'zlash, o'rnak bo'lish).

3. Nasixat berish, o'git (undash, ko'ndirish, iltimos qilish, yolvorish, tilak-istak bildirish, maqullah, raxmat aytish, duo qilish, ok yo'l tilash va xokazolar).

4. Qoralash va jazo.(ta'kidlash, ta'na, gina, tanbex berish, majbur qilish, koyish, ayblash, uyaltirish, qo'rqtish, nafratlanish, ont-qasam ichirish, urish, kaltaklash va xokazolar.)

Tarbiya usullarini o'rganish, taxlil qilish, bu usullardan pedagogik jarayondan foydalanish, ko'nikma va malakalarni egallashni osonlashtirish uchun ularni shartli ravishda bir necha guruxga bo'lib olamiz:

Suxbat va xikoya. O'quvchi shaxsini g'oyaviy va axloqiy shakllantirishda o'qituvchining jonli so'zi eng ta'sirli usul xisoblanadi. Suxbat uchun mavzu tanlashda uning mazkur sinf uchun dolzarbliги, bolalarda axloqiy ishonch uyg'otishning suxbat mazmuniga bo'lgan munosabatlarini va suxbatdan kutilayotgan natijani xisobga olish lozim.

Xikoya. O'quvchilar odatda xayotdan va badiiy adabiyotdan olingen aniq misollar bilan to'liq xikoyalarni qiziqib tinglaydilar. Suxbat ham, xikoya ham o'quvchilarning yoshiga mos mavzularda, ular tushunadigan so'zlar orqali o'zbek tilida o'tkazilishi kerak. Eng yaxshisi, suxbat va xikoya mavzusini o'quvchilarning o'zлari tanlasin, bunda suxbatning zavqi – shundan ta'minlanadi, o'quvchilar mavzuga befarq qaramaydilar.

Namuna. O'quvchilar o'z atroflaridagi kishilarda hamma yaxshi axloqiy sifatlarni ko'rishlari va namuna olishlari nixoyatda muximdir.

O'qituvchining shaxsan o'zi namuna bo'lishi, ayniqsa yoshlarga katta ta'sir ko'rsatadi.

Namunadan xalq pedagogikasida ham keng foydalanilgan. Ota – bobolarimiz o'z farzandlarini hamisha yaxshilardan, donolardan, ulug' kishilardan ibrat olishga da'vat qilib kelganlar. Masalan: " Qush uyasida ko'rganini qiladi ". Juda oddiy jo'ngina xulosa.

Topshiriq. O'quvchilarning mehnat topshiriqlarini jamoa bo'lib bajarishlari ularda ijtimoiy xulq tajribalarini shakllantirishda alovida ahamiyatga egadir. O'quvchilar o'z kuchlarini umum ishiga sarflashga, jamoa uchun mas'uliyatni xis etishga o'rganadilar. Mehnat qilish bolani xarakterini shakllantiradi, mustaxkamlaydi.

Pedagogik talab. Pedagogik talab tarbiyaning eng muhim usullaridan biridir. Talab – bu o'quvchining turli vazifalarni bajarishi; ijtimoiy xulq – atvor mezonlarini ifodalashi; u yoki bu faoliyatda qatnashib bajarilishi zarur bo'lgan aniq bir vazifa sifatida namoyon bo'lishi; turli ko'rsatma sifatida namoyon bo'lishi, u yoki bu

xarakatda rag'batlantiruvchi yoki uni to'xtatuvchi bo'lisi; oqilona xarakatlarga undovchi bo'lisi mumkin.

O'z – o'zini tarbiyalash usullari o'quvchilarning o'zini – o'zi idora qilish organlari faoliyatida qatnashishlari, ularning ijtimoiy faollik mavqeyini shakllantirishning ta'sirchan vositasidir. O'quvchilar o'qishda, tarbiyada, dam olishda o'z – o'zini tarbiyalash usullaridan foydalanadilar, o'z – o'zini tarbiyalash tashabbuskorlik va mustaqillikka undaydi.

O'z-o'zini taxlil qilish. O'z shaxsini, fazilatlarini taxlil qilishga, xatti – xarakatlari xaqida o'ylashga o'rgatadi.

O'z – o'zini nazorat qilish uchun o'quvchi o'zining yurish – turishi, intizomi, ijobiy odatlarining ortib borishi va, aksincha, salbiy odatlarining kamayib borishi xaqida muntazam ravishda kundaligiga yozib boradi.

O'z-o'zini baxolash. O'quvchining qobiliyatini o'z kuchi bilan yuzaga chiqishiga yordamlashish zarur. O'z – o'zini baxolash qiyin, lekin o'quvchini bunga yetarli tayyorlash mumkin.

O'z – o'zini baxolash o'quvchi uchun o'zining imkoniyatlarini xisob – kitob qilish, baxolash, o'ziga chetdan turib xolisona baxo berish, o'zidan qoniqish xosil qilishda yordam beradi.

Rag'batlantirish va jazolash usullari.

- 1.O'quvchining kuchi yetadigan, mas'uliyatli topshiriq berish orqali bolaga ishonch bildirish; bunda o'quvchi o'z qadr - qimmati bilan faxrlanadi;
- 2.Maqtash (ota-onalar, bolalar jamoasi oldida);
- 3.Esdalik sovg'asi berish (kitob, ruchka, o'quv asbobi va boshqalar);
- 4.Maqtov yorlig'i berish;
- 5.Stipendiya bilan taqdirlash;
- 6.Xurmat taxtasiga fotosuratini quyish;
- 7.Qo'llab- quvvatlash;
- 8.Mas'uliyat va jamoaning minnatdorchiligi;
- 9.Safda birinchi o'rinda turish;
- 10.Musobaqlarda bayroq ko'tarish;
- 11.Gazetada, radioda e'lon va xokazo.

Xar qanday rag'batlantirish pedagogik talablarni xisobga olgan xolda qo'llanishi lozim.

Jazolash – bu tarbiyalanuvchining xatti – xarakati va faoliyatiga salbiy baxo berishdir.

Jazo ham o'quvchining va butun sinf manfaati uchun qo'llanadigan oxirgi tarbiya usuli. Jazo choralarini qo'llashda jismoniy jazo, urish, kaltaklash mumkin emas, bolani qo'rqitish, gazablantirish ham yaxshi natija bermaydi, o'quvchi qo'rqqanidan yolg'on gapirishga o'rganadi, ikkiyuzlamachi bo'lib qoladi.

Maktablarda qo'llash mumkin bo'lган jazo choralariga quyidagilar kiradi:

Tanbex berish – eng yengil jazo chorasisidir. O'qituvchi bolaga yuzma – yuz turib tanbex beradi, buni kundaligiga yozib quyish mumkin.

Ogloxlantirish – noma'qul xatti xarakatlarning oldini olish uchun qo'llaniladi.

Xayfsan berish – agar tanbex va ogloxlantirish kutilgan natijani bermasa, o'quvchi belgilangan intizomni bo'zaversa, o'quvchining aybi qay darajada va uning

intizomini qanday sharoitda bo'zganini e'tiborga olib unga xayfsan e'lon qilish mumkin.

Uyaltirish. Odamning eng nozik sezgilaridan biri uyat, or-nomus, sharm-xayodir. Odatda, odamda izzat –nafs, odamiylik qancha kuchli bo'lsa, avvalo o'zini xurmat qilsa, unda or-nomus, uyat shunchalik kuchli bo'ladi. Bolalarni tarbiyalashda shu xislarni extiyotkorlik bilan o'stirish lozim, lekin xadeb uyaltiraverish va qizartiraverish yaramaydi. Bundan oqilona va o'z o'rnidagi foydalanish kerak, shundagina ijobiy natijaga umid qilish mumkin.

Mustaqil ish topshiriqlari:

- 1.Jazo turlarini ayting?** (yakka tartibda va yoppasiga so'rash) sharhlab bering.
- 2.Tarbiya metodlarini ayting?**

Mavzu bo'yicha ilmiy xulosalar:

- Talabalar tarbiya metodlarining mazmun mohiyatini izohlashi.
- Maktabda o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berishda o'qituvchi jazo turlaridan foydalanish kerakmi kerak bo'lsa sabablaringizni misol tariqasida aytish.

Mavzu bo'yicha yechimini kutayotgan ilmiy muammolar:

O'quvchilarda tarbiya metodlaridan to'g'ri foydalanishni tarkib yuzasidan ilmiy tavsiyalar ishlab chiqish.

Tarbiya metodlarining qulay usullarini joriy qilish.

Seminar mashg'uloti -7. Jamoaning shaxs tarbiyasiga ta'siri. 2-soat Reja:

- Jamoaning o'ziga xos xususiyatlari .
- Bolalar jamosining shakllanish bosqichlari.
- SHaxs va jamoa.

Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar:

Sinf, jamoa, o'quvchilar jamoasi, tarbiyaviy ish reja, tarbiyachi, o'quvchi va o'qituvchi o'rtasidagi hamkorlik, tarbiyaviy soat, ota-onalar qo'mitasi, pedagogik hamkorlik, formal jamoa, noformal jamoa, umummaqtab jamoasi, jamoada shaxs tarbiyasi, jamoa faollari.

O'quv faoliyatining natijalari: Jamoa jamoaning shaxs tarbiyasiga ta'siri haqida so'zlab beradi.

Bolalar jamoasini shakllanish bosqichlarini ajratib ko'rsatadi.

Shaxs va jamoa ahamiyatini tahlil qiladi.

Mavzu yuzasidan savollar:

- O'qituvchi o'quvchilar jamoasini shakllantirganda nimalarga e'tabor berish kerak?
- Jamoa an`analarini ayting?
- Jamoaning shakllanish bosqichlarida o'qituvchi qanday ishlarni amalaga oshirish kerak?

Taqdimotni baholash mezonlari:

- 1.Talabaning mimikasi va pontomimikasiga -1
2. Mantiqan bog`langanligi va izchilligi, nutqning ravnligi – 2
3. Ko`rgazmalilik va reglament - 2
4. Jami: eng yuqori baho: 5 baho

Darsning maqsadi: O'quvchilar jamoasining mohiyatini bayon etadi. Jamoaning paydo bo'lishi va tarkib topishida topshiriqlarning ahamiyatini ochib beradi.Jamoaning o'quvchi shaxsiga ta'siri va tarbiyaviy imkoniyatlarini tushuntiradi.

Talabalarning o'z jamoalarida tutgan o'rni va mavqeini anglashga yo'naltiradi.

Identiv o'quv maqsadlari:

1. Jamoa va o'quvchilar jamoasining mohiyatini aytib beradi.
2. Jamoaning o'quvchi yoshlarni tarbiyalashdagi imkoniyatlarini izohlaydi.
3. Jamoaning jipslashuvida topshiriqlarning ahamiyatini sharhlaydi.

1-savol

Pedagogika fani o'quvchilar jamoasini tashkil etish va shakllantirishga tarbiya nazariyasi va amaliyotining markaziy masalalaridan biri deb qaraydi. Jamoada, jamoa orqali va jamoa uchun tarbiyalash tarbiya nazariyasining muhim prinsiplaridan biri hisoblanadi. Inson bolasi dunyoga kelganidan umrining oxirigacha turli jamoalarning a'zosi bo'lib yashaydi. Oila jamoasi, mакtabgacha tarbiya, maktab jamoasi, ishlab chiqarish jamoalari uzoq davom etadigan farmal jamoalar hisoblanadi.

Farmal jamoa aniq tartib-qoidalar asosida ma'lum muddat davomida birlashgan kishilar uyushmasidir.

Nofarmal jamoa- qisqa, tasodifiy yoki vaqtinchalik birlashgan kishilar yig'indisidir. Bunda har bir kishining o'ziga yarasha maqsadi asosiy rol o'ynaydi.

Nofarmal jamoaning uzoq vaqt davom etadigan va shaxsga kuchli ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lган shakli o'rtoqlar guruhi (ulfatchilik) hisoblanadi.

Bola shaxsiga tarbiyaviy ta'sir etuvchi jamoa o'quvchilar jamoasidir. Jamoa deyilganda umumiyl maqsad (ijtimoiy foydali ahamiyat kasb etgan) va birgalikdagi faoliyat uchun jipslashgan o'quvchilarning birlashmalari tushuniladi. Bolalarning jamoadagi o'zaro munosabati, shaxsiy javobgarlikni his etishi, huquqdan foydalanish va vazifalarni bajarishda barcha a'zolarning tengligi bilan belgilanadi. Jamoaning asosini boshlang'ich jamoa tashkil etadi. Boshlang'ich jamoa A.S.Makarenko ta'biri bilan aytganda «shaxs bilan aloqada bo'lishi asbobi»dir, chunki, unda o'quvchilar o'zaro yaqin muomalada bo'ladilar, hamma vaqt birgalikda harakat qiladilar, butun jamoaga qo'yilgan maqsadni hal etishda qatnashadilar. Har bir boshlang'ich jamoa (sinf) o'z tarkibiy qismlariga ega bo'lsada, umumiyl jamoaning bir qismi hisoblanadi. Bu jamoa maqsadlarining birligi va umumiyl ishlarni tashkil etishi bilan bog'liq bo'ladi.

Nazorat savollar:

1. Jamoa va o'quvchilar jamoasining mohiyatini aytib bering.
2. Jamoaning o'quvchi yoshlarni tarbiyalashdagi imkoniyatlarini tahlil qiling.
3. Jamoaning jipslashuvida topshiriqlarning ahamiyatini aniqlang.

4. Farmal va nofarmal jamoaning bir-biriga o'xshashlik va farqini izohlang.

2-asosiy savol bo'yicha darsning maqsadi: O'quvchilar jamoasining rivojlanish bosqichlarini birma-bir talabalarga tushuntirib beradi. Har bir bosqichda jamoa qanday holatda bo'lishini izohlaydi.

Talabalarni jamoa tarkibida faol bo'lishga odatlantiradi.

Jamoani hurmat qilishga va uning barcha talablarini bajarishga o'rgatadi.

Identiv o'quv maqsadlari:

1. O'quvchilar jamoasining bosqichlarini so'zlab beradi.
2. Har bir bosqichning o'ziga xos xususiyatlarini ajratib ko'rsatadi.
3. Jamoa faollarining xususiyatlarini tavsiflaydi.

2-asosiy savol bayoni:

O'quvchilar jamoasi sinf tashkil topgan kundan boshlab shakllanib boradi. Ammo, dastlabki davrlarda hali jamoa jipslashmagan, alohida o'quvchilar guruhi sifatida mavjud bo'ladi.

O'qituvchining, umummaqtob jamoasining va sinf o'quvchilarining sa'y-harakatlari bilan sekin-asta jamoa tartib-qoidalari namoyon bo'lib bora boshlaydi.

Bu jarayon bir-biriga uzviy bog'liq bo'lgan bir qancha bosqichlarda o'z takomiliga yetadi.

Birinchi bosqich: o'quvchilar bilan ishlashning dastlabki davrida – hali jamoa tashkil etilmagan, faollar shakllanmagan vaqtida, shaxsga nisbatan jamoaning talabi bo'lmaydi, har bir o'quvchi o'zi uchun javob beradi, o'quvchilar hali o'z o'rtoqlari oldiga ham biror talabni qo'ya olmaydilar.

Ikkinci bosqich: faollar bilan astoydil ishslash, ularni jipslashtirish va birgalikda ishlashaga o'rgatish, jamoa ishlarini tashkil qilish bilan xarakterlanadi. Buning uchun esa faollarni tez-tez yig'ish, ular bilan ayrim muhim masalalar bo'yicha seminarlar o'tkazish, o'z mакtabining ishlari hamda istiqbollari haqida suhbatlashish, ular bilan birgalikda kundalik masalalarni hal qilish, faollar ichida rahbarlik ishiga layoqatli bolalarni tanlash (saylash) zarur.

Uchinchi bosqich: jamoa hayotining barq urishi o'zaro munosabatlarning shakllanishi jamoaning shaxsga ta'siri bilan xarakterlanadi.

Faollar hamda o'z-o'zini boshqarish organlari tomonidan tashkil etiladigan ijtimoiy faoliyatning xilma-xil turlari ta'sirida jamoa rivojlanadi. Uchinchi bosqichda o'qituvchi va faollarning talablarini ko'pchilik o'quvchilar qo'llab quvvatlaydilar. O'qituvchining pedagogik mavqeい yashirin shaklga kirib boradi.

O'qituvchi shaxsga sinf jamoasi orqali ta'sir etadi. Bunday ta'sir ko'rsatish natijasida ham shaxs ham jamoa tarbiyalanib boradi. Bunday metod parallel pedagogik ta'sir ko'rsatish metodi deb hisoblanadi.

To'rtinchi bosqich: bu davrda pedagogik vazifalar murakkablashadi. Jamoanining ayrim shaxsga ta'sir doirasi kengayadi. Har bir o'quvchining axloqiga va jamoatchilik o'rtasidagi o'zini tuta bilishiga bo'lgan talabi kuchayadi. Bu bosqichda barcha masalalarni shu bilan birga axloqiy o'zlashtirish, turmush

masalalarini ham, buning ustiga faqat xatti-harakatlarnigina emas, balki shu xatti-harakatlargi undovchi motivlarni ham jamoa muhokamasiga qo'yish mumkin. Shaxsning o'ziga qo'yan talabi boshqalarga qo'yan talabiga qaraganda yuqoriroq bo'ladi. Bu bosqichda o'quvchilar jamoasi kattalar jamoalari bilan hamkorlik o'rnatadilar. Pedagog jamoa rivojlanishining qonunini bilsa, jarayonni tezlashtiradi, bilmasa sekinlashtirib yuborishi mumkin.

Nazorat savollar:

1. *Jamo faollarini tanlashda e'tibor beriladigan xususiyatlarni aniqlang va yozma bayon eting.*
2. *Faollarga yondoshishda bola shaxsini hurmat qilish va imkoni boricha talabchan bo'lish qoidasiga amal qilishning mohiyatini tushuntirib bering.*
3. *Jamo faollarining axloqiy fazilatlari qanday bo'lishi kerak. Qachon ularni barcha o'quvchilar tan oladilar. Fikringizni izohlang.*

3-asosiy savol bo'yicha darsning maqsadi:

O'quvchilar jamoasini shakllantirishning metodikasini talabalarga tushuntirish. Jamoa oldiga va ayrim o'quvchilarga talablar qo'yishning usullari, istiqbolli rejalar qabul qilish va bajarish yo'llari, an`analarga tayyorgarlik ko'rish va nishonlash metodikasi haqida ma'lumot beriladi. Talabalar ishtiroy etishi mumkin bo'lgan jamoalarda o'z o'rnnini topishga, faollik ko'rsatishga odatlantiriladi.

Identiv o'quv maqsadlari:

1. *O'quvchilar jamoasini mustahkamlashda talablar qo'yishning samarali yo'llarini qayd qiladi.*
2. *O'quvchilar jamoasini shakllantirishning turli yo'llarining farqini ko'rsatadi.*
3. *Talab qo'yish, istiqbolli rejalar tuzish va bajarish, an`analarni nishonlash usullarini taqqoslaydi.*

3-asosiy savol bayoni:

Jamoani shakllantirishda o'quvchilarga qo'yiladigan yagona talabning ahamiyati kattadir. Maktabning «yagona talabi» – bu har xil sharoitlarda o'quvchilarning xatti-harakatini tartibga soluvchi bir necha o'nlab bandlarni o'z ichiga oluvchi hujjatdir. Yagona talab o'quvchilarning darslardagi, tanaffus, sinfdan tashqari ishlar vaqtidagi jamoat joylarida, uydagi madaniy xulq-atvor qoidalarini o'z ichiga oladi. Pedagoglar jamoasi tomonidan qo'yilgan talablar quyidagi sharoitlarda ijobiy natija beradi:

1. *O'quvchilarga qo'yiladigan talablar o'quvchini hurmat qilishni o'z ichiga olish kerak.*
2. *Pedagoglar jamoasi yagona talablarni muayyan maktabning, sinfning aniq sharoitini hisobga olgan holda qo'yilishi kerak.*
3. *Talablar aniq bo'lishi kerak. O'quvchilar o'zlaridan nima talab qilinayotganligini aniq tushunishlari lozim.*

O'quvchilarga talablar qo'yish metodikasi bolalarni talablar mazmuni bilan tanishtirib, ularning ahamiyatini tushuntirishi, tajriba orttirishi hamda ularni muntazag sur'atda nazorat qilib borishdan iborat.

O'quvchilar jamoasi shunday ishlarni tanlab olishi kerakki, bu ishlar barcha o'quvchilar hamda har bir o'quvchining qiziqishiga javob bersin. Bunday istiqbol rejalar qabul qilish va bajarish maqsadga muvofiqdir.

Istiqbol rejalar belgilashning ikki asosiy metodi borligini ko'rsatish o'rinnidir.

- 1) *O'qituvchining o'zi o'quvchilar oldiga vazifa qo'yadi, bunda u ana shu vazifalarni hal etish yo'llarini ko'rsatadi va o'quvchilarni qiziqtirishga intiladi.*
- 2) *O'quvchilarning o'zlari qiziqarli tadbirdlarni ilgari suradilar, o'qituvchi bu tashabbusni qo'llab-quvvatlaydi hamda amalga oshirish usullarini topishda yordam beradi.*

Birinchi metod o'quvchilar jamoasini tarkib toptirishning dastlabki bosqichida, ikkinchisi esa ancha yuqoriroq bosqichda, o'qituvchi tomonidan qo'yilgan talabni sinf faollari qo'llab quvvatlaydigan davrda qo'llaniladi.

O'qituvchining vazifasi o'quvchilar jamoasi faoliyatini o'zlashatirishni yuqori ko'tarish uchun kurashga yo'naltirishdan iborat.

Belgilangan ishlar quyidagi sharoitlarga rioya qilingandagina yaxshi natija berishi mumkin:

A) Ishlarni bajarishga puxta tayyorgarlik ko'rish;

B) Tayyorgarlik ishlarida iloji boricha ko'proq o'quvchining qatnashishi.

O'quvchilar jamoasini shakllantirishda an`analar muhim o'rinn tutadi. An`ana o'quvchilarning birgalikdagi faoliyatining shunday shakliki unda munosabatlar xarakteri hamda ijtimoiy fikr yorqin ifodalanadi. Mavjud an`analarni shartli ravishda ikki guruhga ajratish mumkin.

A. Kundalik turmush an`analari.

B. Bayram an`analari.

Kundalik turmush an`analari o'quvchilarning o'quv faoliyatini, mehnat faoliyatini va boshqa faoliyatlarni o'z ichiga oladi.

*Bayram an`analari*ga davlat tomonidan belgilangan kunlarni nishonlash, bitiruvchilar kechasi, paxta bayrami o'tkazish, «alifbe kuni» va boshqalar kiradi.

Nazorat savollar:

1. *Faollar bilan ishlashda quyi sinf o'quvchilari, o'rta yoshdagi o'quvchilar hamda yuqori sinf o'quvchilariga mo'ljallangan ish usullarini tahlil qiling.*
2. *Istiqbol rejalar qabul qilish va bajarishning tarbiyaviy ahamiyatini so'zlab bering. Ularning yutuqlarini izohlang.*
3. *Qisqa, o'rta va uzoq muddatli istiqbol rejalarga misollar keltiring. Ularning qabul qilinishi, bajarilishi va yakunlanishini taqqoslab ko'ring.*
4. *Parallel ta'sir etish prinsipining mohiyatini tushuntirib bering va uning ahamiyatini izohlang.*

Mustaqil ish topshriqlari:

Maktabning ma'lum davrga mo'ljallagan istiqbol ish rejasining mohiyatini o'rganish.

Sinf rahbarining tarbiyaviy ish rejasini tahlil qilish.

Maktab tarbiyasida tarbiyaviy ishlarni tashkil etish usullarining bugungi kundagi ahamiyatini qiyosiy tahlil qilish.

Sinf rahbari va tarbiyachiga qo'yilgan talablarni asoslab bering.

O'qituvchi –tarbiyachining vazifasi rang–barang, ulardan muhimlarini ajratib ko'rsating.

Mavzu bo'yicha ilmiy xulosalar:

Kasb tarbiyasi va uning mohiyati. Sinf rahbari va tarbiyachiga qo'yiladigan talablani tushuntirish.

Maktabda tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish va o'tkazish tartibini aniqlash.

O'quvchilar jamoasini shakllantirishda sinf rahbari va tarbiyachining roli

O'quvchilar jamoasining tarbiya jarayonidagi o'rni

Mavzu bo'yicha yechimini kutayotgan ilmiy muammolar:

O'quvilar jamoasining tarbiyaviy imkoniyatlarini aniqlash.

O'quvchilar jamoasining boshqa jamaolar bilan aloqasini mustahkamlash shart-sharoitini belgilash.

Jamoada shaxsning shakllanish dinamikasini o'rganish.

Talab qo'yish, istiqbol rejalar tuzish va bajarish, an`analarni nishonlash usullarini takomillashtirish.

Sinf rahbari olib boradigan asosiy tarbiyaviy ishlarning samaradorlik darajasini oshirish me`yorlarini aniqlash.

Maktabda tarbiyaviy ishlarni yo'lga qo'yish, rejalashtirish va o'tkazish tartibini o'rganish.

Turli sinflarda o'tkaziladigan tarbiyaviy tadbirlarning o'quvchilar yosh xususiyatlariga, qiziqish va ehtiyojlariga mosligini aniqlash.

Seminar mashg'uloti -8. Guruh rahbarining tarbiyaviy ishi. 2-soat Reja:

1. Kasb tarbiyasi va uning mohiyati. Sinf rahbari va tarbiyachiga qo'yiladigan talablar.
2. Maktabda tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish va o'tkazish tartibi.
3. O'quvchilar jamoasini shakllantirishda sinf rahbari va tarbiyachining roli.
4. O'quvchilar jamoasining tarbiya jarayonidagi o'mni.
5. O'quvchilar jamoasini rivojlantirish bosqichlari;

Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar:

Sinf, jamoa, o'quvchilar jamoasi, tarbiyaviy ish reja, tarbiyachi, o'quvchi va o'qituvchi o'rtasidagi hamkorlik, tarbiyaviy soat, ota-onalar qo'mitasi, pedagogik hamkorlik, formal jamoa, noformal jamoa, umummaqtab jamoasi, jamoada shaxs tarbiyasi, jamoa faollari, topshiriqlar, jamoaning rivojlanish bosqichlari, o'z-o'zini boshqarish, istiqbolli rejalar, parallel tarbiyaviy ta'sir, an`analar, yagona talab.

darsning maqsadi: Maktabda tarbiyaviy ishlarni yo'lga qo'yish tushuntiriladi. Tarbiyaviy ishlarni to'g'ri rejalashtirish va o'tkazish tartibini o'rganish orqali talabalarda rahbarlik va tarbiyachillikka qiziqish uyg'otadi.

Identiv o'quv maqsadlari:

1. Maktabda tarbiyaviy ishlarni yo'lga qo'yishni tushuntiradi
2. Maktabda tarbiyaviy ishlarni rejalarshitirish va o'tkazish tartibini asoslaydi.

Mavzuga oid muammolar:

1. Tarbiyaviy ishlarni yo'lga qo'yish uchun umumta'lim maktablariga mo'ljallangan namunaviy ish rejalar mavjud. Bu rejadan kelib chiqqan holda sinf rahbarlari yillik tarbiyaviy ish rejalarini ishlab chiqadilar. Sinf rahbari ish rejasini tuzishda nimalarga e'tibor qaratishi lozim? Sinf rahbarining ish rejasida darsdan tashqari tarbiyaviy ishlarni belgilashda nimalar muhim sanaladi? Fikringizni dalillang.
2. Pedagoglarning ish tajribasidan kelib chiqqan holda maktabda tarbiyaviy ishlarni yo'lga qo'yishning bir necha usullari aniqlangan. Ularni o'z xususiyatiga qarab ketma-ketlikda joylashtiring. Qaysi usul tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishda ta'sirliroq hisoblanadi? Javobingizni izohlang.
3. O'qituvchi va sinf rahbarlari milliy tarbiyaning umumiy maqsadi har tomonlama kamol topgan shaxsni tarbiyalashni ro'yobga chiqarish bilan bog'liq barcha vazifalarni amalga oshiradilar. Bunday vazifalarga nimalarni kiritasiz? Ulardan qay biri ustuvor hisoblanadi?

1-asosiy savol bayoni:

Maktabda ta'lim-tarbiya ishlarini talabga muvofiq uyushtirilishi ko'p jihatdan maktabning to'g'ri boshqarilishiga o'quvchilar jamoasining, maktab direktori rahbarligida uyushqoqlik bilan ishlashiga bog'liqdir.

Maktabda ta'lim tarbiya ishlarini yagona reja asosida tashkil qilish va olib borish, to'g'ri boshqaruv uslubining ajralmas qismidir.

Maktabda tarbiyaviy ishlarni yo'lga qo'yish uchun umumta'lim maktablari uchun shartli ravishda qabul qilingan ish rejalar mavjud.

1. Maktabning ma'lum istiqboli davriga mo'ljallab tuzilgan ish rejasи.
2. Maktabning bir o'quv yiliga mo'ljallab tuzilgan ish rejasи.
3. Joriy ish rejasи.

Maktabning tarbiyaviy ishlariga reja asosida rahbarlik qilish maktabda tarbiyaviy ishlarni qo'yishda tarbiyaviy ishlar bo'yicha mакtab direktorining o'rinnbosari rahbarlik qiladi. Maktabning ish rejalaridan kelib chiqqan holda sinf rahbari ham rahbarlik qiladigan sinfi uchun ish reja tuzadi.

- 1) O'quvchilarni o'rganish. Sinfga rahbarlik qilish odatda sinfni va alohida har qaysi o'quvchini o'rganishdan boshlanadi.
- 2) Sinf o'quvchilar jamoasini tashkil etish va tarbiyalash. Sinf o'quvchilar jamoasini uyushtirish va tarbiyalash sinf rahbari ishining asosiy qismlaridan biridir.
- 3) O'quvchilar bilimi sifatini oshirish hamda ularning tartib-intizomini mustahkamlash. Bilimlarning yuksak darajada bo'lisi va ongli intizom sinfda ta'lim-tarbiya ishlarini to'g'ri yo'lga qo'yishning eng muhim ko'rsatkichlaridandir.
- 4) Darsdan tashqari tarbiyaviy ishlarni tashkil etish va ularni o'tkazish.
- 5) O'quvchilarning ota-onalari bilan ish olib borishi.

Sinf rahbarining tarbiyaviy ish rejasи quyidagi tartibda tuziladi:

1. Sinf jamoasining shakllanganlik darajasi va u bilan olib boriladigan tarbiyaviy ishning mazmuni.
2. O'quvchilarning o'zlashtirishini yaxshilash tadbirlari.
3. O'quvchilarni ma'naviy tarbiyalash.
4. Sinf faollari bilan ishslash.
5. Ommaviy ma'daniy ishlar.
6. Sinfda jismoniy tarbiya va sport ishlari.
7. Ota-onalar, ishlab chiqarish vakillari hamda jamoatchilik bilan ishslash.

Maktab tarbiyasida tarbiyaviy ishlarni tashkil etishning usullari tarkib topib, muvaffaqiyatli qo'llanilib kelmoqda. O'quvchilar bilan yalpisiga hamda yakka va guruhlarga bo'lib ish olib boriladi.

Pedagoglarning tarbiyaviy ish tajribasiga asosan tarbiya berishni yo'lga qo'yish usullarining quyidagicha shakllari mavjud:

- A) Yalpi yoki hamma o'quvchilar bilan ish olib borish yoki to'garak ishlari.
- B) Individual ish olib borish.
- V) Guruhlarga bo'lib ish olib borish.

Bu ish shakllarining hammasida quyidagicha usullar mavjud:

- A) Og'zaki ish usullari
- B) Amaliy ish olib borish usullari
- V) Ko'rgazmali ish olib borish usullari.

Nazorat savollar:

1. Maktabda tarbiyaviy ishlarni yo'lga qo'yish haqida tushuncha bering va izohlang.
2. Maktabda tarbiyaviy ishlarni rejalashtirishning mohiyatini oolib bering.
3. Maktabda tarbiyaviy ishlarni o'tkazish tartibini sharhlab bering.
4. Maktabda tarbiyaviy ishlarni yo'lga qo'yish, rejalashtirish va o'tkazish tartibini asoslab bering.

2-savol bo'yicha darsning maqsadi: Sinf rahbari va tarbiyachiga qo'yiladigavn talablar haqida tushutiradi. Ularni mukammal o'rganishga qiziqish uyg'otadi.

Identiv o'quv maqsadi:

1. Sinf rahbari va tarbiyachiga qo'yiladgan talablarni tushuntiradi.
2. Sinf rahbari va tarbiyachining maqsad va vazifalarni asoslab beradi.

2-asosiy savol bayoni:

O'qituvchi va sinf rahbarlari milliy tarbiyaning umumiy maqsadi har tomonlama rivojlangan shaxsni tarbiyalashni ro'yobga chiqarish bilan bog'liq barcha vazifalarni amalga oshiradilar. «Ta'lim to'g'risida»gi qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturida ko'rsatib o'tilganidek maktab o'quvchilarida milliy mafkuraviy dunyoqarash asoslarini, mehnatsevarlikni, bilimdonlik va ijtimoiy faoliytni shakllantirish, yosh avlodni tarbiyalashning asosiy vazifalaridan hisoblanadi.

O'qituvchi-tarbiyachi tarbiyaga tizimiylik va izchillik bilan yondashgan holda o'quvchilarning aqliy, g'oyaviy-siyosiy, mehnat, axloqiy estetik va jismoniy tarbiyasini amalga oshiradi. Bunda axloqiy, g'oyaviy-siyosiy, mehnat va boshqa

tarbiyaning uyg'unligi muhim o'r'in tutadi. Bundan tashqari o'qituvchi tarbiyachilar bolalar jamoasini yaratish vazifasini bajaradilar, ota-onalar bilan tizimli va har xil ish olib boradilar. O'quvchilar jamoasiga uslubiy yordam ko'rsatadilar.

O'qituvchi-tarbiyachining vazifasi juda rang-barang. Ulardan muhimlari quyidagilardir:

- Bolalar tarbiyaviy jamoasini tashkil etish va yaratish.
- O'quvchilarni o'rganish va o'quvchilar bilan yakka tartibda ishlash.
- Xilma-xil sinfdan tashqari ishlarni tashkil etish va o'tkazish.
- O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini oshirish.
- O'quvchilarning fan o'qituvchilari bilan hamkorlikda ishlashi.
- Ota-onsa va jamoatchilik bilan ishlashi.
- O'quvchilarni mehnatga, bo'lajak kasbini tanlash ishlariga jalg qilish.
- O'quvchilarda kasbiy madaniy munosabatlarni shakllantirish.

Har bir sinfda tarbiyaviy ishlar olib borish uchun sinfda dars beruvchi tajribali o'qituvchilardan sinf rahbari tayinlanadi. Uning vazifasi shu sinf o'quvchilarining ta'lim tarbiya ishlarini birlashtirib yo'lga soladi. O'quvchilarni har tomonlama kamolga yetkazish vazifalarini hal etadi.

Nazorat savollar:

1. Sinf rahbari va tarbiyachiga qo'yilgan talablarni tushuntirib, ochib bering.
2. Sinf rahbari va tarbiyachiga qo'yilgan talablarni siz o'qigan mакtabda qanday bajarilganligini tahlil qiling.
3. Turli maktabdagi sinf rahbari va tarbiyachiga qo'yilgan talablarning usullarini kuzating. Ular o'zlariga qo'yilgan talablarni qanday bajarmoqda, ularni bir-bir taqqoslang.

Seminar mashg'uloti -9. Iqtisodiy va ekologik tarbiya. 4-soat Reja:

1. SHarq allomalarining tabiat va ekalogiya haqidagi qarashlari.
2. Ekologik tarbiyaning maqsad vazifalari.
3. Iqtisodiy tarbiyaning maqsad vazifalari.

O'quv mashg'ulotining maqsadi SHarq allomalarining tabiat va ekologiya haqida tushuntirish. Ekologik tarbiyaning maqsad vazifalarini talabalar ongiga yetkazish. Oila byudjeti haqida ma'lumot berish. O'quvchilarda iqtisodiy tarbiyani shkllantirishning maqsad va vazifalarini o'rganish.

O'quv faoliyatining natijalari: SHarq allomalarining tabiat va ekalogiya haqidagi qarashlarini so'zlab beradi.

Ekologik tarbiyaning boshqa tarbiya turlaridan farqini ajratib ko'rsatadi. Ekologik tarbiya va Iqtisodiy tarbiyalarining ahamiyatini tahlil qiladi.

Mavzu yuzasidan savollar:

- Ekologik tarbiya shakllantirishda o`qituvchi nimalarga e`tabor berish kerak
- SHarq allomalarining tabiat va ekalogiya haqidagi qanday asarlarini bilasiz.
- Ekologik ta`lim va ekologik tarbiya ta`rifini ayting?
- Iqtisodiy tarbiya oilada qanday shakllantiriladi?

Taqdimotni baholash mezonlari:

- 1.Talabaning mimikasi va pontomimikasiga -1
2. Mantiqan bog`langanligi va izchilligi, nutqning ravonligi – 2
3. Ko`rgazmalilik va reglament - 2
4. Jami: eng yuqori baho: 5 baho

Seminar mashg`uloti -10. Fuqarolik tarbiyasi. 2-soat

Reja:

1. Fuqarolik tarbiyasining mazmuni va vazifalari.
 - 2.Fuqarolik va uning mohiyati.
 - 3.O`quvchilarni fuqarolik ruhida tarbiyalashg davlat ramzlarining ahamiyati.
- O`quv mashg`ulotining maqsadi** Fuqarolik tarbiyasining mazmuni va vazifalari haqida tushuntirish. Fuqarolik tarbiyaning maqsad vazifalarini talabalar ongiga yetkazish. Fuqarolik va uning mohiyati haqida ma`lumot berish.

O`quv faoliyatining natijalari: Fuqarolik tarbiyasining mazmun mohiyati haqida so`zlab beradi.

Fuqarolik tarbiyaning boshqa tarbiya turlaridan farqini ajratib ko`rsatadi. Fuqarolik tarbiya va Huquqiy tarbiyalarining ahamiyatini tahlil qiladi.

Mavzu yuzasidan savollar:

- Fuqarolik tarbiyani shakllantirishda o`qituvchi nimalarga e`tabor berish kerak
- Fuqaro bilan fuqarolikning farqini ayting?
- Fuqarolik tarbiya oilada qanday shakllantiriladi?

Taqdimotni baholash mezonlari:

- 1.Talabaning mimikasi va pontomimikasiga -1
2. Mantiqan bog`langanligi va izchilligi, nutqning ravonligi – 2
3. Ko`rgazmalilik va reglament - 2
4. Jami: eng yuqori baho: 5 baho

Seminar mashg`uloti -11. Oila tarbiyasi. 2-soat

Reja:

1. Oila haqida tushuncha.
2. Oila va inson.
3. Oila tarbiyasini tashkil etish shakl va vositalari.

O`quv mashg`ulotining maqsadi Oila haqida tushuntirish. Oila va inson haqida ma`lumot berish. Oila tarbiyasini tashkil etishda tarbiya metodlaridan foydalanish yo`llari o`rganiladi.

O`quv faoliyatining natijalari: Oila haqida so`zlab beradi.

Oila tarbiyasida kattalarning o`rni haqida ma`lumot beradi.

Oila tarbiyasini shakllantirishda namunali oilalar misolida o`rganiladi va tahlil qilinadi.

Mavzu yuzasidan savollar:

- Oilada farzand tarbiyasida ota-onaliga nimalarga e`tabor berishi kerak?
- Bola huquqlari to`g`risidagi konvensiya qachon qabul qilingan?

Taqdimotni baholash mezonlari:

- 1.Talabaning mimikasi va pontomimikasiga -1
2. Mantiqan bog`langanligi va izchilligi, nutqning ravonligi – 2
3. Ko`rgazmalilik va reglament - 2
4. Jami: eng yuqori baho: 5 baho

**Seminar mashg`uloti -12. O`quvchilarining jismoniy va estetik tarbiyasi. 2-soat
Reja:**

1. Jismoniy tarbiya haqida tushuncha.
2. Estetik tarbiyaning vositalari.
3. Estetik tarbiyaning xususiyatlari

O`quv mashg`ulotining maqsadi Oila haqida tushuntirish. Oila va inson haqida ma`lumot berish. Oila tarbiyasini tashkil etishda tarbiya metodlaridan foydalanish yo`llari o`rganiladi.

O`quv faoliyatining natijalari: Oila haqida so`zlab beradi.

Oila tarbiyasida kattalarning o`rni haqida ma`lumot beradi.

Oila tarbiyasini shakllantirishda namunali oilalar misolida o`rganiladi va tahlil qilinadi.

Mavzu yuzasidan savollar:

- Oilada farzand tarbiyasida ota-onaliga nimalarga e`tabor berishi kerak?
- Bola huquqlari to`g`risidagi konvensiya qachon qabul qilingan?

Taqdimotni baholash mezonlari:

- 1.Talabaning mimikasi va pontomimikasiga -1
2. Mantiqan bog`langanligi va izchilligi, nutqning ravonligi – 2
3. Ko`rgazmalilik va reglament - 2
4. Jami: eng yuqori baho: 5 baho

**Seminar mashg`uloti -13. Ma`naviy-axloqiy tarbiya. 2-soat
Reja:**

1. Ma`naviy-axloqiy tarbiya mohiyati, asosiy tushunchalari.
2. Ma`naviy-axloqiy tarbiyaning mazmuni.
3. Ma`naviy-axloqiy tarbiyaning tarkibiy qismlari, shakl va metodlari.

O`quv mashg`ulotining maqsadi Ma`naviy-axloqiy tarbiya mohiyatini tushuntirish. Ma`naviyat, ma`rifat, madaniyat ahloq tushunchalari haqida ma`lumot ma`lumot berish. Ma`naviy-axloqiy tarbiyaning tarkibiy qismlari, shakl va metodlari o`rganiladi.

O`quv faoliyatining natijalari: Ma`naviy-axloqiy tarbiya haqida so`zlab beradi. Ma`naviy ahloqiy tarbiyani shakllantirishda ommaviy tadbirlarning orni o`rganiladi.

Mavzu yuzasidan savollar:

- Oilada farzandlarda ma`naviy ahloqiy tarbiyani shakllantirishda ota-onanimalarga e`tibor berishi kerak?
- Ma`naviyat va ma`rifat tushunchalarining ta`rifini ayting?

Taqdimotni baholash mezonlari:

- 1.Talabaning mimikasi va pontomimikasiga -1
2. Mantiqan bog`langanligi va izchilligi, nutqning ravonligi – 2
3. Ko`rgazmalilik va reglament - 2
4. Jami: eng yuqori baho: 5 baho

Seminar mashg`uloti -14. Ta`lim muassasasi menejmenti. Ta`lim muassasasida metodik ishlarni boshqarish. 4-soat

Reja:

1. Ta`lim muassasasini boshqarishning pedagogik –psixologik asoslari.
2. Ta`lim muassasasi boshqarishning tamoyillari va vazifalari.
3. Pedagogik kengash - ta`lim muassasasining boshqaruv organi.
4. Ta`lim muassasasida metodik ishlar.
5. Pedagog kadrlar malakasini oshirish va ularni attetatsiyadan o`tkazish.
- 6.Yosh o`qituvchlar bilan ishlash .

Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar:

Boshqarish, rahbarlik qilish, vakolatli tashkilotlar, boshqarish omillari, ichki boshqarish, nazorat qilish, maslahatli boshqarish.

Mavzuga oid muammolar:

Boshqaruv har qanday jamiyatga xos bo`lgan, hayot va turmush zaruratidan kelib chiqadigan faoliyatdir. Boshqaruv jarayonida bir necha uslublar, omillarga tayanib ish ko`riladi. Boshqaruv uslublarini, omillarini o`rganib chiqing. Har bir uslubni tahlil qiling. Sizningcha jamoani qaysi uslubda boshqarish ma`qulroq?

Boshqaruv omillarini o`rganib chiqing. Har bir omilni ahamiyatiga qarab joylashtiring. Ular o`rtasidagi bog`liqlikni tahlil qiling. Jamoani demokratik usulda boshqarishda boshqaruv omillarining o`rni nimada? Javobingizni asoslang.

Boshqaruvning samarali bo`lishi bir necha qoidalarga bog`liq. Bu qoidalar nimalardan iborat bo`lishi mumkin? Ularning ahamiyatini tahlil qiling.

1-asosiy savol bo'yicha darsning maqsadi: xalq ta'limi tizimini boshqarish haqida talabalarga tushuncha beradi. O'zbekistonda xalq ta'limining rivojlanish xususiyatlarini tushuntiradi. Boshqarishga qiziqish hosil qildiradi.

Identiv o'quv maqsadlari:

1. Xalq ta'limi tizimini boshqarishning mohiyatini tushuntiradi.
2. «Ta'lim to'g'risida»gi qonunda xalq ta'limini boshqarish haqidagi moddalarni izohlab beradi.
3. Ta'lim tizimini boshqarishning vakolatli tashkilotlari vazifalarini tahlil qiladi.

1- savol bayoni:

Boshqaruv har qanday jamiyatga xos bo'lgan, hayot va turmush zaruratidan kelib chiqadigan faoliyatdir. Bozor iqtisodi sharoitida bu faoliyat mohiyati yanada takomillasha boradi. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad mehnat aholining moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirish uchun ishlab chiqarishni va shu asnoda barcha ijtimoiy munosabatlarni taraqqiy ettirishdan iborat.

Boshqaruv xalq manfaati ko'zlangan holda demokratik uslub negizida amalga oshiriladi. O'z-o'zidan ravshanki, bunday boshqaruv jarayonida inson omiliga, xususan, millat manfaati va milliy qadriyatlarni takomillashtirishga alohida e'tibor qaratadi. Zotan, jamiyatimiz rivoji uchun boshqaruv hal qiluvchi kuchga ega bo'lmos'h'i lozim.

Ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil qilish, ta'lim tizimini boshqarish O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi qonunida ko'rsatib berilgan. Ular quyidagilardir:

25-modda: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar maxkamasining ta'lim sohasidagi vakolatlariga quyidagilar kiradi:

- ta'lim sohasidagi davlat siyosatini amalga oshirish;
- ta'lim muassasalarini akkreditatsiyadan, pedagog, ilmiy kadrlarni attestatsiyadan o'tkazish tartibini belgilash;
- boshqa davlatlarning ta'lim muassasalariga O'zbekiston Respublikasining hududida ta'lim faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi ruxsatnomalar berish
- qonun hujjatlariga muvofiq xorijiy davlatlarning ta'lim to'g'risidagi hujjatlarini tan olish va bu hujjatlarning ekvivalent ekanligini qayd etish tartibini belgilash;
- davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash;
- davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi ma'lumot to'g'risidagi hujjatlarni tasdiqlash va ularni berish tartibini belgilash;
- davlat grantlari miqdorini va ta'lim muassasalariga qabul qilish tartibini belgilash;
- davlat oliy ta'lim rektorlarini tayinlash;
- ta'lim oluvchilarni akkreditatsiya qilingan bir ta'lim muassasadan boshqasiga o'tkazish tartibini belgilash;

26-modda: Ta'lim boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlarning huquqiy doirasasi.

Ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlarining huquqiy doirasiga quyidagilar kiradi:

- ta`lim sohasida yagona siyosatni ro`yobga chiqarish;
- ta`lim muassasalari faoliyatini muvofiqlashtirish va uslubiy masalalarda rahbarlik qilish;
- davlat ta`lim standartlari, mutaxassislarining bilim saviyasi va kasb tayyorgarligiga bo`lgan talablar bajarilishini ta`minlash;
- davlat ta`lim muassasalarini moliyalash - Respublika va mahalliy byudjetlar mablag'lari, shuningdek, byudjetdan tashqari mablag'lar hisobidan amalga oshiriladi:

32-modda: Ta`limni rivojlantirish fondlari.

Ta`limni rivojlantirish fondlari qonun hujjatlarida belgilangan tartibda yuridik va jismoniy shaxslarning, shu jumladan chet el yuridik shaxslar va jismoniy shaxslarning ixtiyoriy badallari hisobidan tashkil etilishi mumkin. Xalq ta`limi vazirligi O`zbekiston Respublikasi maorifiga bevosita rahbarlik qiladi. U barcha tipdagи maktablar, bog`chalarga rahbarlik qiladi. Oliy va o`rta maxsus ta`lim vazirligi barcha universitetlarga, kasb-hunar kollejlari, litseylarga, bilim yurtlariga rahbarlik qiladi.

Nazorat savollari:

1. Boshqarish va uning jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyatini tushuntirib bering.
2. Ta`limni boshqarish bo`yicha vakolatli davlat organlarining huquqiy doirasiga nimalar kiradi?
3. O`zbekiston Respublikasida ta`lim sohasini boshqaruvchi vakolatli tashkilotlarning vazifalarini yozma ifodalab bering.

2-savol bo`yicha darsning maqsadi: Talabalarga xalq ta`limini boshqarishdagi muhim omillar va maktabni ichki boshqarish haqida tushuncha berish.

Identiv o`quv maqsadlari:

1. Xalq ta`limini boshqarishdagi muhim omillar va maktabni ichki boshqarishning mohiyatini tushuntirib beradi.
2. Xalq ta`limini boshqarishdagi muhim omillarni izohlaydi.
3. Boshqaruvdagi qoidalarni taqqoslaysi.
4. Boshqarishdagi muhim omillar va maktabni ichki boshqarishning mohiyatini sharhlab beradi.

2-savolning bayoni:

Ishlab chiqarishni boshqarish omillari deganda boshqaruv mehnatining maxsus turlarini, boshqariluvchi ob`yektlarga ta`sir ko`rsatishning u yoki bu yo`nalishlarini tushunmoq kerak. *Rejalashtirish, tashkil qilish, sozlash, nazorat qilish, hisob-kitob qilish omillari boshqaruv omillari hisoblanadi.*

Rejalashtirish-boshqariluvchi ob`yektlarni rivojlantirish va modellashtirishni tahlil qilishni ham o`z ichiga oladi. *Tashkil qilish* esa ishlab chiqarish ob`yektining tuzilishini va boshqaruv tuzilishini tanlash hamda shakllantirishdir. *Sozlash-tirishning* turli elementlari o`rtasidagi nisbatni tutib turishga, boshqariluvchi obyekt ishlayotganda reja-topshiriqlardan chetga chiqib ketishga yo`l qo`ymaslikka qaratilgandir. Bundan tashqari, har bir xodimning faoliyatini sozlab borishni ham anglatadi. *Nazorat qilish*-ishlab chiqarishning amaldagi jarayonini rejaga qanchalik

muvofiqligini kuzatib va tekshirib turishda, shuningdek, har bir xodim faoliyatini tekshirishdan iboratdir.

Boshqarishda ijroni tekshirish qoidasi. Bu boshqarishning muhim shartlaridan biridir. Boshqarish tashkilotchilik juda katta ahamiyat kasb etadi. Tashkilotchilik ijro bilan diolektik birlikni tashkil etadi. Ijroni tekshirish yuqori tashkilotlar tomonidan berilgan direktiv topshiriq va hujjalarning qat’iy va so’zsiz bajarilishini ta’minlaydi. Bu esa o’z navbatida, u yoki bu qarorga zarur tuzatishlar kiritish, bundan keyingi vazifalarni aniqlash, maqsadga erishishning shakl, metod va yangi usullarini belgilash imkonini beradi.

Boshqarishning rejallilik qoidasi- boshqarish turidagi qoidalarning eng muhimi hisoblanadi. Shuni alohida ta’kidlash lozimki, maktab boshqaruvida muayyan turi bo’lishi kerak. Buning ma’nosи avvalo shundan iboratki, bu ish tasodifiy bir –biriga aloqasi bo’lmagan tadbirlar yig’indisidan iborat emas.

Maktabda boshqaruv mehnati bilan shug’ullanuvchi kishilar (Maktab direktori uning o’rinbosarlari, tarbiyaviy ishlar tashkilotchisi, uslubiy birlashma rahbarlari, kasaba uyushmasi tashkilotining raisi) boshqaruvchilik jamosini tashkil etadi.

Maktabda boshqarish tizimi asosan ikkiga bo’linadi:

Maktab rahbarlari va o’qituvchilar, tarbiyachilar yoshlar tashkilotchisi, sinf rahbarlari, uslub birlashmalarining a’zolari, texnik xodimlar.

Maktabga o’qituvchi, tarbiyachi va texnik xodimlarni to’g’ri tanlash va ularni joy-joyiga qo’yish maktab ichki boshqaruvidagi muhim masalalardan biridir. Maktab xodimlarini tanlash bobida quyidagi qoidalarga rioya qilish bu borada muhim ahamiyat kasb etadi. **Maktab xodimlarini tanlashda ularning siyosiy bilimini, halolligini, ishini bilishini hisobga olish zarur.** Bu o’rinda ishning ko’zini bilish, ishchanlik, uyushqoqlikni ta’minlash boshqaruv apparati ishidagi asosiy vazifa ekanligini anglash lozim.

Demokratiyalash qoidasi. Xalq ta’limi tirishi va maktabni boshqarishning eng muhim qoidasi- demokratiyalashtirish. Hozirgi mustaqillik davrida jamiyatni yanada demokratlashtirish muhim va dolzarb muammolardan biridir.

Boshqarishning ilmiyligi hozirgi bozor iqtisodi sharoitida ijtimoiy taraqqiyot qonunlarini tabora to’laroq bilib borish bilan belgilanadi.

Boshqarishning jamoatchilik qoidasi va mas’uliyatlar to’g’ri boshqarish va rahbarlik qilishning oliv bosqichidir. Bu qoida boshqarish tizimida salmoqli o’rinni egallashi bilan birga ommaning ijodiy faoliyatini rivojlantirishga yordam beradi.

Nazorat savollari:

Boshqaruv omillarini sanab chiqing.

O’zingiz bilgan maktab direktorining boshqaruvchilik faoliyatini kuzating.

Faoliyatida qanday boshqaruv uslublarini qo’llashini, boshqaruv omillariga asoslanishini tahlil qiling.

Boshqaruv qoidalaring ahamiyatini tahlil qiling.

Mustaqil ish topshiriqlari:

Guruh rahbarining faoliyatini kuzating. Qanday uslubda jamoani boshqarishini tahlil qiling.

O'zingiz o'qigan maktab faoliyatini kuzating. Maktabni ichki boshqarish tirishini tahlil qiling.

Ishlab chiqarishda boshqaruv omillarining ahamiyatini izohlang.

Mavzu bo'yicha ilmiy xulosalar:

1. Boshqarish haqida tushuncha o'rgatish.
2. Ta'lim ishini boshqarishda vakolatli davlat organlarining huquqlari ta'ylim to'g'risidagi qonunga asoslanadi

Mavzu bo'yicha yechimini kutayotgan ilmiy muammolar:

1. Boshqaruvning samarali yo'llarini ko'rsatib beradigan tizim yaratish.
2. Boshqaruv omillaridan foydalanish, qoidalarni qo'llashning tizimiini yaratish.
3. Maktab direktorlari uchun maktabni ichki boshqarish yuzasidan metodik tavsiyalar ishlab chiqish. Maktabda o'z-o'zini boshqarishning nazariy asoslarini yaratish.

Seminar mashg'uloti -15. Korreksion pedagogika asoslari. 4-soat

Reja:

1. Korrekson pedagogikaning asosiy vazifalari .
2. Korrekson pedagogikaning kategoriyalari.
3. Korrekson pedagogikaning paydo bo'lishi, tashkil topishi va rivojlanishi.

O'quv mashg'ulotining maqsad: Korretsion pedagogikaning asosiy vazifalarini tushuntirish. Korretsion pedagogikaning kategoriyalari haqida ma'lumot berish. Korrekson pedagogikaning paydo bo'lishi, tashkil topishi va rivojlanishi. o`rganiladi.

O'quv faoliyatining natijalari: Korretsion pedagogikaning asosiy vazifalarini haqida so`zlab beradi.

Korretsion pedagogikaning kategoriyalari haqida ma'lumot o`rganiladi.

Mavzu yuzasidan savollar:

- Maxsus pedagogika haqida ma'lumot bering?
- Aqliy zaiflik darajalarini ayting?
- O'zbekiston Respublikasida rivojlanishida nuqsoni bor bo`lgan bolalarga qanday imkoniyatlar yartilmoqda ?

Taqdimotni baholash mezonlari:

- 1.Talabaning mimikasi va pontomimikasiga -1
2. Mantiqan bog'langanligi va izchilligi, nutqning ravonligi – 2
3. Ko'rgazmalilik va reglament - 2
4. Jami: eng yuqori baho: 5 baho

**IV- SEMISTR
SEMINAR MASHG'ULOTI MATERIALLARI**

Seminar mashg'uloti -1. Eng qadimgi yozma yodgorliklarda ta'lim-tarbiya masalalari.Hadis ilmi va uning tarbiyaviy ahamiyati.

Reja:

1. Xalq pedagogikasi mazmuni va tarbiya metodlari tizimi.
2. O'rxun-Enasoy obida-larinining tarbiyaviy ahamiyati.
3. "Avesto"da ta'limiy-axloqiy masalalar.
4. Hadis ilmining paydo bo'lishi va muhaddislarning hadis ilmining yaratilishdagi xizmatlari.
5. Al-Buxoriyning "Al-adab al-mufrad" va "As-sahih" asarlari hamda ularning mazmuni.
6. Hadislarning ta'lim-tarbiya uslublari.
7. Imam at-Termiziyning hadis ilmini rivojlantirishdagi xizmatlari. Hadislarning tarbiya-viy ahamiyati.

O`quv mashg`ulotining maqsad: Biz pedagogika tarixi fanini o`rganish va tahlil qilishda: qadimgi yozuvlar, bitiklar, qo`lyozma yodgorliklari, sharq mutafakkirlarining ilmiy – ma`naviy me`rosi, xalq og`zaki ijodi, muqaddas kitoblar, pandnomalar, dasturlar, o`quv qullanmalari va darsliklar, xalq maorifi masalalariga oid materiallar orqali o`rganadilar.

O`quv faoliyatining natijalari: Eng qadimgi yozma yodgorliklardagi ta'lim-tarbiya haqida so`zlab beradi.

Hadis ilmining paydo bo'lishi va ularga hissa qo'shgan muhaddis olimlar haqida ma`lumot o`rganiladi.

Mavzu yuzasidan savollar:

- Ibtidoiy odamlar hayotida tarbiyaning o`ziga xosligi nimalarda namoyon bo`ladi?
- Qadimgi yozuvlar va ularning kelib chiqishi haqida nimalarni bilasiz?

- Halq og'zaki ijodida insondagi qaysi xislatlar ulug'langan?
- Hadis ilmining tarbiyaviy ahamiyati haqida nimalarni bilasiz?

Taqdimotni baholash mezonlari:

- 1.Talabaning mimikasi va pontomimikasiga -1
2. Mantiqan bog`langanligi va izchilligi, nutqning ravonligi – 2
3. Ko`rgazmalilik va reglament - 2
4. Jami: eng yuqori baho: 5 baho

Eramizdan avvalgi birinchi ming yillikda Baqtriya, Xorazm, So'g'diyona, Marg'iyona, Parfiya hamda Parkana kabi davlatlarida turli qabila va elatlar yashagan. Ular saklar, massagetlar, so'g'diyonalar, xorazmiylar, boxtarlar, chochliklar, parkanaliklar kabi qabila va urug'lardan iborat bo'lib, hozirgi Markaziy Osiyo hududida yashovchi xalqlarning ajdodlari hisoblanadilar.

Ushbu elatlar yashagan hududlarda o'ziga xos madaniy an'analar tarkib topa borgan. Masalan, eramizdan oldingi asrning birinchi yarmida qadimiylar davlatlar: Baqtriya va So'g'diyona, Marg'iyona, Xorazm, Parkana, Parfiya kabi o'lkalarda xalq xo'jaligining turli sohalarida rivojlanish va taraqqiyot ro'y bergan. Eramizdan oldingi IX-VI asrlarda paydo bo'lgan Ahmoniyalar, eramizdan avvalgi III asr o'rtalarida tashkil topgan Grek-Baqtriya, eramizning I asrida tashkil topgan Kushonlar, eramizning V asrda yuzaga kelgan Eftalitlar, so'ngra Sosoniylar va nihoyat Turk hoqonligi davlatlarida ijtimoiy madaniyat yuksala bordi.

Ajdolarimiz tomonidan qo'lga kiritilgan qadimiylar tarkibidan ta'lim-tarbiyaga oid merosi ham alohida o'rinni olgan. Zero, hozirgi turkiy va forsiyzabon xalqlarning bizgacha yetib kelgan muhim arxeologik topilmalari, tarixchilar, adabiyot va san'at namoyandalarining ijodiy merosi, san'at va adabiy asarlarning namunalari buning dalilidir.

Bunday muhim manbalar sirasiga yunon olimlari Gerodot, Suqrot, Plutarx, Polienlarning tarixiy, geografik hamda axloqiy asarlari, allomalarimiz Abu Rayhon Beruniy, Mahmud Qoshg'ariy, faylasuf, sharqshunos va tarixchi olimlar: Ye.E.Bertel'ss, S.P.Tolstov, V.V.Braginskiy, I.M.Mo'minov, B.G'afurov, I.V.Stebleva, A.O.Makovel'skiy, Y. Jumaboev, M.Ishoqov, adabiyotshunoslar A.Qayumov, N. Mallaev, N.Rahmonov, pedagog-olimlar O'.Aleuov, M.Orifiy va boshqalar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar kiradi.

Eng qadimgi tarbiya haqidagi yodgorliklar bizgacha bevosita yetib kelmagan. Turkiy va forsiyzabon xalqlarning hayot kechirish san'ati, donolik majmuasi sifatida yuzaga kelib, borliqqa amaliy munosabatda bo'lishning namunasi tarzida e'tirof etilgan ma'naviy madaniyat yodgorliklari qadimgi grek tarixchisi Gerodotning "Tarix", Strabonning "Geografiya" hamda Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'atit-turk" kabi asarlari, shuningdek, Urxon-Enisey bitiklari kabi adabiy-tarixiy manbalarda saqlangan va ular orqali bizgacha yetib kelgan. Ushbu yodgorliklar mohiyatini o'rganish insonning shakllanishida moddiy va ma'naviy madaniyat qay darajada katta rol o'ynaganligidan dalolat beradi. Xususan, tarbiya insonning aqliy va axloqiy jihatdan tarkib topa borishiga ta'sir etgan bo'lsa, insonning shakllana borishi ham o'z navbatida kishilik jamiyatining qaror topa borishiga yordam bergen. Xullas, tafakkur yurita olish qobiliyatiga ega

bo'lgan inson kamolotining ta'minlanish jarayoni hamda jamiyatning ijtimoiy taraqqiyoti o'zaro uzviy aloqada shakllangan.

Hadislarning mazmuni va tarbiyaviy ahamiyati

Hadislarda insonning kamolotga erishishi учун talab etiladigan insoniy fazilatlar ifoda etilgan bo'lib, ushbu fazilatlar sirasiga o'zgalarga mehr-oqibat ko'rsatish, saxiylik, очиқ ko'ngillik, ota-on, kattalar va qarindoshlarga nisbatan muruvvatli bo'lish, ularga g'amxo'rlik qilish, vatanga muhabbat, mehnat va kasbhunarni ulug'lash, halollik, poklik, do'stlik, olivjanoblik, rahm-shafqatlilik, kamtarlik, rostgo'ylik va vijdonlilik kabi xislatlar kiritiladi. Bundan tashqari, insonning o'zini yomon illatlardan tiyishi, yaxshilik sari intilishi kerakligi borasidagi pand-nasihatlar ham o'z aksini topganki, bularning барчasi Qur'oni Karimda qayd etilgan ko'rsatmalarga asoslanilgan va komil insonni shakllantirishda asosiy mezon bo'lib xizmat qiladi.

Islom ta'limoti g'oyalariga ko'ra har bir musulmon eng avvalo iymonli bo'lishi kerak. Qur'oni Karimda ta'kidlanganidek, Islom dini ta'limotining yaratilishidan muddao, murod kishilarda iymon, e'tiqodni shakllantirishdir. Hadislarda iymonning mukammal va mustahkam bo'lishi quyidagi уч shartga qat'iy amal qilinishiga bog'liqligi ko'rsatilgan:

- to'g'ri e'tiqodli bo'lmoq;
- kishilar bilan yaxshi munosabatda bo'lmoq;
- kishi o'z ustida ishlamog'i va o'zini ibodat va itoatga чаqirmog'i (Keyingi misollar ham ushbu kitobdan olindi).

Hadislarda inson ma'naviy kamolotining mezoni, uning tafakkur doirasi, dunyoqarashining kengligi, ilmiy bilimlarni qay darajada egallaganligi, o'z bilimi bilan atrofdagilar va jamiyatga foyda keltirguvchi shaxs bo'lib yetishishida muhim omildir deya ko'rsatiladi.

1-keys topshirig'i. Quyida berilgan mavzularga mos hadislarni toping va mazmunini yoritib bering.

- 1) ona-onani e'zozlash;
- 2) yetim-esirlar, ehtiyojmand kishilarga yordam ko'rsatish;
- 3) nafsni tiyish;
- 4) halollik, poklik, rostgo'ylik;
- 5) sabr-bardoshlilik, chidamlilik;
- 6) oilaparvarlik;
- 7) bunyodkorlik.

Nazorat savollari:

1. Ibtidoiy odamlar hayotida tarbiyaning o'ziga xosligi nimalarda namoyon bo'ladi?
2. Qadimgi yozuvlar va ularning kelib chiqishi haqida nimalarni bilasiz?
3. Halq og'zaki ijodida insondagi qaysi xislatlar ulug'langan? keltiring.
4. "Avesto"dagi axloqiy uchlik jadvalini tuzing.
5. Qadimgi turkiy bitiglarda ulug'langan xislatlarni yozib chiqing va mazmunini izohlang.
3. Hadis ilmida qaysi davr "Oltin davr" deb nom oldi.

4. “Hadim” va “Sunna” tushunchalarining mazmunini so’zlab bering.

Mustaqil ish topshiriqlari:

1. Eng qadimgi davrlarda ta’lim-tarbiya mazmuni qanday bo’lganini tavsiflang.
2. Qadimgi turkiy xalqlar yodgorliklarida tarbiyaga doir fikrlar.
3. Halq og’zaki ijodida insondagi qaysi xislatlar ulug’langan?
4. Hadis ilmining paydo bo’lishi va hadisshunos olimlarni o’rganish?

Mavzu bo'yicha ilmiy xulosalar:

- 1.Talabalar eng qadimgi yozma manbalardagi ta’ilm-tarbiya oid fikrlarni mazmun mohiyatini izohlashi.
- 2.Hadis ilmining paydo bo’lishi va hadisshunos olimlarning ilmiy ijodini o’rganish.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Hoshimov K., Nishonova S., Inomova M., Hasanov R. Pedagogika tarixi. – T.: O’qituvchi, 1996..
2. Hoshimov K., Safo Ochil. O’zbek pedagogikasi antologiyasi. – T.: O’qituvchi, 2010.
3. Niyozov G., Axmedova M. Pedagogika tarixidan seminar mashg’ulotlari. – T.: NOSHIR, 2011.

Seminar mashg’uloti -2. Abu Nasr Forobiy va Abu Ali ibn Sino ning pedagogik g’oyalari.

Reja:

1. Forobiyning hayoti va ijodi.
2. Forobiy fanlar tasnifi va aqliy tarbiya haqida.
3. Forobiyning komil insonni shakllantirishga oid qarashlari.
4. Ibn Sinoning hayoti va ijodi.
5. Ibn Sinoning aqliy, jismoniy va mehnat tarbiyasiga dior qarashlari.
6. Abu Ali ibn Sino-ning sog’lom turmush

O’quv mashg’ulotining maqsad: O’rta asr ijtimoiy – falsafiy fikr taraqqiyoti mutafakkir Abu Nasr Forobiy va Abu Ali Ibn Sino nomi bilan bog’liq bo’lib, uning inson kamoloti haqidagi ta’imoti ta’lim – tarbiya sohasida qo’shgan katta hissasi haqida tushunchalar berish.

Biz pedagogika tarixi fanini o’rganish va tahlil qilishda: qadimgi yozuvlar, bitiklar, qo’lyozma yodgorliklari, sharq mutafakkirlarining ilmiy – ma’naviy me’rosi, xalq og’zaki ijodi, muqaddas kitoblar, pandnomalar, dasturlar, o’quv qullanmalari va darsliklar, xalq maorifi masalalariga oid materiallar orqali o’rganadilar.

O’quv faoliyatining natijalari: Eng qadimgi yozma yodgorliklardagi ta’lim-tarbiya haqida so`zlab beradi.

Hadis ilmining paydo bo’lishi va ularga hissa qo’shgan muhaddis olimlar haqida ma’lumot o’rganiladi.

Mavzu yuzasidan savollar:

- Abu Nasr Forobiy yashagan davrda ijtimoiy tuzum qanday edi.
- Abu Nasr Forobiy fanlar tasnivi haqida.
- Abu Nasr Forobiyning ta’lim – tarbiyaga oid qanday asarlarini bilasiz?
- Ibn Sinoning hayoti va siyosiy ijtimoiy tuzum.
- Ibn Sinoning ta’lim va tarbiya usullari, shakl va metodlarini izohlab bering.
- Ibn Sino oilada bola tarbiyasi haqida qanday fikrlarni ilgari surgan.

Taqdimotni baholash mezonlari:

- 1.Talabaning mimikasi va pontomimikasiga -1
2. Mantiqan bog`langanligi va izchilligi, nutqning ravonligi – 2
3. Ko`rgazmalilik va reglament - 2
4. Jami: eng yuqori baho: 5 baho

Abu Nasr Forobiy (to’liq nomi Abu Nasr Muhammad ibn Muhammad ibn Uzaliq ibn Tarxon al-Forobiy) hijriy 260 yil (milodiy 873 yil)da SHosh – Toshkentga yaqin Forob (O’tror) degan joyda harbiy hizmatchi oilasida tug’ilgan. Forobda boshlang’ich ta’limni olgach, SHoshda, Buxoroda, Samarqanda ta’lim olganligi haqida ma’lumotlar bor. Lekin arab xalifaligining yirik madaniy markazi Bag’dodga xalifalikning turli tomonlaridan kelgan olimlar yig'ilganligi, uning yirik ilmiy markazga aylanganligi tuyfayli Forobiy ham ilm olish istagida Bag’dodga jo’naydi. Bag’dodda Forobiy o’rtta asr fanini, turli fan sohalarini o’rganadi. Masalan, unga Yunon tilida Abu Bashar Matta (Matta ibn Yunus), tibbiyat va mantiqdan Yuxanna ibn Haylon (Jilon) ta’lim bergen. Umuman, Forobiy Bag’doda matematika, mantiq, tibbiyat, ilmi nujum, musiqa, tabiiyat, huquq, tilshunoslik, poetika bilan shug’ullanadi, turli tillarni o’rgandi. Ba’zi manbalarda Forobiy 70 dan oshiq tilni bilganligi haqida gapiriladi.

Abu nasr Forobiy qomusiy olim hisoblanadi. Tadqiqotchilar uning 160 dan ortiq ilmiy asarlar yaratganligini qayd etadilar.

Forobiy tahminan 941 yillardan boshlab Damashqda yashaydi. SHahar chekkasidagi bog’da qorovul bo’lib ishlaydi va faqirona hayot kechirib, ilmiy ish bilan shug’ullanadi. 943-967 yillarda esa Halabda yashaydi. 949-950 yillarida Misrda ham bo’lgan. So’ng yana Damashqga qaytib, shu yerda 950 yilda vafot etgan. Damashqdagi “Bob as – sag’ir” qabristoniga dafn qilingan. Rivoyatlarga ko’ra Abu Nasrning hikmat falsafani o’qishiga bir kishi sabab bo’lgan ekan. O’sha kishi unga Arastuning bir necha kitobini, shu yerda tura tursin, keyin olib ketaman deb qo’yib ketgani sabab bo’lgan, deyishadi. Ittifoqo, kitoblarga ko’zi tushib, ularning Abu Nasrning ko’ngliga ma’qul bo’lib qoladi va o’qishga kirishadi natijada yetuk faylusufga aylanadi. Haqiqatdan ham Abu Nasr Forobiy o’rtta asr davri ilm – fani taraqqiyotiga katta hissa qo’shgan olim, Forobiy tabiiy, ilmiy va ijtimoiy bilimlarning barcha sohalarida ilmiy ish olib borgan. Forobiy o’zidan

keyin juda boy ilmiy meros qoldirgan. Falsafa, musiqa, filologiya va boshqa tabiiy, ilmiy bilimlarning turli sohalarida asarlar yaratgan. Demak, Forobiy inson baxt – saodatga erishuvi uchun ularni baxtli – saodatli qila oladigan jamoa rahbari bo'lishi kerak deydi. U fozil shaharni boshqaradigan Hokim tabiatdan: 1 – sog' – salomat bo'lib, o'z vazifasini bajarishda hech qanday qiyinchilik sezmaligi; 2 – tabiat nozik, farosatli; 3 – xotirasi mustahkam, 4 – zehni o'tkir, 5 – o'z fikrini tushuntira oladigan notiq, 6 – bilim-ma'rifikatga havasli, 7 – taom yeyishda, ichimlikda, ayollarga yaqinlik qilishda ochofat emas, aksincha, o'zini tiya oladiga bo'lishi (qimor yoki boshqa o'yinlardan) zavq, huzur olishdan uzoq bo'lishi, 8 - haq va haqiqatni, odil va haqgo'y odamlarni sevadigan, yolg'oni va yelg'onchilarni yomon ko'radigan, 9 – o'z qadrini biluvchi va oriyatlari bo'lishi, 10 – mol dunyo ketidan quvmaydigan, 11 – adolatparvar, 12 – qatiyatli, sabotli, jur'atli, jasur bo'lishi muhimligini qayd etadi. Forobiy bu fazilatlarni har bir yetuk insonda ko'rishni istaydi.

Abu Ali ibn Sino 980 yilda Buxoro yaqinidagi Afshona qishlog'ida kichik amaldor oilasida tug'iladi. Uning to'la ismi Abu Ali al-Husayn ibn Abdulloh ibn al-Hasan ibn Ali ibn Sinodir. Abu Ali uning kuniyasidir. Oti Husan, otasining ismi Abdulloh edi. Keyinroq uning oilasi Buxoroga ko'chib o'tgach, u boshlang'ich maktabda o'qiy boshlaydi. Ibn Sinoning mutolasi zo'r, mehnatsevar edi. Undagi tug'ma qobiliyat, o'tkir zehn, kuchli xotira o'zaro birikib ketgan edi. Ibn Sinoning otasi Abdulloh hamda uning do'stlari bilimdon kishilar bo'lib, ularning ilmiy munozaralari o'tadigan oilaviy muhit yosh ibn Sinoga ham ta'sir etadi. SHu bilan birga uning bolalik va o'smirlig yillari o'tgan Buxoro shahri somoniylar davrining yirik madaniy markazi bo'lib hisoblanar edi. Buxoroda ko'plab maktab, madrasa, kasalxonalar va nodir kitoblar saqlanadigan kutubxona bo'lган. Jahonning turli mamlakatlaridan kelgan olimlarning ilmiy munozaralarida yosh ibn Sino ham qatnashib, turli fanlarga oid bilimlarini chuqurlashtirib borgan. U ustozlaridan hind hisobi, fiqh dan bilim olgan. Keyin esa faylasuf Abu Abdulloh Notiliydan falsafa, mantiq, handasa va boshqa fanlardan ta'lim oladi. SHundan so'ng ibn Sino o'zi mustaqil holda barcha fanlar bilan shug'ullana boshlaydi. U ayniqsa tib ilmini chuqur egallab oladi, bu sohada unga ta'lim bergen kishi buxorolik Abu Mansur Kamariy bo'ldi. Ibn Sino so'ngra falsafani o'rganishga kirishadi. Ayniqsa, Aristotel falsafasini, uning "Metafizika" asari mohiyatini buyuk mutafakkir Abu Nasr Forobiyning yozgan sharhi tufayli to'liq o'zlashtirib oladi.

IX asr oxiri – X asr boshlariga kelib, o'lkada siyosiy-ijtimoiy vaziyat murakkablashdi. SHu tufayli ibn Sino Xorazmga – Urganchga ko'chib o'tadi. Xorazmda u bir qator olimlar bilan hamkorlikda Abu Rayhon Beruniy boshqarayotgan "Ma'mun akademiyasi"da ilmiy ish bilan shug'ullana boshlaydi. Xorazmda o'zining yirik asarlari – "Tib qonunlari", "Ash-SHifo" kitoblari ustida ish olib boradi.

2-keys topshirig'i. “Fozil odamlar shahri”ga xayoliy ekskursiya uyushtiring, Ekskursiya davomida quyidagi jihatlarni o’rganishga e’tibor qarating:

1. SHahar atrofi va ko’rinishi.
2. SHaharning tozaligi va ozodaligi.
3. SHahar odamlarining kiyinishi va o’zini tutishi.
4. SHahar odamlarining bir-birlariga munosabati.
5. SHahar odamlarida mavjud fazilatlar majmui.

Nazorat savollari:

1. Beruniyning fazil insonni shakllantirishga oid qarashlarining hozirgi davrdagi ahamiyatini izohlang.
2. Beruniyning axloqiy, aqliy, nafosat tarbiyasi haqidagi fikrlarini izohlang.
3. Beruniy ilmiy merosi va uning fanlar taraqqiyotida tutgan o’rni.
4. Ibn Sinoning hayoti va siyosiy ijtimoiy tuzum.
5. Ibn Sinoning ta’lim va tarbiya usullari, shakl va metodlarini izohlab bering.
6. Ibn Sino oilada bola tarbiyasi haqida qanday fikrlarni ilgari surgan.

Mustaqil ish topshiriqlari:

1. Abu Ali ibn Sinoning “Tadbiri al-manozil” asarining oilada bola tarbiyasi bag’ishlangan bo’limini o’rganish va tahlil qilish.
2. Abu Ali ibn Sinoning pedagogik qarashlarini o’rganish
3. Abu Nasr Forobiyning “Fozil odamlar shahri” T., 1993 y. kitobini o’qish va tahlil qilish.

Mavzu bo'yicha ilmiy xulosalar:

1. Abu Ali IbnSinoning peagogik ta’ilm-tarbiyaga oid qarashlarini o’rganish.
2. Abu Nasr Forobiyning “Fozil odamlar shahri” kitobini o’qib tahlil qilish.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Hoshimov K., Nishonova S., Inomova M., Hasanov R. Pedagogika tarixi. – T.: O’qituvchi, 1996..
2. Hoshimov K., Safo Ochil. O’zbek pedagogikasi antologiyasi. – T.: O’qituvchi, 2010.
3. Niyozov G., Axmedova M. Pedagogika tarixidan seminar mashg’ulotlari. – T.: NOSHIR, 2011.
4. Abu Nasr Forobi. Fozil odamlar shahri. –T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993.
5. Iskandarov B. O’rta Osiyoda falsafiy va ijtimoiy-ciyosiy fikrning shakllanishi va rivojlanishi tarixidan lavhalar. – T.: O’zbekiston, 1993.

Seminar mashg’uloti -3. Yusuf Xos Hojib, Mahmud Qoshg’ariy va Ahmad Yugnakiyning ta’limiy-axloqiy qarashlari.

Reja:

1. Yusuf Xos Hojib, Mahmud Qoshg’ariy va Ahmad Yugnakiyning axloqiy qarashlari.

2. Yusuf Xos Hojib va Ahmad Yugnakiy bilimning foydasi va nodonlikning ziyyoni haqida.

3. Yusuf Xos Hojib va Mahmud Qoshg'ariy so'zlashuv odobi haqida.

4. Yusuf Xos Hojibning qizlar tarbiyasi to'g'risidagi fikrlari.

O'quv mashg'ulotining maqsad: Ma'lumki, SHarq Uyg'onish davrida ma'naviy-ma'rifiy sohada asosiy masala inson muammosi bo'lgan. SHuning uchun ham ta'lim-tarbiya masalalariga katta e'tibor berilgan. Yusuf Xos Hojib, Mahmud Qoshg'ariy va Ahmad Yugnakiyning didaktik asarlarda SHarqqa xos bo'lgan insonning axloqiy, ruhiy kamoloti, oliy darajadagi yuksalish muammosi yetakchi g'oya bo'lganligi ushbu g'oyalarni o'quvchi yoshlar ongiga singdirishdir.

O'quv faoliyatining natijalari: Mutafakkir olimlarimizning pedagogik qarashlarini to'llaqonli mazmunini ochib berishga xizmat qiladi.

Mutafakkir olimlarimizni ilmiy ijodlari va pedagogik qarashlarini o'rganib boradilar.

Mavzu yuzasidan savollar:

- Yusuf Xos Hojibning, ma'rifatli kishilar haqidagi qarashlarini tavsiflang?
- Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asarida inson kamoloti masalasi nima uchun markaziy masala bo'lib hisoblanadi?
- Mahmud Qoshg'ariy o'z asarlarida inson tarbiyasi haqidagi fikrlarini izohlang?
- Ahmad Yugnakiy ta'lim – tarbiyaga oid qanday asarlarini bilasiz?
- Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asari kabi Ahmad Yugnakiyning "Hibat ul-haqoyiq" asari ham nima uchun ulug'lanadi?

Taqdimotni baholash mezonlari:

- 1.Talabaning mimikasi va pontomimikasiga -1
2. Mantiqan bog'langanligi va izchilligi, nutqning ravonligi – 2
3. Ko'rgazmalilik va reglament - 2
4. Jami: eng yuqori baho: 5 baho

Yusuf Xos Hojibning hayoti va faoliyati. "Qutadg'u bilig"ning yaratilishi haqida qisqacha ma'lumot.

Tadqiqotchilarning fikrlariga ko'ra Yusuf Xos Hojibning tarjimai holini faqat uning o'z asarida yozib qoldirgan ma'lumotlardan bilamiz, xolos:

Mo'nuqi tarug'laq Qo'z o'rdu eli,
Tub—asli nasabdin yurishish tili
Bu tug'mish elindin chiqib borgoni,
Kitobni qo'shubon tugal qilg'oni.
Barusin bitimish, yeturmish nizom,
Bu Qoshg'ar elinda qo'shulmish tamom.
Qo'z o'rdu o'liasi aslida eli,
Tub asli nasabdan so'z ochdi tili,
Tug'ilgan elidan chiqib borgani
Kitobni jam etib tugal qilgani.
Borini bitibdir ne esa kalom,

Bu Qashqar elida tugadi tamom.

Yuqoridagi misralardan Yusuf Xos Hojibning tug'ilgan joyi Qo'z O'rdu (ya'ni Bolasog'un) ekanini, ammo uni yozishda turli o'lkalarga safar qilgani, va nihoyat uni vatani Qashqarda tugatgani taxmin qilinadi.

Demak, Yusuf Xos Hojib Bolasog'unda tug'ilgan, o'z asarini yoshi ellikdan o'tganda yozgan. Asarning hijriy 462 (1069—1070) yozib tugallanganligi, uni o'n sakkiz oyda, ya'ni 461 yilning birinchi yarmida boshlab, 462 yilning o'rtalarida tugatganligi, agar bu davrda Yusuf Xos Hojib 50 yoshlar atrofida bo'lsa, 410 (1019 milodiy) yillarda tug'ilganligi taxmin etiladi.

Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asari 6500 baytdan yoki 13000 misradan iborat. Buyuk mutafakkir asarni yozib tugatgach, qoraxoniylar hukmdori Tavg'achxon (kitobda Tavg'och Ulug' Bug'ra Qoraxon (xoqon), Abo Ali Hasan binni Sulaymon Arslon Qoraxon (xoqon) nomlari bilan zikr etilgan) huzuriga kelib, unga taqdim etadi. Kitob xonga manzur bo'lib, uning muallifiga Xos Hojiblik unvonini beradi. "Qutadg'u bilig" asari katta shuhrat qozonadi. SHuning uchun ham "Qutadg'u bilig"ni chinliklar (Xitoy) "Adab ul-muluk" ("Hukmdorlar odobi"), mochinliklar (SHarqiy Turkiston) "Anis ul-mamolik" ("Mamlakatning tartib usuli"), eronliklar "SHohnomai turkiy", SHarq elida "Ziynal ul-umaro" ("Amirlar ziynati"), turonliklar "Qutadg'u bilig", ba'zilar esa "Pandnomai muluk" ("Hukmdorlar nasihatnomasi") deb atagani kitob muqaddimasida keltiriladi.

Mazkur asarning shuhrat topishi bejiz emas edi. CHunki Yusuf Xos Hojib o'z davrining yetuk mutafakkiri, chuqur bilimli, donishmand kishisi edi. Buni asarning mundarijasi va mazmunidan bilsak bo'ladi. U o'z asarida tibbiyot, falakiyat, tarix, tabiiyat, geografiya, riyaziyat, handasa, falsafa, adabiyot, ta'lim-tarbiya, fiqhga oid fikrlarni bayon etib, faylasuf va qomusiy olim sifatida o'zini namoyon etdi. CHunonchi u barcha ijtimoiy tabaqalar o'rtasidagi muomala, munosabatlarni yoritish bilan diplomatiyaga oid qoidalar tizimini yaratdi, turli kasb egalarining kasb koriga oid talablar va jamiyatning axloqiy tamoyillarini tarannum etish bilan ta'lim-tarbiya sohasida o'ziga xos uslubni yaratdi.

Qutadg'u bilig — baxt va saodatga eltiuvchi bilim, ta'lim degan ma'noni bildiradi. Demak, asar nomidan ham uning pand-nasihatlar, ta'lim-tarbiyaga oid, har tomonlama komil insonni tarbiyalaydigan yetuk didaktik asar ekanligi yaqqol ko'rinish turibdi.

"Qutadg'u bilig"ning tadqiqotchilaridan biri B.To'xliev ta'kidlaganidek, Yusuf Xos Hojib "Komil inson haqida gapirar ekan, kamolotning qator belgilarini ko'rsatib o'tadi. Ularning eng asosiysi alohida shaxsning o'z manfaatlari, shaxsiy istaklari doirasini yorib chiqib, boshqalar g'ami bilan yashashi, ko'pchilik manfaati uchun fidoyi bo'la bilişdir".

Hozirgacha "Qutadg'u bilig"ning Hirot, Qohira, Namangan nusxalari ma'lum bo'lib, Venaga keltirilgan Hirot nusxasini Herman Vamberi nashr qildi va tarjimasini berdi.

1890 yilda V.V.Radlov Vena nusxasini faksimilesini, 1891 yilda shu faksimile asosida matnini nashr qildiradi.

1896 yilda Qohira nusxasi topilgandan so'ng, undan ko'chirma olgach,

V.Radlov har ikki nusxasini qiyoslab, 1910 yilda rus grafikasiga asoslangan to’liq transkriptsiyasini nemis tiliga tarjimasi bilan nashr ettirdi.

1913 yilda esa uning uchinchi nusxasi Namanganda topilib, keyinchalik olimlar bu asarni tadqiq etishga kirishdilar.

Demak, Yusuf Xos Hojibning “Qutadg’u bilig” asarini ilmiy jihatdan o’rganishga juda ko’p olimlar hissa qo’shgan. V.V.Radlov, H.Vamberi, S.E.Malovlar uni tarjima etib, nashr qilgan bo’lsalar, V.V.Bartoləd, Ye.E.Berteləs, I.V.Stebleva, O.A.Valitovalar har tomonlama tadqiq etdilar.

Asarning mukammal nashrini tayyorlashda hamda uni tadqiq etishda o’zbek olimlarining xizmati ayniqsa diqqatga sazovor.

Birinchi bo’lib professor Fitrat 1924 yilda Namangan nusxasini olib, kutubxonaga keltiradi va u haqda maqola e’lon qiladi.

“Qutadg’u bilig”ning mukammal nashri o’zbek olimi Q.Karimov tomonidan amalga oshirildi va tadqiq etildi. Uni tahlil etishda S.M.Mutalliboev, N.M.Mallaevlarning xizmati katta.

“Qutadg’u bilig”ning hozirgi o’zbek tilidagi bolalarbop bayoni esa Boqijon To’xliev tomonidan nashr etildi. Yusuf Xos Hojibning axloqiy didaktikasi Q.Karimov, Y.Jumaboev tomonidan har tomonlama tadqiq etildi. Yuqorida fikrlardan ko’riniб turibdiki, буюк alloma mamlakatnинг ijtimoiy-siyosiy va moddiy, ma’naviy yuksalishida, elu xalqning boy va farovon turmushi-barchasi ilm va ma’rifatning ravnaqiga bog’liq ekanligini to’g’ri va ishonarli dalillar bilan badiiy ifodasini bera olgan va o’zi ham ana shu ezgu ishni amalga oshirish uchun tinmay faoliyat ko’rsatgan.

Ahmad Yugnakiy “Hibat ul-haqoyiq”.

Qoraxoniylar hukmronligi davrida yaratilgan ta’limiy-ahloqiy asarlardan yana biri Ahmad Yugnakiyning “Hibat-ul-haqoyiq” (“Haqiqatlar armug’oni”) asaridir. Asar mazmunini ham mazkur davrning ijtimoiy-siyosiy, diniy, axloqiy hamda iqtisodiy masalalar, ularning o’ziga xos xususiyatlari, shuningdek, kishilar o’rtasidagi ijtimoiy munosabatlar mohiyati borasidagi qarashlar tashkil etadi.

“Hibat ul-haqoyiq” asari To’g’rul qilich Sipohsolorbekning nomiga atab yozilgan. Asarning yozilgan vaqt taxminan XII asr boshlariga to’g’ri kelishi alohida ta’kidlanadi.

Ahmad Yugnakiyning hayoti va faoliyati borasida ma’lumot beruvchi manbalar juda kam. Mavjud ma’lumotlar ham asar mazmunidan keltirilgan dalillardangina iborat.

Alloma “Hibat ul-haqoyiq” asarining so’ngida o’zi haqida quyidagi ma’lumotlarni bayon etadi:

Adib Ahmad otim, adab, pand so’zim,
So’zum munda qolur, borur bo’ o’zim.

Adibning yeri oti Yugnak erur,
Safoliq ajab yer ko’ngullar yorur.

Otasi oti Mahmud Yugnakiy,
Adib Ahmad o’g’li, yo’q ul hech shakli.

Yuqorida keltirilgan misralar mazmunidan “Hibat ul-haqoyiq” asarining muallifi Ahmad, otasining ismi Mahmud ekanligi, shuningdek, adib Yugnak nomli

maskanda tavallud topganligi anglanadi. “Yugnak” nomli manzil (shahar yoki qishloq)ning qaerda joylashganligi to’g’risida aniq ma’lumotga ega emasmiz. Bu xususida Ahmad Yugnakiy va uning asari mohiyati yuzasidan tadqiqotlar olib borgan olimlar bir qator fikrlarni ilgari suradilar. CHunonchi, Ye.E.Bertel’sning fikricha, ushbu maskan Farg’ona vodiysida mavjud bo’lgan bo’lsa, V.V.Bartol’dning nuqtai nazariga ko’ra, bu manzil Samarqand viloyati hududlarida joylashgan tumanlardan biriga tegishlidir.

Ahmad Yugnakiyning “Hibat ul-haqoyiq” asari yuzasidan tadqiqot olib borgan hamda mazkur asarni nashrga tayyorlagan olim Q.Mahmudov tarixiy manbalar, xususan, Ibn Xavqal va Arat Rahmatiy Ibnul Yaqub tomonidan yaratilgan asarlarda bayon etilgan fikrlarga tayangan holda “Yugnak” so’zi qadimda “Arnoq”, “Arnak” kabi shakllarda ham yozilganligi, Arnoq va Arnak nomli maskan Samarqand shahri yaqinida joylashgan bir qatorda qayd etilganligini ishonch bilan ta’kidlaydi.

Bizga qadar asarning beshta nusxasi yetib kelgan. Ulardan uchtasi to’liq holda saqlanib qolgan bo’lsa, qolgan ikki nusxasida esa ayrim parchalargina saqlangan. Asarning to’liq holda saqlangan nusxalari XY va XIY asrlarda Hirot va Istanbul shaharlarida Abdurazzoq Baxshi tomonidan ko’chirilgan. Asarning Istanbul nusxasida ko’chirilgan sana sifatida 1480 yil qayd etilgan. Ayni vaqtida asarning to’liq nusxalari Turkiya davlatida joylashgan kutubxonalarda, to’liq bo’lmagan nusxasi esa Berlin shahrining kutubxonalaridan birida saqlanadi.

3-keys topshirig’i. Yusuf Xos Xojibga “Xos Xojiblik” unvoni nimauchni beriladi izoh bering:

- 1.“Qutadg’u bilig” asarini yozilishi.
- 2.Ysuf Xos Xojib saroy ayyonlaridan bo’lgani uchun.
3. Ysuf Xos Xojib odamlarining kiynishi va o’zini tutishi haqidagi fikrlari uchu.
4. Qoraxoniylar hukmdori nazaiga tushganligi uchun.

Nazorat savollari:

1. Yusuf Xos Hojib haqida nimalarni o’rgandingiz.
2. Mahmud Qoshg’ariy “Devoni-lug’ati turk” asarida nimalar yoritilgan.
3. Ahmad Yugnakiy yashagan davrida ta’lim-tarbiya qanday bo’lgan fikringiz .

Mustaqil ish topshiriqlari:

4. Yusuf Xos Hojibning ilmiy ijodida axloqiy qarashlari o’rganish.
5. Mahmud Qoshg’ariy “Devoni-lug’ati turk” asarini o’rganish va tahlil qilish.
6. Ahmad Yugnakiyning “Hibat ul-haqoyiq” asarini tarbiyaviy ahamiyatini tahlil qilish.

Mavzu bo’yicha ilmiy xulosalar:

1. Yusuf Xos Hojibning peagogik ta’ilm-tarbiyaga oid qarashlarini o’rganish.
2. Mahmud Qoshg’ariy “Devoni-lug’ati turk” asarini o’rganib mohiyatini anlab yetishi tahlil qilish.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Hoshimov K., Nishonova S., Inomova M., Hasanov R. Pedagogika tarixi. – T.: O’qituvchi, 1996..
2. Hoshimov K., Safo Ochil. O’zbek pedagogikasi antologiyasi. – T.: O’qituvchi, 2010.
3. Niyozov G., Axmedova M. Pedagogika tarixidan seminar mashg’ulotlari. – T.: NOSHIR, 2011.
4. Abu Nasr Forobi. Fozil odamlar shahri. –T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993.
5. Iskandarov B. O’rta Osiyoda falsafiy va ijtimoiy-ciyosiy fikrning shakllanishi va rivojlanishi tarixidan lavhalar. – T.: O’zbekiston, 1993.

Seminar mashg’uloti -4. Kaykovusning “Qobusnoma” asari va javonmardlik tarbiyasi.

Reja:

1. Kaykovusning “Qobusnoma” asarida yoritilgan tarbiyaviy g’oyalalar.
2. Kaykovusning javonmardlik tarbiyasiga doir qarashlari.
3. “Qobusnoma” asarida muruvvat va sahovat fazilatlarining ifoda etilishi.

O’quv mashg’ulotining maqsad: “Qobusnoma” asari, xususan pandnasihat tarzida yozilgan bo’lib, jumladan yoshlarni hayotga, amaliy faoliyatga tayyorlashda, ularni har tomonlama yetuk inson qilib tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega ekanligini yoritib berish.

O’quv faoliyatining natijalari: Kaykovusning “Qobusnoma” asarida talaba yoshlarni hayotga teranroq qarashga undaydi.

Juvonmardlikni asosini Kaykovus uch narsada deb biladi. Birinchisi, aytgan so’zning ustidan chiqish, ya’ni rostlik; ikkinchisi rostlikka xilof qilmaslik; uchinchisi, xayr ishini ilgari tutish kabi sadoqatlarni o’rgatish.

Mavzu yuzasidan savollar:

- Kaykovusning “Qobusnoma” asarida yoritilgan tarbiyaviy g’oyalarni tavsiflang?
- Kaykovusning javonmardlik tarbiyasiga doir qarashlari haqida fikringiz?
- Kaykovusning javonmardlik tarbiyasinimalar yoritilgan?

Taqdimotni baholash mezonlari:

- 1.Talabaning mimikasi va pontomimikasiga -1
2. Mantiqan bog’langanligi va izchilligi, nutqning ravonligi – 2
3. Ko’rgazmalilik va reglament - 2
4. Jami: eng yuqori baho: 5 baho

Kaykovus 412 hijriy yilda (milodiy 1021—1022) tug’ilgan. Uning avlodlari gilon qabilasidan bo’lib, Tabaristonda (hozirda Kaspiy dengizining janubidagi hudud) yashaganlar.

Ammo biz Kaykovus haqida batafsil ma'lumotlarga ega emasmiz.

Kaykovus o'z hayoti davomida ko'rgan-bilganlari asosida o'zining buyuk "Qobusnoma" asarini yaratäè. Kitobni u o'g'li Gilonshohga bag'ishlagan. Bu paytda Kaykovus taxminan oltmis yoshlarda edi.

"Qobusnoma" SHarqda, xususan Eronning o'zida ham saqlanib kelayotgan an'anaga ko'ra pand-nasihat tarzida yozilgan bo'lib, mana bir necha asrlardan beri xalqlarni, jumladan yoshlarni hayotga, amaliy faoliyatga tayyorlashda, ularni har tomonlama yetuk inson qilib tarbiyalashda muhim qo'llanma bo'lib kelmoqda.

Lekin asarning "Qobusnoma" deb atalishining sababi, uning umuman Qobusga aloqasi haqida eslatilmaydi.

Kitob Eronda sakkiz marta nashr etiladi. Bularning eng mukammali mashhur oli Rizo Qulixon Hidoyat tomonidan 1890—1891 yillarda chop etilgan nashri hisoblanadi. Asar keyinchalik Bombeyda, Isfaxonda Fatxulla ibn Amulla Vali Urduni Baxtiyoriy tomonidan chop etildi.

Bundan tashqari, "Qobusnoma" ko'plab SHarq va G'arb tillariga o'girilib, nashr etilgan. Jumladan, 1432 yilda Merjomak Ahmad ibn Ilyos tomonidan, 1705 yilda Hasan posha Nazmizoda Murtoza tomonidan, 1881 yilda Qozon tatarlari tilida Qayum Nosiriy tomonidan, 1860 yilda Muhammad Rizo Ogahiy tomonidan o'zbek tiliga, G'arb tillaridan — nemis, frantsuz, ingliz tillariga tarjima qilinib, chop etildi.

Endi bir-ikki og'iz so'z SHamsul-maoliy Qobus haqida. SHamsul-maoliy Qobus o'z davrining fozil kishilaridan bo'lgan. U keng bilim egasi bo'lish bilan birga she'rlar ham yozgan. Hukmdorligi davrida o'z saroyida zamonasining peshqadam olimlari va shoirlarini yig'ib, poytaxti Jurjonne yirik madaniy markazga aylantirgan. Tarixiy manbalarda Qobusning arab tilida yozgan, uchta kitobdan iborat mashhur "Nomalar"i bo'lganligi qayd etiladi. Bular "Kamol al-balag'a" ("Suxandonlik kamoloti"), maqol va hikmatlar to'g'risidagi "Al-forida fi-l amsal va-l adab" ("Nodir nomalar"), "Risola fi-l iftixon va-l itob" ("Tanbeh va maqtov nomalari")dir.

Muallif juvonomardlik haqida eng oxirgi bobda so'z yuritadi. U odamlarning xislatlarini uch xilga bo'ladi: biri aql, biri rostlik va yana biri juvonomardlikdir. Juvonomardlikni asosini Kaykovus uch narsada deb biladi. Birinchisi, aytgan so'zning ustidan chiqish, ya'ni rostlik; ikkinchisi rostlikka xilof qilmaslik; uchinchisi, xayr ishini ilgari tutish.

Insondagi boshqa barcha xislatlar shu uch narsaga bog'liq, deydi Kaykovus. Juvonomardlik (yoki iyorlik)ning ustunlarini (ruknlari) quyidagilarda deb ko'rsatadi: jasurlik, mardlik, sabr-matonat, va'daga vafo qilmoq, pok dil va pok zabon bo'lmoq; asirlarga ziyon yetkazmaslik, bechora kishilarga madad berib, yomonlarning yomonlig'ini yaxshilardan yiroq tutish, rostgo'ylik, yaxshiga yomonlik qilmaslik, ziyon-zahmatdan saqlash, odamlarga ziyon-zahmat yetkazmaslik. Juvonomard sipohiyilar esa sabr-bardosh bilan ish tutishi, kamtarlik va mehmondo'stlik, sahiylik, to'g'rilik, haqshunoslik, pok kiyinish, yaxshi qurollanishi zarurligini qayd etadi.

Uch narsani do'st va dushmanga ochiq tut: uy eshigini, sufra boshini, hamyonning bog'ichini, deydi. So'ng hamma vaqt rostgo'y bo'lish, xiyonat

qilmaslik ham juvomardlikning ko'rinishlaridan, deb biladi. SHuningdek, Kaykovus juvomardlikning kamolot nuqtasini ko'rsatuvchi mezon deb o'z molmulkini o'zganikidan ajrata bilish, xalq mulkiga ta'ma qilmaslik, birovning molmulkiga xiyonat qilmaslik, xalqqa yomonlik qilmaslik, qanoatli bo'lish kabilarda deb biladi.

Kaykovusning o'zi ta'kidlaganidek, butun bir asr ana shu oxirgi bobida ta'rif bergen juvomardlar tarbiyasiga bag'ishlangan. Kaykovus unda "... barcha fikr va tushunchalarimning sening uchun kitobga yozdim va har bir ilm, ham hunar va har peshakim bilur edim, hammasini qirq to'rt bobda bayon etdim", deyish bilan har bir yoshning aqliy, axloqiy, jismoniy tarbiyasiga oid turmush tajribasi bilan bog'lagan holda kamolga yetkazish yo'llari va usullarini bayon etgan. Kitobda juvomardlar egallashi zarur bo'lган quyidagi yo'naliishlarda ta'lim-tarbiya berish nazarda tutilgan:

1. Kaykovus bilim olish haqida.
2. Hunar va turli kasb egalari haqida.
3. Turmush va xulq-odob qoidalari haqida.
4. Jismoniy yetuklik haqida.

CHunki har bir juvomard uchun tan, jon, havos va maoniy, ya'ni ham sipohiylik, ham ma'rifikat, ham donishmandlikka ega bo'lish zarur bo'lib, bu xislatlar ana shu yuqoridagi to'rt yo'naliishda zikr etilgan. Kaykovus ilmni uchga bo'ladi: biror kasb-hunarga bog'liq bo'lган ilm; ilm bilan bog'liq kasb-hunar hamda xayr va dalolatga taalluqli odat.

Birinchisiga, ya'ni biror kasb bilan bog'liq ilmlarga tabiblik, munajjimlik, muhandislik, yer o'lchash, shoirlik va boshqalar kiritiladi. Ilmga taalluqli kasblar musiqa asboblari ustasi, hayvonlarni davolovchi, binokorlik va boshqalar bo'lib, har qanday usta bo'lsa ham bu boradagi ilmni bilmasa, hech ish qila olmasligi ta'kidlanadi.

SHuningdek, ilm olish yo'liga kirgan toliblarga ham yo'llanmalar beradi:

Hamma vaqt parhezli va qanoatbaxsh bo'lish, bekorchilikdan o'zini tiyish, doimo shod-xurram va harakatchan bo'lish, kitob o'qishga berilish, ilm yo'lida qayg'u-hasratga berilmaslik, ilmni yodda saqlash uchun takrorlab borish, yod olish, ilmda haqiqat uchun kurashish, taqlid qilmaslik, doimo o'z yonida kitob va boshqa o'quv qurollarini saqlash, oz so'zlab, ko'p tinglash haqida fikr bildiradi. Ilm yo'lida munozaradan cheiknmaslik, lekin uni janjalga aylantirmaslik, isbot va dalillar bilan o'z fikrini bayon qilish zarurligini ta'kidlaydi. Yana u olimning aytgani bilan qilgan ishi bir bo'lishi kerakligi, ilmni chuqur o'rganish, har bir kasb, sohaning bilimdoni bo'lishda doimo kamtar, oqil, xalqparvar, har bir narsani oldindan ko'ra biladigan bo'lish kerakligini ham ko'rsatib o'tadi. Zero, ilmni faqat kitobdan o'rganish bilan cheklanib qolmay, aql, tafakkur bilan hukm chiqarish zarurligini ham ta'kidlaydi. Ana shu talablar asosida u tijorat ilmi, tib ilmi, nujum (yulduzlar) ilmi, handasa (geometriya) ilmi borasida o'z qarashlarini tarbiyalashda ularga ilmu odob o'rgatishlari zarurligi ham ta'kidlanadi.

Kaykovusning "Qobusnomá" asarida yoshlar tarbiyasida — juvomardlik talablaridan eng muhimi — axloq tarbiyasi deb ko'rsatiladi. U yoshlarda insonga nisbatan insoniy munosabatda bo'lish, adolatlilik, samiylik, saxiylik kabi

xislatlarni tarkib toptirishni istaydi va asarning boshidan oxirigacha ana shu ezgu maqsadni amalga oshirishga harakat qiladi. Ko’rinib turibdiki, Kaykovus qarashlarida inson tarbiyasi omili muhim o’rin tutadi.

U axloqlilikning birinchi belgisi, suxandonlik deb biladi. U (suxango’ylik) notiqlikda rost so’zlash kerakligini ta’kidlaydi. U so’zlarni to’rt xilga bo’lgani kabi odamlarni ham to’rt xilga bo’ladi. Birinchi xil kishilar ko’p narsani biladi va yana bilgisi kelaveradi. Bular olimlar bo’lib, ularga bo’ysunish kerak, deydi. Ikkinchisi, bilmagan narsasini bilishga harakat qiladi, ular qobil kishilar bo’lib, bunday kishilarga o’rgatish kerak. Uchinchisi, bilganini ham bilmaydi, uyguda yashagandek, ularni “uyg’otish” kerak. To’rtinchisi, bilmaydi va bilmaganini tan olmaydi. Bular johil kishilar bo’lib, ulardan qochish kerak, deydi.

So’zlarning esa birinchi xili bilinmaydi va aytilmaydi; ikkinchisi aytiladigan va biladigan; uchinchisi ham bilinadi, ham bilishga zarurati yo’q, ammo aytsa bo’ladi. To’rtinchisi, bilinadigan va aytiladigan. Eng yaxshisi, to’rtinchisi, ya’ni bilinadigan va aytiladigani deydi. So’zlaganda andishalik bo’lish, sovuq so’zlik bo’lmaslik, kam gapirish, kamtarlik, maqtanmaslik, birovning so’zini diqqat bilan eshitish odoblarini ta’kidlaydi.

Kaykovus ota-onaning yana bir muhim vazifasi farzand balog’atga yetgach, o’g’il bo’lsa uylantirib, qiz bo’lsa uzatib, o’z burchini ado etishi kerak, deb ko’rsatadi. Ayniqsa qiz bola tarbiyasiga e’tibor berish, unga g’amxo’rlik qilish kerakligini alohida qayd etadi: “Agar qizing bo’lsa, uni mastura doyalarga topshirg’il, toki yaxshi parvarish qilg’aylar va kattaroq bo’lg’andin so’ng muallimga topshirg’il … Balog’atga yetgandan so’ng harakat qilib erga berg’il, unga shafqat va marhamat ko’rguzg’il, nedinkim qiz otaning asiri bo’lur”.

Kaykovus yuksak axloqlilikning yana bir tarkibiy qismi do’stlik deb biladi va do’st tutmoq odobi haqida fikr bayon etar ekan, uning asosiy talablarini talqin etadi.

4-keys topshirig’i. Muallif juvonmardlik haqida eng oxirgi bobda so’z yuritadi. U odamlarning xislatlarini uch xilga bo’ladi: biri aql, biri rostlik va yana biri juvonmardlikdir. Juvonmardlikni asosini Kaykovus uch narsada deb biladi. Birinchi, aytgan so’zning ustidan chiqish, ya’ni rostlik; ikkinchisi rostlikka xilof qilmaslik; uchinchisi, xayr ishini ilgari tutish. Yuqoridagi keltirilgan ushbu fikrlani yoriting

Nazorat savollari:

1. Kaykovusning “Qobusnoma” asari haqida nimalarini bilasiz
2. Kaykovusning “Qobusnoma” asarida juvanmardlik masalasini yoriting
3. Kaykovusning “Qobusnoma” asarida jismoniy tarbiya haqida nimalar deyilgan.
4. Kaykovus ota-onalar haqidagi fikrlarini yoriting.

Mustaqil ish topshiriqlari:

1. Kaykovus kasb-hunarning ham zarurligini ta’kidlab: “Agar kishi har qancha oliy nasab va asl bo’lsa-yu, ammo hunari bo’lmasa, u haloyiqning izzat va hurmatidan noumid bo’lur, degan fikriga izoh bering.
2. Kaykovusning “Qobusnoma” asarida juvanmardlik masalasini yoriting

Mavzu bo'yicha ilmiy xulosalar:

1. Kaykovus ota-onaning yana bir muhim vazifasi farzand balog'atga yetgach, o'g'il bo'lsa uylantirib, qiz bo'lsa uzatib, o'z burchini ado etishi kerak, deb ko'rsatadi. Ushbu oila tarbiyasi haqidagi tasavvurlari shakllanadi.
2. Kaykovusning "Qobusnomा" asaridagi tarbiyaviy masalalarni mazmun mohiyatini anglab etish.

Adabiyotlar:

1. Hoshimov K., Nishonova S., Inomova M., Hasanov R. Pedagogika tarixi. – T.: O'qituvchi, 1996..
2. Hoshimov K., Safo Ochil. O'zbek pedagogikasi antologiyasi. – T.: O'qituvchi, 2010.
3. Kaykovus. Qobusnomा. – T.: «O'qituvchi», 2011.
4. Xojimuxamedova D. Bo'lajak ijtimoiy ish xodimlarida muruvvatlilik va saxovatlilik fazilatlarini shakllantirish. – T.: "Fan va texnologiyalar" nashriyoti, 2012.

Seminar mashg'uloti -5. Mirzo Ulug'bekning pedagogik g'oyalari va ta'lim rivojidagi xizmatlari.

Reja:

1. Mirzo Ulug'bekning madaniy-ma'rifiy faoliyati.
2. Mirzo Ulug'bekning ta'lim sohasidagi islohoti.
3. Mirzo Ulug'bekning ilmiy merosi – jahon fani rivojiga qo'shilgan bebahohissa.

O'quv mashg`ulotining maqsad: Temuriylar davrida ilm fanning ravnaq topishinng sababi har bir temuriyzoda marifatparvar insonligidadir. Mirzo Ulug'bekning yuksk salohiyatli olimning bizga qoldirgan ilmiy merosini o'rganish.

O'quv faoliyatining natijalari: Mirzo Ulug'bekni shoir, sarkarda ham hukmdor va pedagog olim sifatida uning ijodini o'rganish muhimligi.

Mavzu yuzasidan savollar:

- Temuriylar davrida nima uchun ilm-fan gullab yashnadi?
- Mirzo Ulug'bek qayerlarda rasadxonalar qurdirgan?
- Mirzo Ulug'bek[ning pedagogik qarashlari haqida nimalarni bilasiz?
- Mirzo Ulug'bek nechta yulduzni joylashish o'rnini o'rganib chiqqan?

Taqdimotni baholash mezonlari:

- 1.Talabaning mimikasi va pontomimikasiga -1
2. Mantiqan bog`langanligi va izchilligi, nutqning ravonligi – 2
3. Ko`rgazmalilik va reglament - 2
4. Jami: eng yuqori baho: 5 baho

Ulug'bek zamонига келиб esa математика, астрономия каби фанлар аниqlas ravvoj topdi. Tibbiyot, tarix, adabiyot va shular bilan barobar diniy bilimlarning ham ravnaq topishiga katta e'tibor berildi. Oliy maktab — madrasalar qurildi. Buxoro,

Samarqand va G'ijduvonda qurilgan uch madrasada fan taraqqiyotida ilmiy markaz bo'lib keldi.

Buxorodagi madrasa peshtoqiga bitilgan quyidagi yozuvlar haligacha ko'zga yaqqol tashlanadi: "Ilm olmoqqa intilmoq har bir muslim va muslima uchun qarzu farzdir".

Ulug'bek 1428—1429 yillarda Samarqandda rasadxona qudiradi. 1437 yilda ana shu rasadxonada "Ko'ragoniy jadvali"ni, ya'ni yulduzlar jadvalini tuzadi. U yaratgan kutubxonada esa fanning turli sohalariga oid 1500 jild kitob mavjud edi.

Samarqand shahrida X asrda 17 ta madrasa bo'lib, ularda yirik olimlar dars bergan bo'lsa, XIV—XV asrlarga kelib ular soni yanada ortdi. Tabobat ilmi, tarix, adabiyot va san'at ham rivojlandi. Boysunqur Mirzo davrida saroy kutubxonasi keng rivoj topadi. Uning rahbarligida kitoblarni ro'yxatdan o'tkazish va ilmiy matn ishlari ham olib borilgan. Firdavsiyning "SHohnoma" asarining shu davrda to'liq matni tuzilib, miniyaturlar bilan bezatilgan.

Bular XIV asrning ikkinchi yarmi va XV asr Markaziy Osiyo tarixida uyg'onish davri bo'lib tarixga kirgan deya olishimizga asos bo'la oladi.

Bu davrda o'zbek adabiyotida ham ancha siljish ro'y berib, Atoiy, Sakkokiy, Haydar Xorazmiy, Durbek va Lutfiyalar tomonidan qimmatli asarlar yaratildi. SHuningdek, tarixiy va adabiy asarlarni o'zbekchaga tarjima qilish ishlari jonlandi.

Ulug'bek olimlarga homiylik qilib, fan ahlini rag'batlantirdi, uning o'zi, ayniqsa, astronomiya va matematika fanlari bo'yicha muhim ishlarni amalga oshirdi. Samarqandda Ulug'bek tomonidan rasadxonaning barpo etilishi va uning o'sha davr ilmiy markaziga aylanishi muhim voqeа hisoblandi. SHu davrda Samarqandda Qozizoda Rumiy, Jamshid bin Ma'sudi, Mo'yiddin va uning o'g'li Mansur Koshiy, Ali ibn Muhammad Birjondi va boshqalar ijod etdilar. Hirotda esa Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, ulug' rassom Behzod, tarixshunos Xondamir, hattot Sulton Ali Mashhadiy va boshqalar ijodiyot cho'qqilariga ko'tarildilar.

Ulug'bekning shogirdi Aloviddin Ali ibn Muhammad Qushchi Samarqandiy (1403—1474) o'sha davrda Movarounnahrning madaniy va ilmiy hayotida katta rolб o'ynadi. Astronomiya to'g'risida "Risolai dar falakiyot" degan kitob yozgan Ali Qushchini o'z davrining Ptolomeyi deyishardi. Uning mazkur asarida geometrik bilimlarning asoslari bayon qilindi, nuqta, chiziq, yuza, aylana va shu kabi tushunchalar to'la ta'riflab berildi, tabiiyot fanlari va shuning singarilar sohasida boshlang'ich bilimlar bayon qilindi. Bu asar hamma narsa oddiy va murakkab narsalarga bo'linib ta'riflanadi.

5-keys topshirig'i. Ulug'bek olimlarga homiylik qilib, fan ahlini rag'batlantirdi, uning o'zi, ayniqsa, astronomiya va matematika fanlari bo'yicha muhim ishlarni amalga oshirdi. Samarqandda Ulug'bek tomonidan rasadxonaning barpo etilishi va uning o'sha davr ilmiy markaziga aylanishi muhim voqeа hisoblandi. Shunday olim pedagog marifatparvar inson o'g'li Abdulatif bilan o'rtaqidagi munosabatni izohlang:

Nazorat savollari:

1. Mirzo Ulug'bek kim bo'lgan, shoh, shoir, sarkarda.
2. Mirzo Ulug'bekning ilm fanga qo'shgan hssasi.
3. Mirzo Ulug'bek astronomiya, matematika fanlariga qo'shgan hissasi.
4. Mirzo Ulug'bek nechta madrasa va rasadxono qurdirgan.

Mustaqil ish topshiriqlari:

Mirzo Ulug'bekning pedagogik qarashlariga izoh bering.

Mirzo Ulug'bek nima uchun olimlarga homiylik qildi.

Mavzu bo'yicha ilmiy xulosalar:

1. Mirzo Ulug'bekning ilmiy ijodini o'rganish unng pedagogik qarashlaridan fodalanish yoshlarni yuksak salohiyatli qilib shakllantiradi.
2. Mirzo Ulug'bek davrida XIV - XV asr Markaziy Osiyo tarixida uyg'onish davri bo'lib tarixga kirgan deya olishimizga asos bo'la oladi.

Adabiyotlar:

1. Hoshimov K., Nishonova S., Inomova M., Hasanov R. Pedagogika tarixi. – T.: O'qituvchi, 1996.
2. Hoshimov K., Safo Ochil. O'zbek pedagogikasi antologiyasi. – T.: O'qituvchi, 2010.
3. Axmedov B. Ulug'bek. – T., 1991.

Seminar mashg'uloti -6. Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy Jaloliddin Davoniyning ta'limiy axloqiy qarashlari.

Reja:

- 1.Jomiyning hayoti va faoliyati va ta'lim-tarbiya to'g'risida.
- 2.Jomiyning komil insonni tarbiyalashga oid qarashlari.
- 3.Alisher Navoiyning ilmiy-ma'rifiy faoliyati. "Mahbub ul qulub" asarining shaxs tarbiyasidagi o'rni.
- 4.Alisher Navoiyning mакtab, madrasalar va mudarrislar haqida.
- 5.Davoniyning ilm-fan taraqqiyotida tutgan o'rni.
6. Davoniyning axloqiy kamolotga doir qarashlari

O'quv mashg'ulotining maqsad: XV-XVI asrlarda yashab ijod qilgan ilm fanning ravnaq topishiga o'zining hissasini qo'shgan olimlarimizni ilmiy ijodlarini o'rganish.

O`quv faoliyatining natijalari: A. Jomiy, Alisher Navoiy, Davoniylarning asarlaridagi pedagogik ta`lim-tarbiyasini o`rganadilar.

Mavzu yuzasidan savollar:

- Jomiyning qanday asarlarini bilasiz?
- Jomiyning pedagogik qarashlari haqida nimalar bilasiz?
- Navoiyning hamsasida nechta doston bor?
- Alisher Navoiyning ilmiy-ma'rifiy faoliyati. "Mahbub ul qulub" asarining shaxs tarbiyasidagi o'rni?
- Davoniyning axloqiy kamolotga doir qarashlari?

Taqdimotni baholash mezonlari:

- 1.Talabaning mimikasi va pontomimikasiga -1
2. Mantiqan bog`langanligi va izchilligi, nutqning ravonligi – 2
3. Ko`rgazmalilik va reglament - 2
4. Jami: eng yuqori baho: 5 baho

Abdurahmo Jomiy

Abdurahmon Jomiyning ta`limiy-axloqiy qarashlari "Bahoriston" asari hamda "Haft avrang" ("Etti taxt") asarining tarkibidan o'rın olgan "Tuhfatul ahror" va "Silsilatuz zahab" ("Oltin tizmalar") dostonlarida aks etadi. Allomaning "Bahoriston" asari Muslihiddin Sa'diy tomonidan yaratilgan "Guliston" asari yaratilgan uslubda yozilgan bo'lib, unda Abdurahmon Jomiy haqiqiy kamolotga erishgan inson va uning ma'naviy-axloqiy qiyofasi borasida to'xtalib o'tadi.

Abdurahmon Jomiy ham boshqa allomalar kabi inson kamolotining birinchi mezoni uning bilimlilik darajasi deya ta'kidlaydi.

"Haft avrang" asarining birinchi dostoni bo'lган "Tuhfatul-ahrор"да ham Abdurahmon Jomiy ilmnинг inson hayotidagi ahamiyati ko'rsatib berar ekan, ilm har qanday muammolarni yechishda insonga yordam berishini ko'rsatib o'tadi.

Alloma o'zining mashhur "Silsilatuz zahab" ("Oltin tizmalar") dostonining "Sevimli aziz farzandga nasihat"" nomli bobida, har bir yoshning bilim olishi zaruriyat ekanligini ta'kidlaydi. Zero, inson umri juda qisqa bo'lib, u umrni behuda o'tkazmasligi, shuningdek, muayyan darajada bilimlarni egallagandan so'ng unga amal qilish lozim, amaliyotda qo'llanilmaydigan ilm ham behudadir degan fikrlarni ilgari suradi. Xususan:

Ilm yo'liga qadam qo'y, chunki shu yo'l farovon,
Ammo umringning yo'li, g'oyatda qisqa – bir on.
Har bir kishiga bo'lmas qayta yashash tuyassar,
Egalla sen bilimni, mangu turar muqarrar.
Bilim egalladingmi, unga doim amal qil,
Ilming amalsiz bo'lsa, sen oni bir zahar bil.
Faraz qildik bilarsan, ul ilmi kimyonи,
Zar qilmasang misingni, qolmas ishing nishoni.

Alisher Navoiy

O'zbek adabiyotining asoschisi, she'riyat mulkining sultoni, ma'rifatparvar shoir, davlat arbobi Alisher Navoiy 1441 yil 9 fevralda Hirot shahrida tug'ilgan. Yosh Alisher favqulodda iste'dod egasi bo'lib, iste'dodining dastlabki ko'rinishlari u uch-to'rt yoshga to'lgan vaqtlardayoq namoyon bo'la boshlagan. SHu vaqtda u Fariddin Attorning "Mantiq-ut-tayr" asarini yod oladi.

Alisherdagi ilm o'rganishga bo'lган kuchli qiziqish hamda ishtiyoqni o'z vaqtida anglagan ota-onasi uni 1445 yilda maktabga beradilar. Maktabda tahsil olayotgan chog'larida o'tmis mutafakkirlari va o'z zamonasining zabardast shoirlarining ijodlari bilan yaqindan tanishadi. Mazkur davrda badiiy mavjud asarlar mazmunini o'qib-o'rganish bilan kifoyalaniq qolmay, 10-12 yoshidayoq mustaqil ravishda she'rlar yoza boshlaydi. Yosh Alisher tomonidan yaratilgan she'riy misralar o'zida yuksak badiiy va falsafiy g'oyalarni aks ettirar edi. CHunonchi, uning ustozи Lutfiyga o'qib bergen quyidagi misralari bugungi kunga qadar she'riyat ixlosmandlarining hayratiga sazovor bo'lib kelmoqda:

Orazin yopqoch ko'zimdin sochilur har lahza yosh,

Bo'yakim, paydo bo'lur yulduz, nihon bo'lgach quyosh.

Qomusiy bilimlarni chuqur o'zlashtirgan Alisher Navoiy xalq orasida hurmat-e'tibor qozonadi. Bolalikda birga ulg'aygan do'sti sulton Husayn Boyqaro Alisher Navoiyning iste'dodi, bilimi hamda hayotiy qarashlarini yuksak qadrlagan holda uni o'ziga vazir etib tayinlaydi. Davlat arbobi sifatida faoliyat olib borgan Alisher Navoiy fan va san'atning turli sohalari: adabiyot, tarix, til bilimlari, musiqa, hattotlik, tasviriy san'at hamda me'morchilikning rivoji yo'lida amaliy harakatlarni olib borish bilan birga yoshlarga ta'lim va tarbiya berish masalalariga ham alohida diqqat-e'tibor qaratdi. Ulug' mutafakkir o'zining "Xamsa", "Mahbub-ul-qulub", "Munojot", "Vaqfiya", "Majolis-un-nafois", "Muhibbat-ul-lug'atayin", shuningdek, Abdurahmon Jomiyning "Arba'in" nomli asarining tarjimasi sifatida yaratilgan "CHihil hadis" ("g'irq hadis") kabi asarlarida ta'lim-tarbiya masalalariga oid qarashlarini ifoda etadi.

Жалолиддин Мұхаммад Ибн Ақад ас-Сәдіғи ал-Дауоніұ ғарнаның Қазарун вілоятінде Дауон қішлог'іда 1427 жылда дүнуге келді.

Жалолиддин Дауоніұ бoshланғ'іч ма'лумотті қішлог'іда олгач, SHerozga келді және у ерда Doryл ай-том madracacida таҳсіл ко'ради. Madracada у мусулмандың қонуншынослігі (fiqh) вілан таҳсус shyg'улланаді ҳамда ілм-ған сілгілік mashxyr одаңлардан о'ргана boshlaydi.

Ұнің otaci Ca'diddin ҳам о'з замонінде fozil kishilaridан bo'lіb, o'g'lінің ҳам ілм-ғанні chyqyr egallashiga yordam beradi.

Madracanı тамомлагач, Дауонінде ілміу қобіліятінде хабардор bo'lган егер қыздори Султон Үоқыб Оқ қо'үінлі томонідан SHeroz shaxriga qozi etib tayiňlanadi. У madracada ҳам mydarrislik, ҳам qozilik vazifalari вілан shyg'улланада boshlaydi. Дауоніұ faqat o'z yurtida emas, балки o'zga мамлакатларда ҳам shyxrat qozonadi. Түрлі shaxarlardan тақавалар келів, унда таҳсіл оладилар va улар oracidан ҳам yetyk fozilу fuzalolat yetishib chiqadi.

Дауоніұ keyіншалік Ерон, Iroq, Ніндістонда, Koshon, G'ilon, Tabriz, Hirot шаҳарларда сауоқатларда bo'lіb, ko'plab олімлар вілан ҳамсұхbat bo'lіb, o'zінің bo'lіmі, дүнүоқарашіні үаһада boyitdan.

Дауоніұ үмрінде охирі үлларіні o'z қішлог'іда o'tkazgan. Олім 1502 жылда vafot etdі. Ү Казарун үақіннан қішлог'і Daunha dafн etilgen.

Дауоніұ o'z davriñinde ілм-ған taraqqiyotiga katta xicca qo'shgan қомусын олім. Ұнің yirik олім bo'lіb yetishishida Camarqand, Hirot ілміу мұхітінде ҳам katta ta'ciri bo'lган. СНункі, ілм-ған XIV—XV асrlarda xyddi ана shy ikki yirik fan va madaniyat markazida taraqqiy etdі. Дауоніұ by ikki shaxar ілм ахлларі, shuninhdek, Vizantiya, Ozarbayjon, Qirmız, Hyrmyz, Tabariston, Xurosun va Jyrjon олімларі вілан узvіu алоқада bo'lган. Ауніңса, Hirotda bo'lгanda mashxyr shoir va mytafakkir Abdyraхmon Jomiu вілан ychrashgan va keyіnшалік у ердан ketgahidан со'нг ҳам аллома вілан хат yozishib tyrgan.

Demak, Дауонінде yetyk олім bo'lіb yetishishida Яqін va O'rta SHarq, Movarounnaхrdagi yetyk олімлар вілан ҳамкөллік qilishi мұхим оміл bo'lган. Дауонінде madracadagi узоq vaqt mydarrislik faolіyatі үнің ta'lіm-tarbiya to'g'ricida o'z qarashlariga ega екансілігіні ko'rcatadi.

Н.Аліқулов tadqiqotlarida keltirilishicha, Дауонінде ҳаюти va faolіyatı, ілміу-pedagogik меросіні SHarq va G'arb олімлар Хондамігінде "Habib ус-сіyar" kitobiga таяндан ҳолда tadqiq etdілган. Camarqandlіk олім Aby Toxir Хо'janнің "Ахлоқи Myzaffariy", SHamciddin Comiunінде "Qomus ул-аллом" асrlарда аллома ҳақida ма'лумотлар берілген. Лекін Н.Аліқулов Жалолиддин Дауоніұ ҳақida batafcіл ма'лумот Алі Дауонінде "Жалолиддин Дауоніұ" номлі kitobida, A.M.SHactriñinde "Іслом маданияті ҳақida лаңхалағ" номлі acarida, інгліz тіліде chon etilgen "Іслом қомуси", M.Dyayt va D.D.Donauldsonlagнінде kitoblarida ancha batafcіл aytib o'tilgeni та'kidlaydi.

5-keys topshirig'i. Quyida mutafakkir olimlarning pedagoglik kasbiga doir fikrlari tugallanmagan holda berilgen. Mazkur fikrlarni tugallang. So'ngra o'z yozganlaringizni kitobda berilganlari bilan taqqoslang.

1.1. Uning ishi odam qo'lidan kelmas, odam emas, balki dev ham qila

bilmas...

- 1.2. Haq yo'lida kim senga bir harf o'qitmisht ranj ila...
- 1.3. Kimki shogirdligidan chin dildan shod...
- 1.4. Ustoz shogirdlariga haddan ziyod qattiq zulm ham, haddan tashqari ko'ngilchanlik ham qilmasligi lozim...

Nazorat savollari:

1. Jomiy asarlarida ta'lim-tarbiya masalalari.
2. Jomiyning "Salomon va Absol" dostonida ilgari surilgan g'oya.
3. Navoiy yaratgan asarlarda asosan nimalar ilgari surilgan.
4. Navoiy komil inson tarbiyasi haqida qanday fikrlarni ilgari suradi.
5. Farobiy kabi Davoniy ham fozil shahar boshqaruvchisida nima mujassam bo'lish kerak deydi.

Mustaqil ish topshiriqlari:

Jomiy o'z davrida asarlari orqali nimalarni ochib bergan.
Navoiyning ham shoir ham davlat arbobi sifatida qanday izohlaysiz
Davoniyning ijodi Farobiy ijodiga qanday o'xshashlik bor.

Mavzu bo'yicha ilmiy xulosalar:

1. Mutafakkir olimlarning asarlari orqali ulardagi ta'lim-tarbiya vatanparvarlik mehr-muhabbat shakllantiriladi.
2. G'azal mulkining sulton A.Navoiyning sheriyatdagi o'rmini mohiyatini tushunib boradi.

Adabiyotlar:

1. Hoshimov K., Nishanova S., Inomova M., Hasanov R. Pedagogika tarixi. – T.: O'qituvchi, 1996..
2. Xayrullayev M. Ma'naviyat yulduzlari. – T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashiryoti, 2001.
3. Niyozov G'., Axmedova M. Pedagogika tarixidan seminar mashg'ulotlari. – T.: NOSHIR, 2011..
4. Shomuhamedov Sh. Abdurahmon Jomiy: (hayoti va ijodi) . – T., 1963. - 36b.

7- Seminar mashg'uloti. Mavzu: Jadid ma'rifatparvarlarini va Abdulla Avloniyning pedagogik qarashlari

Reja:

1. Jadid maktablari va o'qitish tizimi.
2. Jadid ma'rifatparvarlari tomonidan yaratilgan darsliklar va ularning mazmuni.
3. A.Avloniyning xayoti va ijodi.

4. Avloniy tashkil etgan maktablar va darsliklar.
5. “Turkiy Guliston yohud axloq” asaridagi komil inson tarbiyasiga oid ilgari surilgan g’oyalalar.

O’quv mashg’ulotining maqsad: Turkistonda jadidchilik harakati vujudga kelishi, Turkistondagi jadidchilik harakati bu bir tasodif xodisa bo’lmay, balki hayotimizdagи ijtimoiy-siyosiy ziddiyotlar maxsuldir ushbu davr jarayonlarini anglab etish.

O’quv faoliyatining natijalari: Jadidlarning faoliyat ularning g’oyalari asl mohiyati nima ekanligini aglab etish.

Mavzu yuzasidan savollar:

- Jadidlar kimlar edi?
- Qadimistlar kimlar?
- Turkiston o’lkasida jadidchilarni g’oyalari mohiyati nimalardan iborat?
- Avloniy “Turkiy guliston yoxud axloq” asarini?

Taqdimotni baholash mezonlari:

- 1.Talabaning mimikasi va pontomimikasiga -1
2. Mantiqan bog’langanligi va izchilligi, nutqning ravonligi – 2
3. Ko`rgazmalilik va reglament - 2
4. Jami: eng yuqori baho: 5 baho

Turkistondagi jadidchilik harakati bu bir tasodif xodisa bo’lmay, balki hayotimizdagи ijtimoiy-siyosiy ziddiyotlar maxsuldir.

Jadidchilik oqimini ijtimoiy-siyosiy va ma’rifiy tomonlarini professor B.Qosimov o’z tadqiqotida batafsil bayon etgan. XIX asrning boshlaridan Buxorodagi ma’rifatparvar musulmon ruhoniylari va ziyolilari orasida madrasa va maktablar tizimiga hamda islom diniga kirib qolgan bid’atlarni isloh qilish fikri paydo bo’la boshlaydi. SHunday islohot tarafdoरlarini jadidchilar, ya’ni yangilik tarafdoरlar deb atay boshlaydilar. Jadidizm (arabcha “jadid” so’zidan olingan bo’lib “yangi” degan ma’noni bildiradi). O’sha davrlardan boshlab bunga qarama-qarshi turgan oqim, ya’ni feodal-o’rta asrchilik, diniy fanatizm ruhida bo’lgan kishilarni esa qadimistlar, deb atay boshladilar. XIX asr boshlarida bir qancha ma’rifatparvar mudarrislar Buxoro shahridagi 200 ga yaqin madrasani isloh qilish g’oyasi bilan chiqdilar.

XIX asr oxiri – XX asrning boshlarida Turkistonda chor mustamlakachiligining kuchayishi natijasida Markaziy Osiyoning ko’p joylarida jadidchilik harakati kuchayib ketdi. Bu harakat mavjud jamiyatning ijtimoiy-madaniy asoslarini qayta qurishga qaratilgani sababli eski tuzum, eski turmush, eski maktab tarafdoरlarining kuchli qarshiligiga duch keldi. Bu qarshi kuch vakillari qadim yo qadimchilar deb atalgan bo’lsa, yangi hayot shabadalarini olib kelishga uringan kishilar esa jadid yoki jadidchilar degan nom oldilar. SHu tarzda

asrimiz boshlarida jadidlar va jadidchilik harakati yuzaga keldi. Yangi asrning boshlanishi bilan avvalgidek ijtimoiy xorlik, iqtisodiy va madaniy qoloqlik sharoitida yashash mumkin emasligi ular uchun oydek ravshan edi. Nafaqat Markaziy Osiyo, balki Rossiyada yashovchi xalqlar ham o'z taqdirlarini o'zgartiribgina, feodal tuzumning negizlarini parchalabgina yangi hayotga qadam qo'yishlari mumkin edi.

Abdulla Avloniy 1878 yil 12 iyulda Toshkent shahrining Mergancha mahallasida, mayda hunarmand-to'quvchi oilasida dunyoga keldi. Ota-onasi savodli kishilar bo'lganlar. Abdulla Avloniy eski usul maktabini tamomlagandan keyin 12 yoshida madrasaga o'qishga kiradi. U yozda ishlab ota-onasiga yordam qilar, boshqa vaqtarda o'qir edi. O'ta iqtidorli bo'lgan Abdulla Avloniy 15 yoshida she'rlar yoza boshladи. Dastlabki she'rlarida va "Hijron" degan maqolasida xalqni yangi usul maktablarida o'qib-o'rganishga targ'ib qildi. Avbdulla Avloniy 1907 yilda "SHuhrat", "Osiyo" nomli yangi gazetalar chiqara boshladи, lekin chor amaldorlari tez orada gazetalarni yoptirib qo'yadi. Abdulla Avloniy keyinroq "Sadoyi Turkiston" (1914—1915), "Turon" (1917), "Ishtirokiyun" (1918) gazetalarida, "Kasabachilik harakati" (1921) jurnalida muharrir bo'lib ishlaydi. SHundan so'ng, u o'zbek matbuotning zabardast vakili, o'zbek matbuotning asoschilaridan biri sifatida taniladi.

5-keys topshirig'i. Quyida mutafakkir olimlarning pedagoglik kasbiga doir fikrlari tugallanmagan holda berilgan. Mazkur fikrlarni tugallang. So'ngra o'z yozganlaringizni kitobda berilganlari bilan taqqoslang.

1.1. Uning ishi odam qo'lidan kelmas, odam emas, balki dev ham qila bilmas...

1.2. Haq yo'lida kim senga bir harf o'qitmish ranj ila...

1.3. Kimki shogirdligidan chin dildan shod...

1.4. Ustoz shogirdlariga haddan ziyod qattiq zulm ham, haddan tashqari ko'ngilchanlik ham qilmasligi lozim...

Nazorat savollari:

1.Jadidchilik harakatining kelib chiqish omillari nimalardan iborat?

2.Jadidchilik qanday g'oyalarni ilgari surgan?

3.Turkistonning rivojlanishida jadidchilik harakati qanday ahamiyat kasb etadi?

Mustaqil ish topshiriqlari:

Turkistonda rus-tuzem maktablarini ochilishini sabablari

Ismoil Gaspirinskiyning jadidlar olamida o'rni

Avloniyning tarbiya haqidagi g'oyalari

Mavzu bo'yicha ilmiy xulosalar:

1. Dastlabki yangi usuldagi maktablarni ochilishi mohiyatini o'rganadi.

2. Avloniyning jadidchilik gaoliyatiga qo'shgan hissasi.

Foydalanish uchun adabiyotlar:

- 1.Xoshimov K., Nishonova S. Pedagogika tarixi.-T.: A. Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy Kutubxonasi nashriyoti, 2005.
2. Hasanboeva O., Hasanboev J., Homidov H.- T.: G‘ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi, 2004.
3. Safo Ochil, Xoshimov K. O‘zbek pedagogikasi antologiyasi.- T.: O‘qituvchi, 1999;
- 4.Xoshimov K., Safo Ochil. O‘zbek pedagogikasi antologiyasi.- T.: O‘qituvchi, 2010.

8- Seminar mashg‘uloti. Yan Amos Komenskiy va Konstantin Dmitrievich Ushinskiyning pedagogik tizimi.

Peja:

1. Yan Amos Komenskiyning tarbiyani maqsad va vazifalari to’g’risidagi qarashlari.
2. “Buyuk didaktika”asarida ilgari surilgan didaktik tamoillar.
3. Yan Amos Komenskiyning sinf-dars tizimi tavsifi va o`qituvchilik kasbiga qo`yiladigan talablar.
4. K.D.Ushinskiyning hayoti va pedagogik faoliyati.
5. Ushinskiy pedagogika fani va tarbiya san’ati haqida.
6. Ushinskiy didaktikasi

O`quv mashg`ulotining maqsad: G’arb pedagoglari Komenskiy va Ushinskiylarning pedagogik va didaktik qarashlarini o’rganish.

O`quv faoliyatining natijalari: Komenskiyning onalar maktabida yoritilgan tarbiya, ushinskiyning Didaktik qarashlarini organib tahlil qilish.

Mavzu yuzasidan savollar:

- Buyuk didaktika asari qanday asar?
- Komenskiyning sinf dars tizimi qanday tizim?
- Komenskiyning didaktik tamoyillarini yoriting?
- Ushinskiyning “Ijtimoiy tarbiya xalq ruhi” maqolasida qanday g’oyalar ilgari surilgan?

Taqdimotni baholash mezonlari:

- 1.Talabaning mimikasi va pontomimikasiga -1
2. Mantiqan bog`langanligi va izchilligi, nutqning ravonligi – 2
3. Ko`rgazmalilik va reglament - 2
4. Jami: eng yuqori baho: 5 baho

CHexoslovakiyalik gumanist-pedagog Yan Amos Komenskiy pedagogika ilmning poydevorini qurgan, uning keyingi rivojlanish yo’llarini ko’rsatib bergen, o’zining ongli hayotini, amaliy pedagogik faoliyatini bolalarni

o'qitish va tarbiyalashdek olijanob ishga bag'ishlagan ulug' pedagogdir.

Buyuk chex pedagogi Ya.A.Komenskiy 1592 yil 28 mart "Ugorskiy Brod" degan joyda Moravyada tegirmonchi oilasida dunyoga keladi. Uning oilasi ruhoni "CHex qardoshlari" jamoasiga tegishli bo'lib, bu jamoa CHexiyaning ozodligi uchun kurashuvchi vatanparvarlarni o'z atrofiga to'plagan edi.

Komenskiy ota-onasidan ajralib, ancha vaqt o'qiy olmaydi, 16 yoshida "CHex qardoshlari" jamoasining yordami bilan lotin maktabiga o'qishga kiradi, bu yerda u tarbiya tizimining yomonligini, o'quv metodlarining yaramasligini ko'radi va tushunadi. "Men o'sha vaqtdayot tarbiya masalasida mamlakatimni orqada ekanligini ko'rdim. Men o'sha davrdayoq fan va tarbiya hammaga tegishli bo'lishi kerakligi o'yladim"— degan edi Komenskiy. Maktabni tugatgach Xorborni universitetiga (Germaniyada) o'qishga kiradi, uni tugatgach Geydelberg universitetida ma'ruza kursini tinglaydi, bu universitetda o'sha davrda ilg'or professorlar ishlardi. Komenskiy Avstriya, Gollandiyada bo'lib iqtisodiy, siyosiy va madaniy turmushni o'rganadi. SHuningdek, o'zining ilmi va dunyoqarashini kengaytiradi.

O'sha davrda urush alohida knyazliklar orasida tez-tez bo'lib turar edi. 30 yillik urush (1618—1648) davomida chex qardoshlari jamoasi o'zining mustaqilligi uchun kurashishi sababli nemis dvoryanlari tomonidan haydaladi. Haydalish natijasida Komenskiy xotini va bolasidan juda bo'ladi. Qo'lyozmalari yo'qoladi.

"CHex qardoshlari" ko'chib kelib o'rnashgan Pol'shadagi Leshno shahrida Komenskiy qardoshlik maktabiga rahbarlik qiladi, u yerda gimnaziya tashkil etadi. U o'zining qariyb 80 yillik umri davomida pedagogika, ta'lim-tarbiya, falsafa, ilohiyotga oid 250 dan ortiq asarlar, darsliklar yaratdi. Bularidan yiriklari: "Tillar va hamma fanlarning ochiq eshigi" (1631), "Buyuk didaktika" (1632), "Onalar maktabi" (1632), "Pansofiya maktabi" (1651), "Yaxshi tashkil etilgan maktab qonunlari" (1953), "Hislar vositasi bilan idrok qilinadigan narsalarning suratlari" (1658) nomli asar va darsliklar. SHuningdek, logika, fizika, lotin tili, grek tili kabi kitoblar yozadi. Darsliklari hayotlik davridayoq ko'p tillarga tarjima qilinib, Komenskiyning nomini butun dunyoga tanitadi.

Komenskiy "Kishilik jamiyatni ishlarini yaxshilash haqida hammaga talluqli maslahat" nomli 7 jildli katta asar yozdi (U hayot ekanligi vaqtida hammasi bo'lib 2 jildi bosilib chiqdi, qolgan jildlari esa faqat 1935 yilda topildi va CHexoslovakiyada chop qilindi). Bu asarida "Hammani va hamma narsada har tomonlama tuzatish"ning insonparvarlik va demokratik dasturini belgilab chiqdi va kishilik jamiyatini isloq qilish rejasini ilgari surdi.

"Buyuk didaktika" asarida "**pan sofiya g'oyasini**" (*pan* gerkcha —

butun, hamma, *sofiya* — donolik, aqlililik) **hamma narsani bilish, hamma uchun bilim berish**" demakdir. Pan sofiyada u tabiat va jamiyat bilimlarining yig'indisini beradi. Maktab — bu muassasa, u yerda "Hammani har narsaga o'rgatmoq kerak" degan fikr ko'p marta takrorlanishini ko'ramiz.

Komenskiyning pansofiya ishi Angliyaning ilg'or kishilar tomonidan quvvatlanib, parlament tomonidan chaqiriladi. Komenskiy 1641 yili Angliyaga keladi, lekin grajdalar urushi boshlanib ketib, bu ish qolib ketadi. Komenskiy tuyoga tanilgandan so'ng hamma mamlakatlarga uni taklif eta boshlaydilar. SHvetsiyada **lotin tili darsligini va til o'qitish metodikasini** tuzadi.

Mashhur rus pedagogi, rus pedagogikasi va xalq maktablarining asoschisi, "rus o'qituvchilarining o'qituvchisi" Konstantin Dmitrievich Ushinskiy 1824 yilning 19 fevralida Tula shahrida tug'ildi.

Ushinskiy 9 yoshga qadar oilada tarbiyalanib, savod chiqardi. So'ngra Novgorod-Seversk gimnaziyasiga o'qishga kirib, uni 1840 yilda muvaffaqiyatli tamomladi. O'sha yili Moskva dorilfununing yuridik fakultetiga o'qishga kirdi va o'sha davrning mashhur professori Redkinning bevosita rahbarligi ostida ta'lim oldi.

Ushinskiy 22 yoshida Yaroslav litseyiga kameralъ (yuridik) fanlar professori vazifasini bajaruvchi sifatida xizmatiga kirdi va ish boshladi. U uch yillik dastlabki pedagoglik faoliyatida katta iste'dod egasi ekanini namoyish eta oldi. SHuningdek, Ushinskiy zo'r ishtiyooq bilan o'qituvchilik ishini olib borib, talabalarga havas bilan bilim berishga harakat qildi, ularda ilm-fanga nisbatan qiziqish uyg'otdi, eng muhimi, o'z halqi va ona yurtini jondan sevish, ardoqlash hamda vijdonan halol mehnat qilishga da'vat etdi. Bu yosh va iste'dodli professorning mazmunli ma'ruzalarini litsey talabalari maroq bilan tinglab, chuqur va mustahkam saboq olar edilar.

K.D.Ushinskiy pedagoglik faoliyatini ilmiy-ijodiy ish bilan birga qo'shib olib bordi. 1848 yilda uning birinchi ilmiy ishi — "Kameral fanlarni o'qitish haqida" degan asari nashr qilindi. Bu asarda Ushinskiy oliy o'quv yurtlaridagi mavjud o'qitish tizimiga nisbatan tanqidiy ko'z bilan qaradi. Hukumat tomonidan erkinlik berilishini talab etdi. O'qitish tizimini yaxshilashga oid yirik uslubiy muammolarni o'rtaqa qo'yib, ularni qanday hal etish yo'llarini ko'rsatib berdi.

Ushinskiyning ilm-fanni demokratik tarzda targ'ib etishi reaktsion doiralarga ma'qul tushmadi. 1849 yil sentyabrida Ushinskiy va uning do'stlari, demokratik ruhdagi o'qituvchilar, siyosatda shubhali, hukumatga ishonchksiz kishilar sifatida litseydan chetlatildi. K.D.Ushinskiy boshqa ish topish maqsadida 1949 yilda Peterburgga ko'chib borib, juda katta qiyinchiliklardan so'ng 1850 yilda ichki ishlar vazirligida kichik bir amaldor vazifasida ishlashga majbur

bo'ldi va u yerda to'rt yil ishladi.

Ushinskiy faqat 1854 yildagina Yaroslavl' litseyi sobiq direktorining tavsiyasi bilan Gatchino institutida til-adabiyot va qonunshunoslik o'qituvchisi bo'lib ishga kiradi va u yerda tez fursatda shu institutning sinflar inspektori vazifasiga ko'tariladi. Ushinskiyning pedagogik faoliyati tom ma'nosi bilan ana shu vaqtdan boshlandi. U 1859 yilda Smol'niy institutining sinflar inspektori vazifasiga tayinlanib, unga shu institutning juda achinarli holga tushib qolgan ilmiy bo'lim ishlarini qaytadan tartibga solishday muhim topshiriq yuklandi. Ushinskiy bu ishni epchillik bilan puxta bajarib, pedagoglik jarayonni uyushtirish sohasida katta qobiliyat sohibi ekanini ko'rsatdi. SHu bilan birga uning pedagogika masalalariga bag'ishlangan va muntazam chop etilayotgan nazariy tadqiqotlari uning faqat amaliyotchi emas, balki o'z ixtisosini bo'yicha kuchli nazariyotchi ekanligini ko'rsatdi.

Ushinskiy 1857 yildan boshlab "Tarbiya jurnali" ("Jurnal dlya vospitaniya")da, so'ngra "Xalq maorifi jurnali"da juda ko'p sermazmun maqolalar e'lon qildi. 1860 yilda u "Xalq maorifi jurnali"ning muharriri qilib tayinlandi. Ushinskiy 1861 yilda o'zining "Bolalar dunyosi" ("Detskiy mir") nomli o'qish kitobini nashr ettirdi. Bu kitob o'sha yilning o'zidayoq ikki marta chop etildi.

K.D.Ushinskiyning didaktika sohasidagi qarashlari pedagogika tarixida o'zining chuqurligi va o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Ushinskiy ta'limni bolalarning psixologik jihatdan kamol topishlarining yosh bosqichlarini hisobga olishni va ular psixologiyasining xususiyatlarini e'tiborga olib tashkil etish kerakligini talab qildi.

Ushinskiy xotira bilan esda saqlab qolish to'g'risida gapirib, unutishning oldini oladigan tez-tez takrorlash yo'li bilan tarbiya oluvchilarda o'z xotiralariga ishonchni mustahkamlash kerak, deb ko'rsatdi. U darsda ko'rsatmalilik tamoyiliga katta ahamiyat berib, psixologik nuqtai nazardan ko'rsatmali ta'limni mohiyatini yoritib berdi.

Ushinskiy ko'rsatmali ta'lim tamoyillarini nazariy jihatdan ishlab chiqishga va uni amalda tatbiq etishga doir juda ko'p qimmatli fikrlar kiritdi. Ushinskiy o'qitish jarayonida ko'rsatmali ta'limga munosib o'rinni berdi: u ko'rsatmali ta'lim o'quvchilarning rivojlanishini ta'min etadigan shartlardan biridir, deb bildi.

8-keys topshirig'i. "Buyuk didaktika" asarida "**pan sofiya g'oyasini**" (*pan* gerkcha — butun, hamma, *sofiya* — donolik, aqlililik) **hamma narsani bilish, hamma uchun bilim berish**" demakdir. Pan sofiyada u tabiat va jamiyat bilimlarining yig'indisini beradi. Maktab — bu muassasa, u yerda "Hammani har

narsaga o'rgatmoq kerak” degan fikrini izohlang.

Nazorat savollari:

1. Ya.A.Komenskiyning tarbiya haqidagi fikrlarini izohlang?
2. Ya.A.Komenskiyning sinf-dars tizimi nimalardan iborat edi?
3. Ya.A.Komenskiy o'qituvchilar haqida qanday fikr bildirgan?
4. K.D.Ushinskiyning hayoti va talabalik yillari?
5. K.D.Ushinskiy darsliklari va “Tarbiyada xalqchillik g'oyasi”.
6. K.D.Ushinskiy aqliy, axloqiy tarbiya va uning vositalari haqida.

Mustaqil ish topshiriglari:

Ya.A.Komenskiyning ta'lif-tarbiya haqidagi pedagogik qarashlari.

Ya.A.Komenskiyning sinf-dars tizimini qachon yaratdi.

K.D.Ushinskiyning didaktik ta'lifoti va uning ahamiyati.

Mavzu bo'yicha ilmiy xulosalar:

1. Ya.A.Komenskiyning tarbiya metolari haqida qarashlarini o'rganish muhim.
2. Ya.A.Komenskiy Buyuk didaktika asarini yaratilishi o'qitishning yangi usullarini o'rganish.
3. K.D.Ushinskiyning asarlarida o'qituvchi mehnati haqida fikrlari juda qimmatlidir.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Xoshimov K, Nishonova S, Imomova M, Xasanov R. Pedagogika tarixi. T.: Oqituvchi 1996.
1. Xasanboev J. Xasanboeva O. Xomidov X. Pedagogika tarixi.-T.: Щqituvchi. 1997.
2. Ishmuxammedov R.J. «Innovatsion texnologiyalar yordamida щqitish samaradorligini oshirish ушлари – Toshkent – 2000.